

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **PEDAGOGIKA**

**Pedagogikaning dolzarb  
muammolari va zamonaviy yutuqlari**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT**

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** **Avazov Sh.** – Toshkent davlat pedagogika universiteti, p.f.n., professor

**Taqrizchilar:** **p.f.d., prof. X.Ibragimov** – Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.  
**p.f.d., prof. B.Xodjayev** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti.

**Xorijiy ekspert:** **p.f.d., prof. Yumi Lee** – Graduate School of Dankook University.

**O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan  
( “30”-noyabr 2024-yildagi 4-sonli bayonoma)**

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR .....</b>	<b>30</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>152</b>
<b>V. GLOSSARIY.....</b>	<b>188</b>
<b>VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>205</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag‘i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyatiga asoslangan milliy oliy ta’lim tizimining sifatini oshishiga, Bolonъya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19 iyundagi Bolonъya deklaratasiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘ylgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korruptsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modulъ tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg’ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldag‘i “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-4623-sonli qarorida tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlash va tarbiyalashning uzluksiz tizimini joriy qilish; pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyatga joriy etish; sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-

kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minalash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko’nikmaga ega, tarbiya, o’qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish kabi pedagogika nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Ushbu dastur mazmunida Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, milliy pedagogikadagi yangilanishlar, xusan, barkamol shaxs kamolotining ma’rifiy asoslari, pedagogika fani va taraqqiyoti tendentsiyalarini, pedagogika fani va pedagogik amaliyotning dolzarb masalalari bayon etilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarida pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlariga oid yangi bilimlar, ko’nikmalar hamda malakalarini rivojlantirishdan iborat.

#### **Modulning vazifalari:**

- shaxs kamolotining ma’rifiy asoslari, pedagogika fani va uning taraqqiyot tendentsiyalarini o’rganish va tahlil qilish;
- pedagog kadrlar tayyorlash modeli, pedagogik faoliyat muammolari va pedagogik tizimlarni loyihalashtirish masalalarini o’rganish va tahlil qilish;
- tinglovchilarda mustaqil fikrlash madaniyati va kreativ qobiliyatni rivojlantirish asosida ijodiy faoliyat tajribasi, qadriyatlar tizimi, tolerantlik va axborot madaniyatini shakllantirishga kompetentli yondashuvning mohiyatini o’rganish va tahlil qilish;
- ma’rifiy (pedagogik) innovatika va innovatsion ma’rifiy tashkilotlar va klasterlarni yangi pedagogik hodisa sifatida o’rganish va tadqiq etish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko’nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” modulini o’zlashtirish jarayonida:

#### **Tinglovchi:**

- shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi omillar: irsiyat, muhit va ma’rifatning mazmun-mohiyati;
- zamonaviy pedagogik qarashlar, yetakchi kontseptsiyalar va oliy pedagogik ta’lim tizimining taraqqiyot tendentsiyalarini;
- pedagog kadrlar tayyorlash modeli, pedagogik faoliyat muammolari, pedagogik tizimlarni loyihalashtirish, hamkorlik pedagogikasi va talabalar pedagogik amaliyotini tizimli tashkil etish;

- mustaqil fikrlash madaniyati va kreativ qobiliyat, ijodiy faoliyat tajribasi, qadriyatlar tizimi, tolerantlik va axborot madaniyatini shakllantirishga kompetentli yondashuv;
- ma'rifiy (pedagogik) innovatika hamda innovatsion ma'rifiy muassasalar va klasterlar mohiyati haqidagi **bilimlarni egallashi**;
- pedagogik ta'lim, tarbiya va madaniyatni shakllantirish jarayonida irsiyat, muhit va ma'rifat kabi omillar imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish;
- zamonaviy pedagogik qarashlar, yetakchi kontseptsiyalar va oliy pedagogik ta'lim tizimining taraqqiyot tendentsiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;
- talabalarda mustaqil fikrlash madaniyati va kreativ qobiliyatni rivojlantirish, ijodiy faoliyat tajribasi, qadriyatlar tizimi hamda tolerantlik va axborot madaniyatini shakllantirish;
- innovatsion-pedagogik faoliyat metodlaridan foydalangan holda pedagogik faoliyatni loyihalashtirish;
- talabalarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini, pedagogik amaliyotini tashkil etish va o'tkazish;
- xorijiy va milliy ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha **ko'nikma va malakalarni egallashi**;
- pedagogik ta'lim, tarbiya va madaniyatni shakllantirish jarayonida irsiyat, muhit va ma'rifat kabi omillarning imkoniyatlarini tushunish, idrok etish;
- zamonaviy pedagogik qarashlar, yetakchi kontseptsiyalar va oliy pedagogik ta'lim tizimining taraqqiyot tendentsiyalarini analiz va sintez qilish;
- talabalarda mustaqil fikrlash madaniyati va kreativ qobiliyatni rivojlantirish, ijodiy faoliyat tajribasi, qadriyatlar tizimi hamda tolerantlik va axborot madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini baholash va ulardan xulosalar chiqarish;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlarda, talabalar pedagogik amaliyotida innovatsion-pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini qo'llay olish **kompetentsiyalarini egallashi lozim**.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, “Oliy ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar”, “Innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish” “Kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish”, “Talabalar bilimini baholash” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali

ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbliji, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan demokratik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-huquqiy o'zgarishlar, xususan, "yashil" iqtisodiyot va iqtisodiyotni raqamlashtirish va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngti yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

### **Modulning oliy ta'liddagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogikaning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlarini o'rganish, tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	Jami auditoriya soati	<b>Jumladan</b>	
			nazariy	amaliy
1.	Shaxs kamoloti - irsiyat, muhit va ma'rifat bilan shartlangan umumilmiy pedagogik kategoriya sifatida	2	2	
2.	Ma'rifat – milliy pedagogikaning bosh kategoriysi sifatida	2	2	
3.	Zamonaviy pedagogikaning innovatsiyalar bilan shartlangan umumiy asoslari	2	2	
4.	Pedagogika fani va amaliyotini rivojlantirishning innovatsion strategiyalari	4	4	
5.	Shaxs kamoloti va uni boshqarish – pedagogik muammo va umumilmiy kategoriya sifatida	2		2
6.	Ma'rifat – milliy pedagogikaning bosh kategoriysi	2		2
7.	Pedagogika metodologiyasi va ilmiy-tadqiqot metodlari	2		2
8.	Ta'lim jarayoni qonuniyatları, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari	2		2
9.	Pedagogik konsepsiylar, paradigmalar va pedagogika fanining rivojlanish tendensiyalari	2		2
10	Lokal va xususiy metodik darajali (keys-stadi) texnologiyalar hamda innovatsion jarayonlarni boshqarish	2		2
	<b>Jami</b>	<b>22</b>	<b>10</b>	<b>12</b>

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-Mavzu: Shaxs kamoloti - irsiyat, muhit va ma'rifat bilan shartlangan umumilmiy pedagogik kategoriya sifatida**

“Odam ontogenezi”, “shaxs onto-genezi” va “komillik (barkamollik)” tushunchalarining psixologik-pedagogik talqini. Shaxs kamoloti va uni harakatga keltiruvchi omillar: irsiyat, muhit, ma'rifat. Shaxsning jismoniy va ma'naviy kamoloti qonuniyatlari. Shaxs kamoloti - umumilmiy pedagogik kategoriya sifatida. Shaxs kamolotini boshqarish – eng muhim pedagogik muammo sifatida. Shaxs kamolotini boshqarishda pedagogik innovatikaning tutgan o'rni va ahamiyati.

### **2-mavzu. Ma'rifat – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi sifatida**

Rivojlangan davlatlar-da shaxs kamolotini ta'minlovchi pedagogik hodisalar va jarayonlarni o'rganishga ma'rifiy yondashuv. Ma'rifat – yaxlit pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida. Ta'lif va tarbiya – ma'rifatning “ikki qanoti”, o'zagi sifatida. “Ma'rifat” tushunchasi – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi sifatida. Ma'rifiy muammolar: 1) ma'rifat odamni o'qimishli qila oladimi? 2) ma'rifatning sifati qanday ta'minlanadi? 3) ma'rifat xizmat ko'rsatish sohasiga aylanishi mumkinmi? 4) ta'lif tashkilotlari o'quvchi-yoshlar salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda? 5) ma'rifatni axborotlashtirish qanday xavf-xatarlarga yetaklaydi? 6) ma'rifiy tizim qanday takomillashadi?

### **3-mavzu. Zamonaviy pedagogikaning innovatsiyalar bilan shartlangan umumiylashtirish asoslari.**

Inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning fan va o'quv fani sifatida tutgan o'rni. Pedagogik antropologiya. Pedagogikaning ob'ekti, predmeti va vazifalariga innovatsion yondashuvlar. Pedagogika fanlari tizimi va uning boshqa fanlar bilan integratsiyasi. Pedagogika fani va pedagogik faoliyat metodologiyasi. Pedagogikada metodologik yondashuvlar hamda ta'lif yoki tarbiya strategiyalarini belgilovchi printsiplar (yaxlit, funktsional, shaxsiy, dialogik, madaniy, etnopedagogik va antropologik yondashuvlar). Pedagogik tadqiqot metodlari tizimi. Pedagogik muammolar: 1) pedagogik bilimlar haqiqatan ilmiymi? 2) pedagogika – mustaqil, tobe bo'lmagan fanmi? 3) pedagogika qanday taraqqiy etadi? 4) pedagogikani san'at deb hisoblash mumkinmi? 5) amaliyotchi o'qituvchiga fan kerakmi?

### **4-ma'ruza: Pedagogika fani va amaliyotini rivojlantirishning innovatsion strategiyalari**

Pedagogik (didaktik) kontseptsiyalar, paradigmalar va eng maqbul ma'rifiy modellar. Pedagogika fanining rivojlanish omillari va tendentsiyalari. Pedagogikani rivojlantirishning maxsus strategiyalari: interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, problematizatsiya va refleksiya. Pedagogika fani va amaliyoti

integratsiyasi: pedagogik faoliyat; talabalar pedagogik amaliyoti; innovatsion ma'rifiy tashkilotlar va ma'rifiy klasterlar muammolari va yechimlari.

## **AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Shaxs kamoloti va uni boshqarish – pedagogik muammo va umumilmiy kategoriya sifatida**

Shaxs kamoloti. Shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi kuch. Shaxs kamolotidagi ichki va tashqi ziddiyatlar. Shaxs kamoloti omillari: irsiyat, muhit, ma'rifikat. Shaxs kamolotida ta'lif va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs kamolotini tashxislash va uning bosqichlari.

### **2-amaliy mashg'ulot: Ma'rifikat – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi**

Ma'rifikat – ijtimoiy hodisa va jarayon. Ma'rifikat – muayyan shaxs va jamiyat rivojlanishining umumiyligi shakli. Ma'rifikatning maqsadi. Ma'rifikatning mazmuni va o'ziga xos jihatlari. Ma'rifiy jarayonning tarkibiy qismlari. Ma'rifiy jarayonda ta'lif va tarbiya tizimining tutgan o'rni. Ma'rifikatga berilgan turlicha ta'riflar va ularning ilmiy talqini. Ma'rifikat – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi.

### **3-amaliy mashg'ulot. Pedagogika metodologiyasi va ilmiy-tadqiqot metodlari**

Inson haqidagi fanlarning asosiy vazifasi. Inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning tutgan o'rni. Pedagogik antropologiya va uning ahamiyati. Pedagogikaning ob'ekti, predmeti va vazifalariga yangicha yondashuvlar. Pedagogika fanlari tizimi. Pedagogika metodologiyasi. Asosiy metodologik yondashuvlar. Pedagogikaning yangi ilmiy yo'nalishlari (tarmoqlari). Pedagogik tadqiqotlarning turlari. Innovatsion tadqiqot.

### **4-amaliy mashg'ulot. Ta'lif jarayoni qonuniyatlari, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari**

Ta'lif jarayoni, uning qonuniyatlari. Ta'lif mazmuniga bilimga asoslangan va kompetentsiyaviy yondashuv. Didaktik tamoyillar. Ta'lif mazmuni nazariyalari. Kompetentlik va uning turlari. Zamonaviy darsga qo'yilgan talablar. Zamonaviy darslarning turlari va tuzilmasi. Lokal va xususiy metodik darajali (keys-stadi) ta'lif texnologiyalari.

### **5-amaliy mashg'ulot. Pedagogik konsepsiylar, paradigmalar va pedagogika fanining rivojlanish tendensiyalari**

Pedagogik kontseptsiya. Pedagogik kontseptsiyalarning turlari. Pedagogik paradigma. Pedagogik paradigmalarning turlari. Pedagogika fanining rivojlanish

omillari (manbalari). Pedagogika fanining rivojlanish tendentsiyalari. O'qituvchining innovatsion faoliyati. Ta'lim tashkilotining innovatsion faoliyati. Zamonaviy o'qituvchiga xos fazilatlar.

### **6-amaliy mashg'ulot. Lokal va xususiy metodik darajali (keys-stadi) texnologiyalar hamda innovatsion jarayonlarni boshqarish.**

Lokal va xususiy metodik darajali (keys-stadi) texnologiyalar va innovatsion jarayonlarni boshqarishga oid ma'lumotlarni tizimlashtirish. Lokal va xususiy metodik darajali (keys-stadi) texnologiyalar va innovatsion jarayonlarni boshqarishning mazmuni va mohiyatini tahlil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rileyotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy metodlari ta’lim jarayonida keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahsmunozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtiroy etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtiroy etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.




### **“Kichik guruhlarda ishslash” metodi**

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalg' etadi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo'naliishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta’lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta’lim oluvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbati” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mashg‘ulot mavzusi e’lon qilinadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta’lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta’lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni

tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta’lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.


4. Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta’lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagи “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o’tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o’tkazish tuzilmasi berilgan.



#### Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.



“FSMU”– (fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonining bahs-munozarali o’tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o‘z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda

shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o‘rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, o‘zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyligi fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:
  - ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.



**FSMU** tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “Pedagogika fanidan davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta’lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir”.

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?



### “XULOSALASH” (Rezyuml, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarining mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



Mashg‘ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhgaga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlarni o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

#### Namuna:

##### Pedagogika fanidan Davlat ta’lim standarti

Sobiq standart	Yangi standart
----------------	----------------

afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>			



### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	. kuchli tomonlari
W – (weakness)	. zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	. imkoniyatlari
T – (threat)	. to'siqlar

**Namuna:** Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Pedagogika fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
W	Pedagogika fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
O	Pedagogika fanlarini o'qitishda “Xulosalash” metoddan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
T	To'siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini “SWOT-tahlil” metodida tahlil qiling.

S	Oddiy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
W	O'qituvchi asosan a'luchi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
O	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokama jarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi,

		g‘oyalar tug‘ilishi mumkin
T	O‘qituvchi uchun asosiy to‘sinq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o‘qituvchini eshitib o‘tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari



## “Insert” metodi

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



## “Pinbord” metodi

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o‘quv suhabatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O‘qituvchi taklif etilgan muammo bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon qilishni so‘raydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag‘batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so‘zdan ko‘p bo‘lmagan) sifatida alohida qog‘ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O‘qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog‘oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo‘yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo‘lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo‘lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo‘lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog‘oz va varaqlaridagi) guruhlarga ajratadilar;

5) ularning o‘zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko‘rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.

### Madaniyat

moddiy madaniyat	ma’naviy madaniyat



### “Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g‘oyalarni, qarashlarni o‘zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo‘yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatları rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

**O‘qituvchi yechimi topilishi lozim bo‘lgan mavzu (masala)ni aniqlaydi**

**Tinglovchilar mavzu va metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi**

**Tinglovchilar kichik guruhlarga biriktiriladi**

**Guruhlari o‘zlariga berilgan topshiriqni bajaradi**

**Guruhlarning yechimni guruh jamoasi hukmiga havola etadi**

**Guruhlarning yechimlari guruh jamoasida muhokama qilinadi**

<b>O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar</b>	<b>Muhim belgilar, tavsiflar</b>		
	<b>1-belgi (tavsif)</b>	<b>2-belgi (tavsif)</b>	<b>3- belgi (tavsif)</b>
1-jihat			
2-jihat			
...			

**Namuna:**

<b>Pedagogika darslarida interfaol ta’lim usullaridan foydalanishning jihatlari</b>	<b>Muhim belgilar, tavsiflar</b>		
	<b>1-belgi (tavsif)</b>	<b>2-belgi (tavsif)</b>	<b>3-belgi (tavsif)</b>
“Assesment”			
“Insert”			
“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			



**“Tushunchalar” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldag'i tayanch tushunchalar tahlili”.

Tushunchalar	Sizningcha, bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shi mcha ma'lumot
Odam ontogenezi		
Shaxs ontogenezi		
Shaxs kamoloti		
Ma'rifat		
Antropologiya		
Innovatsiya		
Kontseptsiya		
Paradigma		
Integratsiya		
Strategiya		

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

### “Muammoli vaziyat” metodi

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



#### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan bиргаликда muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.



## “T-jadval” texnologiya

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

**Agar ular yozilgan fikrga qo‘silsalar, birinchi ustunda “+”, aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo‘yadilar.**

**Izoh: O‘qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariга qayd qilib boradi;

- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi

### “T-jadval” texnologiyasi

O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)	
+ (ha, ijobiy) afzalligi (yutug‘i)	- (yo‘q, salbiy) kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

### “Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”

Afzalliklari	Kamchiliklari
“Qaytar aloqa”ning ta’milanishi	ko‘p vaqt talab etilishi

motivasiyaning yuqori darajada bo‘lishi	tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o‘tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob’ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi	o‘qituvchining o‘zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko‘nikmasiga ega bo‘lishining talab etilishi
o‘z-o‘zini va boshqalarni baholash ko‘nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo‘lishi
mustaqil fikrlash	qaytar aloqaning ta’minlanmasligi

## XULOSA



## “Blis-o‘yin texnologiyasi”

**Sana va voqealarni to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar – .....asrlar.**

Tasvirlashga nisbatan bo‘lgan qiziqish insonlarni qadimdan o‘ziga jalg etib kelgan. Chunki u ibtidoiy davr odamlariga o‘zaro muloqot qilish, so‘zlashish uchun zarur bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki, tasvirlarning aksariyati ovchilik bilan shug‘ullanib kelgan qadimgi odamlarning hayvonlarni qanday ov qilganliklariga asoslangan. Ular hayvonlarning yurgan yo‘llarini kuzatib, qoya va g‘orlarda turli tasvir va belgilar qoldirganlar. Vaqt o‘tishi bilan ularning tasvirlash qobiliyatlari rivojlanishi natijasida keyinchalik har xil ov manzaralari o‘ziga hos dastlabki kompozitsiya yechimiga ega tarzda aks eta boshlagan.

Yil, sana	Sodir bo‘lgan voqelik

### “Venn diagrammasi” strategiyasi

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



## “Hamkorlikda o‘qitish” metodi

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir!

Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko‘nikmalar hamkorlikda o‘qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari betakror g‘oyalarni ko‘proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo‘lgan har xil o‘quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko‘proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg‘ulot o‘tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo‘lsa, tinglovchilarining o‘rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o‘qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o‘qiyotganlarga nisbatan ko‘proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o‘qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o‘qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko‘maklashadi;
- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o‘qish to‘g‘risida emas, balki insoniy, do‘stona munosabat to‘g‘risida ketayapti;
- axborot va “moddiy resurslar”, ya’ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan almashadi;
- o‘rtoqlari bergen ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va qo‘llashga harakat qiladilar. Og‘zaki tushuntirishlar, axborotni o‘ylab ko‘rish va umumlashtirish, o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o‘zlashtirish va umumiyligi maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo‘sishga olib keladi;
- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o‘rganadi. Intellektual maydondag‘i zidliklar qiziquvchanlikni rivojlaniradi, bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta anglash, o‘rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko‘p foydali sifat va ko‘nikmalarni shakllantiradi;

- tinglovchilar yaxshiroq o‘qishga intilishda bir-biriga ko‘maklashadi. O‘qishda o‘rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o‘zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o‘qiydi;
- bir-biriga ta’sir etadi. Hamkorlikda o‘qiyotgan guruh a’zolari o‘rtoqlariga ta’sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o‘z navbatida ta’sir uchun ochiqlar;
- aniq ifodolangan motivasiyaga ega. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;
- o‘zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a’zolari o‘z o‘rtoqlariga ishonadilar va o‘zlarini o‘rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O‘zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o‘qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya’ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyati;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘qiyotgan o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### **Guruhda ishslash qoidalari:**

Har kim o‘z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishslashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi zarur;

Har kimdan yordam so‘ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

Boshqalarga yordam berib, o‘zimiz tushunamiz!

Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho‘kib ketamiz!

### **Guruhda topshiriqni bajarish yo‘riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.
2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.

3. Topshiriqni bajaring.
4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o‘tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

### **1-bosqich**

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o‘rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta’lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a’zosi bir joyda bo‘lishlari va bir-birlarini ko‘rishlari va eshitishlari kerak, zarur o‘quv qo‘llanmalar barchaga yetarli bo‘lishi kerak.

### **2-Asosiy bosqich**

1. Ta’lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo‘li asosida ta’lim oluvchilarni guruhlarga bo‘ladi.

1. O‘quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta’lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo‘li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma’lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

2. O‘quv topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo‘yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo‘srimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishslash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

3. Ta’lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta’lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

4. Guruhlarda o‘quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o‘quv topshiriqni bajarish bo‘yicha ishni boshlanishi haqida e’lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlash,vazifani bajarish bo‘yicha yakka tartibda ishslash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo‘lgan alohida bo‘lib ishslashga, ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

5. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko‘rsatkichlarini eslatadi.

### **3-Nazorat –yakuniy bosqichi**

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o‘tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to‘g‘risida xulosalar chiqaradi.

### **Hamkorlikda o‘qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o‘z nuqtai nazarini dalillar bilan assoslashni shakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo‘llanishiga ko‘maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko‘proq vaqt sarfini talab etadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-ma’ruza: Shaxs kamoloti - irsiyat, muhit va ma’rifat bilan shartlangan umumilmiy pedagogik kategoriya sifatida**

##### **Reja:**

1. “Odam ontogenezi”, “shaxs ontogenezi” va “komillik (barkamollik)” tushunchalarining psixologik-pedagogik talqini.
2. Shaxs kamoloti va uni harakatga keltiruvchi omillar: irsiyat, muhit, ma’rifat. Shaxsning jismoniy va ma’naviy kamoloti qonuniyatları.
3. Shaxs kamoloti va uni boshqarish - pedagogik muammo va umumilmiy pedagogik kategoriya sifatida.
4. Shaxs kamolotini boshqarishda pedagogik innovatikaning tutgan o’rni va ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** odam; individ; shaxs; odam ontogenezi; shaxs kamoloti; irsiyat; muhit; ma’rifat; faoliyat; muloqot; rivojlanish; shakllanish; pedagogik innovatika.

#### **1. “Odam ontogenezi”, “shaxs ontogenezi” va “komillik (barkamollik)” tushunchalarining psixologik-pedagogik talqini**

Pedagogikaning ob’ekti odam individining kamol topishini belgilay-digan voqelik hodisalari bo’lganligi uchun “odam ontogenezi” tushunchasi bilan uzviy bog’liqdir. Zero, aql-zakovatli odam o’zida biologik, ijtimoiy va madaniy jihatlarni namoyon etadigan tirik organizmdir. Yer sayyorasida bunday xususiyatlarga ega bo’lgan boshqa jon egasi mavjud emas.

Quyi sut emizuvchilarining odam mansub bo’lgan *gominid oilasi* Yerning ekvator qismida, *odam zoti* esa Afrikaning sharqiy qismi va Janubiy Osiyo-da paydo bo’lgan. Gominid oilasi *avstralopiteklar* va “*oddiy odamlar*” deb ataluvchi ikki kenja oilani o’z ichiga olgan. Oddiy odamlar kenja oilasidan faqat bitta tur, ya’ni *Homo sapiens* - aqli odam saqlanib qolgan. Ko’pchilik olimlar *Homo sapiens* turi *neandertal odam* va *hozirgi odam* deb ataluvchi ikkita kenja turga bo’linadi, deb hisoblaydilar. 4 mldrд yillik tirik tabiat taraqqiyoti tarixida bundan 5-3,5 mln yil oldin odamning, *Homo sapiens*ning paydo bo’lishi tarixan uzoq davr emas. Odam Yerdagi istalgan biologik tur kabi o’tkinchi bo’lib, tirik tabiat evolyusiyasining mutlaqo “cho’qqisi” hisob-lanmaydi.

*Homo sapiens*ning genetik dasturi odamni **biologik tur** sifatida aniq-lab beradi. Genetik dastur DNK molekulasiiga yozilgan bo’lib, u avloddan av-lodga o’tishida turli xil genetik jarayonlarga (gen mutatsiyasi, genlar ko’chi-shi va h.k.) jalb etiladi. Odam o’zi yashayotgan tabiiy-ijtimoiy muhitning keskin o’zgarishi yoki ifloslanishiga tez moslasha olmaydi va bunday nomuvo-fiqlik turli kasallik yoki genetik buzilishlarga olib kelishi mumkin. De-mak, odam

irsiyati – genofondi eng noyob tabiiy resurs bo‘lib, uni muhofaza etish talab etiladi.

Dastlabki odamlar tabiiy muhit (landshaft) qurshovida yashagan, o‘zini tabiat bilan birga his qilgan, tirikchilik yo‘lida ovchilik va o‘simlik meva-larini yig‘ish bilan shug‘ullangan, vaqtinchalik kichik manzilgohlar qurib, oziq moddalarga boy hududlarga doimo ko‘chib yurishgan. Odamda mehnat qi-lish, ish quollarini yaratish va tafakkur qobiliyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uning turmush tarzini o‘zgartira boshlagan. *Aql (ong)* – odamlar-ga oziq-ovqat resurslari yetishmovchiliginin bartaraf qilish imkonini ber-gan: qishloq xo‘jaligi (bundan 10 ming yil oldin) vujudga kelgan, sanoat in-qilobi boshlangan (bundan 200 yil oldin). Odam buyuk yaratuvchi sifatida o‘zi uchun qulay yashash muhiti - madaniy landshaftlar, qishloq va shahar (urba-nizatsiya) tizimlarini vujudga keltirgan. Shu tariqa inson butun borliqning ko‘rkiga, eng yetuk va ongli vujudga, beqiyos ijtimoiy-madaniy hodisa – voqe-likka aylangan.

Demak, odamning hayot faoliyati tabiiy-biologik va ijtimoiy-madaniy omillardan ibort yaxlit shart-sharoitlar majmuida kechadi. U bu sharoitlarga nafaqat biologik, balki ijtimoiy-madaniy moslashishi ham zarur. Odam-ning biologik moslashishi hayvonlardan keskin farq qiladi va u ijtimoiy-madaniy omillar, ijtimoiy lashish jarayoni bilan shartlangan bo‘ladi. Shu sababli odam hayvonot saltanatida murakkab ijtimoiy-madaniy tuzilmaga va mehnat faoliyatiga ega bo‘lgan *betakror tur* sanaladi.

Odam **individ** (insoniy qiyofasi va shaxsi e’tiborga olinmagan alohida odam zoti) sifatida ijtimoiy-madaniy munosabatlar tizimiga kirgach, unda jamiyatga va o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlар vujudga kela boshlay-di. Inson **shaxsi** o‘zining genetik dasturi, tabiiy muhit omillari va o‘zi yasha-yotgan jamiyatga xos qadriyatlar, me’yorlar, yo‘l-yo‘riqlar va xulq-atvor namu-nalarini o‘zlashtirishi hamda o‘z shaxsiy tajribasi asosida yaxlit **ijti-moiy-madaniy mayjudot** sifatida shakllanadi (1.1-rasm).

Odam tabiiy-genetik, ijtimoiy-tarixiy va ma’rifiy-madaniy jarayon-lar va hodisalar sub’ekti va ob’ekti bo‘lib, ular tabiat va jamiyat tomonidan yaratilgan va odamni shaxs sifatida shakllantiradigan hayotiy muhit hisobla-nadi. Odamning ijtimoiy lashuvi, o‘ziga xos turmush tarzi va avlodlarning uzuksiz yangilanishi mazkur muhitda ro‘y beradi. Bu muhit moddiy va ma’na-viy qadriyatlar iste’molchisi, tashuvchisi, ijodkori va yaratuvchilik faoli-yatiga tayyor bo‘lgan *barkamol (komil)* inson shaxsini vujudga keltiradi. Har qanday odam boshqa insonlarsiz, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy-madaniy muhit ta’sirisiz “tirik murda” - individ holatida qoladi, o‘zligini angla-maydi. Demak, **shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihat-dan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqa-lardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan ja-miyat a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Har qanday yetuk shaxsga quyidagi xususiyatlар (tavsif) xos bo‘ladi: aql-farosat; mas’uliyat-javobgarlik; erk-erkinlik; qadr-qimmat; individuallik-o‘ziga xoslik.**

Barcha odamlar *insoniyat* (jamiyat, sotsium) deb ataluvchi populyatsiya tizi-mini hosil qiladi. Odam bu tizimda o‘ziga xos ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-madaniy xislatlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, biosfera qonuniyatlarini dorasidan tashqariga chiqsa olmaydi. Odamning jismoniy tanasi, anatomik-fiziologik tuzilishi va xususiyatlari uning *biologik jihatini*; o‘rganish va bilishga qobilligi, o‘zgalar bilan o‘zar o‘sishiga kirishishi va munosabat-lar o‘rnatishi, ruhiy-ma’naviy barkamollikka erishish istagi esa *ijtioiy-madaniy jihatini* anglatadi. Odamda bu jihatlarning o‘zar o‘sishiga kirishishi yaxlit inson shaxsi shakllanishini ta’minlaydi. Zero, inson – o‘z aqli va ruhi sohibi; o‘z shaxsi, madaniyat va taraqqiyot buniyodkori. Inson – eng oliy qadriyat, uning baxt-saodati esa eng oliy maqsad hisoblanadi.


*Odam ontogenezi* – odam organizmining homiladan boshlab o‘limigacha bo‘lgan hayotiy davrida kechadigan individual rivojlanish jarayoni. “Ontogenet” termini 1866 yilda E.Gekkel tomonidan fanga kiritilgan. Ontogenet jarayonida odam organizmning o‘sishi, a’zolarining tabaqalanishi, farqlanishi va o‘zar o‘sishiga holda mukammal rivojlanishi ro‘y beradi. *Ontogenet* – shaxs kamolotini ta’minlovchi irsiy dasturning izchil amalidir.

Odam ontogenezinining quyidagi asosiy *davrlari* ajratib ko‘rsatiladi:

1. *Homila - tug‘ruqdan oldingi davr*. Homilador bo‘lish – ota-onaya hayotidagi buyuk ajiblik va eng mas’uliyatli davr bo‘lib, unga oldindan astoydil, puxta o‘ylab tayyorlarlik ko‘rilishi lozim: o‘zini qattiq hayajonlanishdan as-rash; sifatli va vitaminlarga boy oziq-ovqatlarni iste’mol qilish; zararli odatlardan voz kechish; bolaning taxminan qachon tug‘ilishini muhokama qi-lish va h.k. Xususan, ona organizmini tozalash, asab tizimini tayyorlash va ota maniysini sog‘lomlashtirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Homiladorlik davrida ona va bola yaxlit, bir butun organizm hisoblanadi. Homiladorlikning dastlabki uch oyida homila zararli ta’sirlarga o‘ta sezgir bo‘ladi.

Agar yuqorida keltirilgan va shifokorning boshqa tavsiyalariga amal qilinsa, homila ona organizmida o‘zini juda yaxshi his qiladi.

2. *Tug‘riq atrofidagi davr* - homiladorlik yakunlanadigan murakkab fiziologik jarayon bo‘lib, tug‘ishgacha, tug‘ish va tug‘ishdan keyingi davrlarga bo‘linadi, ya’ni homiladorlikning 28 haftasidan tug‘ishdan keyingi 1 haftani o‘z ichiga oladi. Homilaning tug‘ruq yo‘li bo‘ylab kelishi, bachadondan siqib chiqarilishi va noqulay vaziyatlarda akusherlik aralashuvini karaxt bo‘lib uqlab yetgan chaqaloqni qiyash yoki unga shavqatsizlik qilish bilan qiyoslash mumkin. Shu sababli homila bachadondan avaylab chiqariladi. Tug‘ish paytidagi shikastlanish, irsiy kasalliklar va homiladorlik asoratlari – go‘dak ta-nasidagi kamchilik va nuqsonlarning ko‘p uchraydigan sabablari hisoblanadi.



1.1-rasm. Odam - biologik tur va ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida

3. ***Chaqaloqlik*** - yangi tug‘ilgan chaqaloqning tashqi yashash muhitiga dast-labki ruhiy-fiziologik, jadal moslashish davri hisoblanadi. Chaqaloq ona organizmidan tabiiy ajralib chiqqach, uni parvarishlash uchun doimiy va qa-lin aloqalar o‘rnataladi. Oldiniga yangi tug‘ilgan chaqaloqning ichki muhiti, histuyg‘ulari bilan bog‘liq ta’sirlanishlar paydo bo‘ladi, ular tashqi muhit qo‘zg‘ovchilari bilan sust bog‘lanadi. Chaqaloq me’yorida rivojlansa, bir oy o‘tgach jonlanish paydo bo‘ladi. Bolaning hissiy va harakat sohasida keskin o‘zgarishlar boshlanib, ular muvofiqlasha boshlaydi. Keyinchalik onasini ko‘r-sa kuladigan, ovoz chiqaradigan, u tomonga qo‘llarini cho‘zadigan bo‘ladi.

4. ***Go‘daklik ( 1 yoshgacha)*** - go‘dak faoliyatida (qo‘lida narsalar bilan mu-rakkab va nozik harakatlar qilish) yoki uning atrofdagi odamlar bilan muloqoti va xulq-atvorida yetakchi ruhiy faollik bosqichlarining almashinushi kuzatiladi. Go‘daklik – bola bilan ona o‘rtasida hissiy muloqot qaror topishi-ning nozik tabiatli, o‘ta ta’sirchan davri. Bu davrda bolada ayrim ruhiy si-fatlar va faoliyat turlarini rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo‘ladi. Go‘daklikning 4 oygacha bo‘lgan davrida ruhiy kechinmalar-ning sezish, his qilish sohasi harakatlanish tizimining rivojiga nisbatan jadal rivojlanadi. Go‘dakning qo‘l kafti ochilishi bilan (bungacha barmoqla-ri mushtiga siqilgan bo‘ladi) o‘ynichoqlar o‘ynash imkoniyati paydo bo‘ladi, taqlidiy tovushlar chiqaradi. Go‘dak 9 oyligida o‘rnidan turadi, yura boshlay-di, birinchi so‘zni to‘g‘ri talaffuz qiladi.

5. ***Ilk bolalik (1-3 yosh)*** – bolaning turli narsalar bilan shug‘ullanishi yetakchi faoliyatga aylanadi. Bola hamma narsani o‘zgalar yordamisiz o‘zi qilishga urinadi. Bola kiyinish, ovqatlanish bilan bog‘liq hatti-harakatlari-ni o‘yin faoliyatiga ko‘chiradi, o‘zida harakatlanish ko‘nikmalari va yaqqol-ha-rakatli tafakkurni rivojlantiradi. Shu bilan birga uning muloqotida yangi sifat – jumlali, iborali nutq vujudga keladi. Bolada terslik va o‘jarlik kabi salbiyliklar paydo bo‘ladi. Agar bola ota-onasining xoxish-istaklari-ni oldin bajarib kelgan bo‘lsa, endi u o‘zining xoxish-istagiga g‘ov bo‘lgan narsani qilishni istamaydi. Bu uning tabiatida iroda sifatlari shaklla-nayotganligidan darak beradi. Bolani quloqsizligi uchun jazolash salbiy pe-dagogik natija berishi mumkin (bunday paytda bolaning diqqatini u qiziqa-yotgan narsaga jalb etishning o‘zi etarli hisoblanadi). Bolaning yolg‘on yorda-mida jazodan qochishga intilishi - jazolashning boshqa oqibati bo‘lishi mum-kin.

6. ***Maktabgacha yosh (4-6 yosh)***. Muloqot yana yetakchi ruhiy faollikka ayla-nadi. Bola o‘ziga yaqin, tanish odamlar atrofida girdikapalak bo‘ladi. Bu bo‘laning “nima”chi davri bo‘lib, u to‘xtovsiz savollar beradi. Bolada bilishga oid ehtiyojlar uyg‘onadi. Bolaning savollariga javob bermaslik ularda at-rofdagi olam sirlarini bilishga qiziqish yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Bola tengdoshlari bilan o‘yin faoliyatiga qo‘shiladi, uning tartib-qoidalari tushunib yetadi va unda taqlid qilish jadal rivojlanadi. Rasm so-lishda, plastik materiallardan narsalar yasashda, narsalar tuzilmasi bilan ishlashda yaqqol-harakatli tafakkurdan yaqqol-obrazli tafakkurga o‘tish ja-rayoni kechadi. Bu davrda bolaning ijodiy imkoniyatlari haqida bashorat qi-lish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, yaxshi rasmlar bilan bezatilgan mehribon-lik, qahramonlikka intilish haqidagi ertaklarning tutgan o‘rnini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Bolada hisoblash, o‘qish, yozish, sport bilan shug‘ul-lanish, hunarmandlik ko‘nikmalarini rivojlana boshlaydi.

7. **Kichik muktab yoshi (7-10 yosh; 1-4 sinf).** O‘quv faoliyati - yetakchi ruhiy faollik hisoblanadi. Bola o‘z soddadilligini yo‘qotadi – unda o‘z ruhiy hola-ti haqida o‘ylash, fikr yuritishning kishi bilmas ichki dunyosi vujudga kela boshlaydi. Xulq-atvorida o‘zining ulg‘ayishini his etish ifodasi sifatida sulukatlar (qiliqlar) paydo bo‘ladi. Bolaning ijtimoiy mavqeini o‘zgaradi – u endi muktab o‘quvchisi hisoblanadi. Uning hayotida ota-onasi kabi ahamiyatga ega bo‘lgan yaqin kishi – o‘qituvchi paydo bo‘ladi. O‘quvchining o‘z-o‘zini baholashi aksariyat hollarda o‘qituvchi bahosiga bog‘liq bo‘ladi, ikkinchi tomondan, u yangi muktab jamoasida o‘z mavqeini belgilab olishi kerak bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchining bilish motivlari, diqqati (bular pedagogning asosiy vazifasi) va xotirasi (mazkur yosh davrining eng katta imkoniyati) rivojlanadi, yaqqol-obrazli tafakkuri asta-sekin og‘zaki-mantiqiy, mav-hum tafakkurga aylana boo‘laydi. Sport o‘yinlari, aqliy va didaktik o‘yin-lar natija, ya’ni g‘alabaga yo‘naltirilgan bo‘lib, musobaqa – bellashish xusu-siyatiga ega bo‘ladi. Bolada ixtiyoriy erkinlik, ish-harakatlarning ichki reja-si, o‘z-o‘zini nazorat etish kabi sifatlar rivojlanma boshlaydi.

8. **O‘smirlilik (11-15 yosh).** Muloqotga kirishish - yetakchi ruhiy faollik hisoblanadi. Bu yoshda bola organizmida jinsiy garmonlar jadal ishlab chiqilishi, jinsiy maylning paydo bo‘lishi yoki kuchayishi, o‘g‘il yoki qiz bola-larda ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishi bilan bog‘liq holda “jinsiy balog‘atga yetish”ning dastlabki davri vujudga keladi. Bu davr o‘smir irlsiyati va u yashayotgan iqlim mintaqasiga bog‘liq holda 10-16 yosh chegaralariga yaqinlashishi mumkin. Qiz bolalar o‘g‘il bolalarga nisbatan bir-ikki yil ol-din ulg‘ayadilar.

O‘smirlilik yoshi bolaning biologik mavqeini bilan ijtimoiy mavqeini o‘rta-sida ichki ixtilofni yuzaga keltiradi va unda do‘q-po‘pisa ohangidagi hulq-atvor shakllari hamda kattalar odasi va turmush tarziga taqlid qilishga in-tilish vujudga keladi. O‘smirda o‘z mavqeini belgilab olish istagi, o‘ziga diqqat-e’tibor qaratish va o‘ziga xosligini ko‘rsatish ehtiyoji keskinlashadi. O‘smir omadsizlik, yanglishish, fikrlari to‘zg‘ib ketishi, umidsizlik, o‘z-o‘zi-dan qoniqmaslik kabi vaziyatlarga tez-tez tushib turadi. Bu davrdagi asosiy pedagogik vazifa - o‘smir qiziqishlarini ijtimoiy o‘zanga yo‘naltirishdan iborat.

9. **O‘spirinlik (16-19 yosh).** Dunyoqarashi shakllanib, kasbga qiziqishlari va uning asoslarini egallash orqali o‘z taqdirini o‘zi belgilash jarayoni boshlanadi va amalga oshadi. Xususan, hayotda o‘z o‘rnini izlab topishi faoliyatining yetakchi turiga aylanadi. Muktobni bitiradi, kasb tanlaydi, kasbiy ta’-lim oladi va mehnat faoliyatini boshlaydi. O‘zini anglaydi, hayotiy rejalar tuzadi, o‘zini-o‘zi baholaydi, axloqiy mo‘ljallar (yaxshilik va yomonlik, ado-lat va qonunsizlik, nomuslilik va nomussizlik) asosida barqaror axloq vu-judga keladi, dunyoqarashning shakllanishi davom etib, yaxlit bilimlar, qa-rashlar va

e'tiqodlar tizimi paydo bo'ladi. Mustaqillikka erishadi, o'ziga ijtimoiy majburiyatlar oladi, o'z nuqtai nazari shakllanadi, yakka tartibda shaxslararo munosabatlar o'rnatadi, birinchi muhabbatni boshdan kechiradi.

10. ***Yoshlik* (20-29 yosh).** Oila qurib, farzand ko'rildigan va tanlangan kasbni egallah, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanirish orqali katta yoshli-lar hayot tarzi yuzaga keladigan ijtimoiy-biologik yosh. Umr yo'ldoshini tan-lash va oila qurish – yoshlik davriga xos xususiyat. Yetakchi faoliyat turi - kas-biy ta'lim va kasbiy faoliyat bo'lib, kasbiy kompetentlikka ega bo'lish hissi vujudga keladi, o'z fikrini (g'oyasi, dunyoqarashini) ifodalashga intiladi, aq-liy imkoniyatlari kengayadi, o'ziga xos turmush tarzi va qadriyatlar tizimi shakllanadi, do'stona munosabatlar o'rnatadi, hayotning ma'nosini tushunadi.

11. ***Balog'at yoshi* (30-59 yosh).** Ishda muvaffaqiyatga erishiladigan, ba'zan muvaffaqiyatsizliklar sodir bo'ladigan va bekamu ko'st oila quriladigan ij-timoiy-biologik yosh. Inson hayotining eng uzoq davrlaridan biri sifatida shakllanishi allaqachon tugagan psixologik, o'ziga xos, shaxsiy va kasbiy fazilatlarning jadal yuksalish davri. Ish, martaba, oila – bu davrning asosiy masalalari bo'lib, har bir kishi mas'uliyat hissi va umumiy qobiliyatlar orti-shi evaziga hayotda va kasbiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishga harakat qiladi.

12. ***Keksalik* (60-74 yosh).** Organizm a'zolari va tizimlarida o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berib, hayotga moslashish imkoniyatlarining susayishi bilan kechadigan yoshga bog'liq davr. Xususan, turli kasalliklar paydo bo'lishi, jismoniy qibiliyatlar yomonlashuvi, o'zini jamiyat va yaqinlariga keraksiz deb hisoblash, o'lim qo'rquvi va hayot tugashi bilan bog'liq qayg'u va tushkunlikning paydo bo'lishi va sh.k. Shuningdek, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi, nevaralar bilan muloqot, o'z faoliyatining moddiy va ma'naviy samarasidan rohatlanish, o'zini-o'zi kamol toptirish va o'z tajribasini boshqalarga yetkazish davri. Bu davr odatda pensiyaga chiqish bilan belgilanib, turmush tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Odamning ijtimoiy vazifasi, shaxsiyati o'zgaradi va yangi imkoniyatlar tufayli o'zini boshqacha tutishni boshlaydi.

13. ***Qarilik* (75-90 yosh).** Agar inson salomat bo'lsa - donishmandlik, dar-dmand bo'lsa - hayotdan xulosa chiqarish va o'limga tayyorgarlik davri.

14. ***Uzoq umr ko'rishlik* (90 yoshdan keyingi davr).**

Demak, *odam ontogenezi* - odamning irsiy dastur asosida jismoniy-biologik rivojlanish yo'li, *shaxs ontogenezi* - shaxsning ijtimoiy dastur-lar asosida ruhiy, ma'naviy-madaniy shakllanish yo'li bo'lib, ular o'zaro shartlangan, uyg'unlashgan va uzviy yaxlit jarayon – shaxs kamolotining ikki jihatli sifatida barkamol inson shaxsining vujudga kelishini ta'minlaydi va o'ziga xos tushunchalar orqali tavsiflanadi (1.2-rasm).

Har qanday odam zotida (individda) tug'ilganidan boshlab, o'zaro bog'liq ikkita chiziq – *biologik* va *ijtimoiy* rivojlanish kuzatiladi. Bola *biologik mavjudot* sifatida tug'iladi, ammo *shaxs* tug'ildi deb aytilmaydi. Odam-da skelet, muskullar, shuningdek ichki a'zolar va tizimlar rivojlanadi. Odamning biologik rivojlanish jarayoni uni ijtimoiy mavjudot sifatida tavsiflovchi *ijtimoiy*

*xusususiyatlар va sifatlar* egallanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, bola bir yarim oyligidan boshlab yaqinlarini ko‘rganda kula boshlaydi, keyin nutqi chiqadi, tik yurish qobiliyatiga ega bo‘ladi, nar-salar bilan muloqot qilish odatlari va ko‘nikmalarini o‘rganadi, shuningdek oilada va ko‘chada o‘zini tuta oladi, muayyan vazifalarni bajarishga kirishadi va sh.k.

Bola keyingi rivojlanish davrlarida bilimlarini boyitadi, ahloqiy me’yor va qoidalarni o‘zlashtiradi, kiyinishni o‘rganadi, u yoki bu ishni mu-vaffaqiyatli bajarish qobiliyatlariga ega bo‘ladi va sh.k.

Shunday qilib, biologik mavjudot bo‘lgan odam o‘z hayoti jarayonida ko‘p-lab ijtimoiy xususiyatlар va fazilatlarni o‘zida shakllantiradi va rivoj-lantiradi. Shuning uchun odam fanda *bioijtimoiy mavjudot* sifatida qarab chiqiladi. Binobarin, odam tushunchasi o‘zida biologik va ijtimoiy xususiyat hamda fazilatlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi (birlashtiradi).

Shaxs tushunchasi odamning nutq, ong, turli odatlar kabi ijtimoiy xususiyatlari va fazilatlarini o‘z ichiga oladi va bular uni ijtimoiy mavjudotga aylantiradi. Odamning biologik xususiyatlari (tavsifi) shaxs tushunchasi mazmuniga kiritilmaydi. Shuning uchun shaxs mohiyatini uning soch-soqoli, qoni, mavhum jismoniy tabiatini emas, balki ijtimoiy sifati belgilaydi. Shaxs bo‘lish xususiyati odamning jismoniy hayoti bilan emas, balki ijti-moiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: *shaxs tushunchasi odamning ijtimoiy mohiyatini tavsiflaydi va uning hayoti davomida o‘zida shakllantiradigan ijtimoiy xususiyatlari va fa-zilatlari majmuini anglatadi*.


Shaxsiy sifatlar odamning hayoti davomida shakllanganligi sababli ay-rim odamlarda *aniqroq*, ba’zilarda *zaifroq* namoyon bo‘lishi mumkin. Savol tug‘iladi: odamning shaxsiy rivojlanish (kamol topish) darajasini qaysi mezonlar bo‘yicha aniqlash mumkin?

Mashhur psixolog olim C.JI. Rubinshteyn shaxs o‘z hatti-harakati va faoliyatini ongli ravishda boshqarishga imkon beruvchi *psixik rivojlanish darajasi* bilan ajralib turadi, deb ta’kidlagan. Shu sababli o‘z hatti-hara-katlari haqida o‘ylash va ular uchun javobgar bo‘lish qobiliyati shaxsning aj-ralmas belgisidir.

Mashhur faylasuf V.P. Tugarinov esa shaxsga xos eng muhim xususiyatlarga quyidagilarni kiritgan:

- 1) oqillik;
- 2) mas’ullik;
- 3) erkinlik;
- 4) shaxsiy qadr-qimmat;
- 5) individuallik (shaxsiyat).

Aksariyat psixologlar shaxs tushunchasini odamning *yoshi* va *psixik (ruhiy)* *yetukligi* bilan ham bog‘laydilar. Shu nuqtai nazardan ma’lum bir psi-xik rivojlanish darajasiga etmagan go ‘dak, shuningdek hatti-harakatlarida onglilikni namoyon qila olmaydigan *ruhiy xasta kishi* shaxs bo‘la olmaydi.



1.2-rasm. Shaxs kamolotining asosiy jihatlari va Komillik (barkamollik)

Shaxs qanchalik *kuchli* bo‘lsa, unda ijtimoiy xususiyatlar va fazilatlar yorqinroq va aniqroq namoyon bo‘ladi, uning faoliyati qay bir darajada *ijo-diy* bo‘ladi. Shu ma’noda odam va shaxs tushunchalarining tavsifi *individual-lik* (*shaxsiyat*) tushunchasi bilan to‘ldiriladi.

Individuallik (*shaxsiyat*) bir kishi yoki shaxsning o‘zgalarga o‘xshamasli-gi va ulardan ajralib turishi bilan tavsiflanadi. Individuallik (*shax-siyat*) odam yoki shaxs tabiatи va mijozining o‘ziga xosligi (masalan, irodasi muvozanatlashgan va sobitqadam kishi), ijodiy faoliyat va qobiliyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadiki.

Shunday qilib, *rivojlanish* (*kamol topish*) deganda odamning anatomik-fiziologik yetilishida, asab tizimi va ruhiyatining takomillashuvida, shu-ningdek uning bilish va ijodiy faoliyatida, dunyoqarashi, axloqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va e’tiqodlari boyishida yuz beradigan o‘zaro bog‘liq miq-dor va sifat o‘zgarishlari jarayoni tushunilishi kerak. Bu jarayon tufayli hayotiy muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatlari darajasining oshishi ta’-minlanadi. Rivojlanish, ya’ni kamol topishning integral natijasi va ko‘r-satkichi – shaxslar, guruhlar yoki jamoalarning *kamol topganlik* (*barkamol-lik*) darajasi hisoblanadi.

*Kamol topganlik* (*barkamollik*) – odamning aqliy, ijodiy, jismoniy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan (masalan, pedagogik, texnik, huquqiy, musiqiy va sh.k.) bardoshli fazilatlari, xususiyatlari, umumiy va alohida qobiliyatlarining mukammallik va samaradorlik darajasi. Kamol topganlik (*barkamol-lik*) *tarbiyalanganlik* ko‘rsatkichlaridan odamning shaxs kabi ijtimoiy yo‘na-lganligi bilan emas, balki uning hayotda, ishda ahamiyatga ega bo‘lgan, shuning-dek uning o‘qimishliligi, ta’lim olganligi va tarbiyalanganligida gapiri-ladigan funksional xususiyatlariga bog‘liqligi bilan farqlanadi.

*Shakllanish* shaxs rivojlanishi (*kamol topishi*) natijasi sifatida na-moyon bo‘ladi va uning qaror topishini, barqaror xususiyat va fazilatlar maj-muini egallab olishini anglatadi. Boshqacha aytganda, *shakllanish* – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, psixologik va pedagogik omillar ta’si-rida odamning ijtimoiy mavjudot sifatida qaror topish jarayonidir.

Demak, *shaxs kamoloti* deganda odamning anatomik-fiziologik balog‘atga yetishida, uning asab tizimi va psixikasi, shuningdek bilish va ijodiy faoliyati mukammallahuvida, dunyoqarashi, axloqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va e’tiqodlari kengayishida sodir bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarish-larining o‘zaro bog‘liq jarayoni tushuniladi. Bu jarayon shaxs va insoniyat ja-miyatining hayotiy muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyati darajalarini oshi-rishga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, *shaxsning shakllanishi* shaxs kamo-lotining natijasi sifatida namoyon bo‘ladi va uning barqaror xususiyat va fazilatlar majmuiga ega bo‘lishini ifodalaydi.

Shaxs kamolotida *yoshga bog‘liq* va o‘ziga xos tafovutlar mavjud. Bular ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

*Yoshga bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlar* – bir xil yoshdagи ko‘pchilik kishilarga xos bo‘lgan jismoniy, aqliy (bilish), mavzuiy va hissiy xususiyatlar majmui. Shaxs kamolotida umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar namoyon bo‘ladi.

**Umumiy xususiyatlar** - muayyan yoshdagi kishilarga xos bo‘lgan, **o‘ziga xos xusu-siyatlar** - muayyan odamni boshqalardan ayirib turadigan aqliy, irodaviy, ma’naviy va boshqa shaxsiy xislatlar majmui.

Ta’lim-tarbiya ishlarida bolalarning **yosh xususiyatlari** qat’iy hisobga olinishi lozim. Shaxs kamolotining har bir bosqichida faoliyatning muayyan turi yetakchi o‘rin tutadi. Yoshning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish – asosiy pedagogik tamoyillardan biri bo‘lib, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning eng maqbul shakllari va texnologiyalarini (metodlarini) to‘g‘ri tanlashga im-kon beradi.

E. Eriksonning **epigenetik modeli** shaxs (inson) kamoloti bosqichla-rini aks ettiradi. Bu model inson hayotiy davrlari: bolalik, yetuklik va kek-salikni bat afsil tavsiflovchi birinchi psixologik nazariyadir.

E. Erikson fikricha, shaxsning psixologik qaror topishi embirion rivojlanishiga o‘xshaydi. *Epigenez* tushunchasi har bir element boshqa qismlar-ga nisbatan rivojlanib borishini anglatadi. “Epi” - ustidan, “genезис” – ke-lib chiqish ma’nosini anglatadi. Erikson modeli o‘z tuzilmasiga ko‘ra embirionning rivojlanishini eslatadi: har bir keyingi bosqichning vujudga ke-lishi oldingi bosqich rivojlanishi bilan belgilanadi (1.3-rasm).

Tirik mavjudotning barcha organlari va tizimlari ma’lum vaqt orali-g‘ida, ma’lum bir ketma-ketlikda rivojlanadi. Erikson **epigenetik prinsip-ni** quyidagicha izohlaydi: har bir o‘sadigan narsaning asosi bor: uning alohi-da qismlari shu asosdan ko‘tariladi va har birining o‘sish davri bor – barcha qismlar ko‘tarilmaguncha, yaxlit bir butunlik hosil bo‘lmaydi.

Shaxs kamolotining har bir bosqichi o‘ziga xos *rivojlanish vazifikasi* yoki *inqiroz* bilan tavsiflanadi; odam keyingi bosqichga o‘tishi uchun bu inqi-roz (ziddiyat) hal qilinishi kerak. Muvaffaqiyatli hal qilinish jarayonida rivojlanadigan *kuchlar va qobiliyatlar* shaxsga yaxlit ta’sir ko‘rsatadi. Inqirozdan oldingi yoki keyingi voqealar ham ularga ta’sir qilishi mumkin. Am-mo, qoidaga ko‘ra, mazkur psixologik qobiliyatlar ko‘pincha paydo bo‘lish bosqichida ishtirok etadi. Har bir bosqich tizimli ravishda qolgan bosqichlar bi-lan o‘zaro uzviy bog‘lanadi va barcha bosqichlar ma’lum bir ketma-ketlikda ro‘yobga chiqishi (o‘talishi) kerak bo‘ladi.

Quyidagi jadval E. Eriksonning “Bolalik va jamiyat” kitobidan olin-gan (1.3-rasm). Jadvalda vaqt davomida bosqichlarning o‘tish ketma-ketligi keltirilgan. Har qanday xossa (xususiyat) uning kritik (muhim) bosqichidan oldin va keyin turli shakllarda mavjud bo‘ladi. Masalan, *e’tiqod* yoshlik davrida bir shaklda, qarilikda boshqa shaklda bo‘ladi, biroq ikkalasi ham bolalikda rivojlangan *ishonch* tuyg‘usiga asoslanadi. davrida bir shaklda, qarilikda boshqa shaklda bo‘ladi, biroq ikkalasi ham bolalikda rivojlangan *ishonch* tuyg‘usiga asoslanadi.

Shaxs kamolotining mazkur bosqichlariga muvofiq **yosh bo‘yicha pedagogik davrlashtirish** amalga oshirilgan (D.B. Elkonin bo‘yicha):

1) **chaqaloqlik - go‘daklik** (1 yoshgacha) – bevosita muloqotga ehtiyojlar va hissiy munosabatlar paydo bo‘ladi;

- 2) ***ilk bolalik*** (*1 yoshdan 3 yoshgacha*) – predmetli faoliyat, nutq va yaqqol-harakatli tafakkur yuzaga keladi;
- 3) ***maktabgacha yosh*** (*3 yoshdan 7 yoshgacha*) – rolli o‘yinlar, ijtimoiy aha-miyatlari va qadryatli faoliyatga ehtiyojlar paydo bo‘ladi;
- 4) ***kichik maktab yoshi*** (*7 yoshdan 11 yoshgacha*) – ta’lim olishga ehtiyoj, ix-tiyorliq erkinlik, ish-harakatlarning ichki rejasi, o‘z-o‘zini nazorat etish va o‘z ruhiy holati haqida fikr yuritish, uni tahlil etishga moyillik yuzaga ke-ladi;
- 5) ***o’smirlik*** (*11 yoshdan 15 yoshgacha*) – tengdoshlari bilan shaxsiy muloqot va “balog‘atga yetish”ga intilish paydo bo‘ladi;
- 6) ***o’spirinlik*** (*15 yoshdan 19 yoshgacha*) – o‘quv-kasbiy faoliyat, dunyoqarash shakllanadi, kasbga qiziqish va uning asoslarini egallash amalga oshadi;
- 7) ***yoshlik*** – (*19 yoshdan 28 yoshgacha*) – oila qurishi va tanlangan kasbini egallashi orqali katta yoshlilar hayot tarzi yuzaga keladi.

## **2. Shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi omillar: irsiyat, muhit va ma’rifat. Shaxsning jismoniy va ma’naviy kamoloti qonuniyatları**

**Odamning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun sog‘lom irsiyat, yashash muhiti va ma’rifiy shart-sharoitlar kerak bo‘ladi. Ma-na shu omillar ta’sirida odam zoti (individ) shaxsga aylanadi.**

Demak, shaxs kamoloti jarayoni va natijasi *irsiyat, muhit* va *ma’rifat* kabi omillarning o‘zaro uzviy birligida vujudga keladi va aniqlanadi. Qu-yida shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi *asosiy omillar* haqida fikr yuritiladi:

1. ***Irsiyat*** – ota-onadan bolaga muayyan sifatlar va xususiyatlarning o‘tishini ifodalaydi. Ular sirasiga quyidagilar mansubdir:
  - 1) biologik tur sifatida odam belgilarini aks ettiruvchi *anatomik-fi-ziologik tuzilmalar* (nutq, to‘g‘ri yurish, tafakkur va mehnat faoliyatiga oid iste’dod nishonalari);
  - 2) *tabiiy o‘ziga xos xususiyatlar* (tashqi irqiy belgilar, teri va sochning rangi, ko‘zning rangi va qorachiqda nurning sinishi, yuz tuzilishi, qaddi-qomat, inson tabiatini yuzaga keltiruvchi asab tizimining tuzilishi);
  - 3) *fiziologik o‘ziga xos xususiyatlar* (qon guruhi, rezus-faktor, moddalar almashinushi shakli);
  - 4) organizm rivojlanishidagi *me’yordan chetga chiqishlar*;
  - 5) ayrim *irsiy kasalliklarga moyilliklar*.

Shaxsning o‘ziga xos psixologik xususiyati, ya’ni *iste’dod nishonalari* – qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ichki imkoniyatlar nasldan-naslga o‘tadi. *Talant* – qaysidir sohadagi iste’dodning eng yuqori darajasi, ya’ni misli yo‘q qobiliyat hisoblanadi. Shuningdek, faoliyatning muayyan turlari bo‘yicha *maxsus qobiliyatlar* ham (musiqiy, badiiy, matematik, pedagogik qobiliyat va h.k.) farqlanadi.

Shaxs kamolotining sakkiz bosqichi va ular bilan bog'liq kuchlar (sifatlar):	
VIII bosqich. <i>Keksaik</i>	Tushkunlik / butunlik. <b><i>Donolik</i></b>
VII bosqich. <i>Yetukik</i>	Turg'unlik / jinsiylik. <b><i>G'amxo'rük</i></b>
VI bosqich. <i>Yoshlik</i>	Yakkalik / dilkashlik. <b><i>Muhabbat</i></b>
V bosqich. <i>O'smirlik</i>	Mujmallik / aynanlik. <b><i>Sadoqat</i></b>
IV bosqich. <i>Maktab yoshi</i>	Qoloqlik / melnatsevarlik. <b><i>Kompetentlik</i></b>
III bosqich. <i>Maktabgacha yosh</i>	Ay'dorlik / serg'ayratlik. <b><i>Maqsad</i></b>
II bosqich. <i>Ilk bolalik</i>	Uyat, shubha / dadillik. <b><i>Iroda</i></b>
I bosqich. <i>Go'datlik</i>	Ishonchszilik / ishonch. <b><i>Umid</i></b>
Bosqichlar / kuchlar	1                    2                    3                    4                    5                    6                    7                    8

1.3-rasm. E. Eriksonning shaxs kamoloti epigenetik modeli

Quyida iste'dod nishonalarini va qobiliyatlarning bosqichma-bosqich bir-biriga bo'ysunishi keltirilgan:

- 1) genetik tuzilmadagi *iste'dod nishonalar* – nasldan naslga o'tadi;
- 2) shu asosda *umumi qobiliyatlar* – odamning umumi aqliy kamoloti darajasi (o'qimishliligi, diqqati, xotirasi, nutqi, ish qobiliyatini va h.k.) shakllanadi;
- 3) umumi qobiliyatlar asosida *maxsus qobiliyatlar* (musiqiy, badiiy, matematik, pedagogik qobiliyat va h.k.) vujudga keladi;
- 4) iste'dod nishonalarini, umumi va maxsus qobiliyatlar negizida *guruhlangan qobiliyatlar* paydo bo'ladi;
- 5) guruhlangan qibiliyatlar *kasbiy qobiliyatlar* shakllanishiga olib keladi.

Inson kamoloti qonuniyatlarini o'rganishning pedagogik jihatni uchta asosiy muammo – *aqliy, maxsus* va *axloqiy* sifatlar irsiylanishini (nasldan-naslga o'tishini) o'rganishni taqozo qiladi. Jumladan, aqliy sifatlar irsiy-lanishida bolalar ota-onasidan nimani, ya'ni aqliy faoliyatning qandaydir ma'lum turiga tayyor qobiliyatarnimi yoki faqat iste'dod nishonalarini me-ros qilib olishi masalasini o'rganish muhimdir.

Odamning o'z qibiliyatlarini rivojlantirishi muhit va turmush shart-sharoitlariga, jamiyat ehtiyojlari, shuningdek insonning u yoki bu faoliyat mahsuliga bo'lgan talab-ehtiyojlarga bog'liqdir.

Zamonaviy pedagogika har bir insonda mavjud bo'lgan iste'dod nishonalarini rivojlantirish uchun bir xil shart-sharoitlar yaratilishiga urg'u be-radi. Biroq, ma'naviy (axloqiy) sifatlarning irsiylanishi haqidagi masala hamon ochiqligicha qolmoqda.

Odam *ijtimoiy lashuv* (boshqa odamlar bilan o'zaro muloqot, munosabat-ga kirishishi) jarayonida shaxsga aylanadi. Jamiyatdan tashqarida shaxsning ma'naviy, ijtimoiy va ruhiy kamoloti sodir bo'lmaydi ("maugli" bolalar bunga misol bo'lishi mumkin).

*Bixeviorizm* namoyandalari ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tadi, ular insonga tabiatan berilgan, deb hisoblaydi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndayk hisoblanadi. Pragmatizm oqimi vakillari (D.Dyui, A.Kombe) ham shaxs kamolotini irsiyat nuqtai nazardan asoslaydilar.

2. **Muhit** – shaxs kamoloti kechadigan va unga ta'sir ko'rsatuvchi real voqelik shart-sharoitlari (ob'ektlar, jarayonlar, voqe-hodisalar va h.k.) majmui. Muhit deganda odam yashaydigan joydagi barcha tashqi ta'sirlar majmu tushuniladi. Shu nuqtai nazardan *muhit* bolani o'zi yashaydigan joydagi tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashtiradi, degan xulosa kelib chiqadi.

Odamning atrofdagi muhit bilan o'zaro bog'liqlik jadalligiga ko'ra: *yaqin* (uy, mahalla, mahalliy ekologik sharoit) va *uzoq muhit* (ijtimoiy tu-zum, hayotning moddiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish va ijtimoiy jara-yonlar oqimining tabiatini va h.k.) farqlanadi.

Inson kamolotida, ayniqsa bolalikda uy va mahalla muhitining ta'si-ri katta bo'ladi. Bola o'zi o'sayotgan va kamol topayotgan oila muhitini o'zida yetarlicha aniq aks ettiradi. Zero, qadim-qadimdan "bola - oila (mahalla) ko'z-


gusi” hisoblangan. Bolaning qiziqishlari, qarashlari, qadriyatli mo‘ljal-lari ko‘pincha oilada shakllanadi. Oila bolaga moddiy va tabiiy iqtidorini rivojlantirish shart-sharoitlarini taqdim etadi. Shaxsning axloqiy va ij-timoiy sifatlariga ham oilada asos solinadi. Farzandlar oilani mustah-kamlovchi rishtaga aylanadi.

Insonning kamol topishiga nima ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi: irsiyatmi yoki muhit? Bu murakkab masala bo‘lib, mutaxassislar fikriga ko‘ra, har bir inson kamolotida bu omillarning tutgan o‘rni va salmog‘i turlichadir. Har bir odam o‘zicha kamol topadi, unga irsiyat va muhitning ta’sir ko‘rsatish “hissasi” turlicha bo‘ladi. Bu ko‘plab tasodifiy omillarga ham bog‘liq bo‘lib, ularning ta’sirini aniq hisobga olish yoki aniq o‘lchash mumkin emas.


3. *Ma’rifat (ta’lim va tarbiya vositasida madaniyatli, barkamol shaxsni shakllantirish)* - irsiyat va muhitning shaxs kamolotiga ko‘rsatadi-gan ta’siri ma’rifat vositasida tartibga solinadi va u jamiyatga yetuk shaxslarni yetkazib berishga qodir bo‘lgan asosiy kuch hisoblanadi. Ma’rifiy ishlar samaradorligi uning to‘g‘ri tashkil etilishi va boshqarilishiga bog‘liq bo‘ladi. Shaxs kamolotida ma’rifatning tutgan o‘rni turlicha baholanadi: ma’rifat noqulay (buzilgan) *irsiyat* va yomon (salbiy) *muhit* ta’siri oldida o‘z ojizligini namoyon qilsa, boshqa hollarda, inson tabiatini o‘zgartiruvchi *yagona vosita* sifatida e’tirof etiladi. “Tarbiya - hamma narsaga qodir” shiori o‘zini to‘la oqlamadi. Ma’rifat orqali juda ko‘p ijobiy natijalarga erishish mumkin, biroq u insonni to‘liq, har jihatdan qayta o‘zgartirishga qodir emas (1.4-rasm).

*Ma’rifat muayyan maqsad yo‘lida inson kamolotini o‘ziga bo‘ysundira oladi.* Ma’rifat – inson kamoloti irsiy dasturidagi “bo‘sh joylar”ni to‘l-dirish deganidir. To‘g‘ri tashkil etilgan ma’rifatning muhim vazifalaridan biri odamning qiziqishlari va iste’dodini aniqlash, uning o‘ziga xos xusu-siyatlari, qobiliyati va ichki imkoniyatlariga muvofiq barkamol shaxsning kamol topishini ta’minlashdan iboratdir.

Ma’rifat samaradorligi odamning irsiyat va muhit bilan shartlangan ma’rifiy (pedagogik) ta’sirlarni o‘zlashtirib olishga tayyorgarlik darajasi bilan aniqlanadi. Odamlar ma’rifatga turlicha beriladi, kishilarning o‘zaro munosabati va ijtimoiy hayotdagi aniq holatlar (vaziyatlar) ma’rifiy jarayonda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ma’rifatning ta’sir kuchi muayyan shart-sharoitlar va holatlarga bog‘liq bo‘ladi.



Shaxs kamolotida shartli ravishda jismoniy va ma'naviy kamolot qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin (1.5-rasm):



1.5-rasm. **Shaxsning jismoniy va ma'naviy kamoloti qonuniyatları**

### 1. *Shaxsning jismoniy kamoloti qonuniyatları:*

- 1) odamning jismoniy kamoloti yoshlik davrida tez va jadal kechadi, yoshi o'tgan sayin kamolot sur'ati sekinlashadi;
- 2) bola jismoniy jihatdan notekis, ya'ni ayrim davrlarda tez, ayrim davrlarda sekin rivojlanadi.

### 2. *Shaxsning ma'naviy kamoloti qonuniyatları:*

- 1) odamning yoshi bilan ma'naviy kamolot sur'ati o'rtasida teskari mutanosib bog'lanish mavjud bo'ladi: yosh qancha kichik bo'lsa, ma'naviy kamolot sur'ati shuncha yuqori bo'ladi;
- 2) odamning yoshi o'tishi bilan ma'naviy kamolot sur'ati sekinlashadi;
- 3) odamning ma'naviy kamoloti notekis kechadi: ruhiy faoliyatning ayrim turlari yuzaga kelishi va rivojlanishi uchun qulay davrlar (muddatlar)

mavjud bo‘lib, ma’naviy fazilatlarning vujudga kelishi, yuksalishi ular bi-lan shartlangan holda sodir bo‘ladi;

4) odamning ruhiyati va ma’naviy fazilatlari rivojlanigan sari barqa-rorlik kasb etadi.

Demak, shaxsning jismoniy kamoloti - odam organizmidagi anatomik-fiziologik o‘zgarishlarni anglatsa, uning ijtimoiy-ma’naviy kamoloti – ruhiy, ma’naviy va aqliy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

### **3. Shaxs kamoloti va uni boshqarish - pedagogik muammo va umumilmiy pedagogik kategoriya sifatida**

Ma’rifat, ya’ni ta’lim-tarbiya shaxs kamolotiga ta’sir ko‘rsatar ekan, ayni paytda ma’rifatning o‘zi ham shaxs kamolotiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni u hamisha shaxs kamolotida erishilgan darajaga tayanib ish ko‘radi.

*Shaxs kamoloti - yaxlit pedagogik (ma’rifiy) jarayonning ichki mazmunidir.* Pedagogika - shaxs kamolotini boshqarish haqidagi nazariyani yaratadi. Shu sababli bola shaxsining rivojlanishi pedagogik (ma’rifiy) jarayonning mazmunini tashkil etadi. Zero, insonni shakllantirish uning ichki imkoniyatlari, tabiiy iste’dodi hamda iqtidoriga muvofiq amalga oshirilishi zarur. Ammo tabiiy iste’dod, iqtidor bo‘lsa-da, shaxs tegishli faoliyat turlariga jalg etilmasa, hech narsaga erishib bo‘lmaydi.

Shaxs kamoloti jismoniy, aqliy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, ekologik va estetik jihatga egaligi bilan tavsiflanadi. Kamolotning bu jihatlari no-tekis, ya’ni har xil sur’atda kechadi. Masalan, odamning jismoniy kamoloti 50 ming yil oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham deyarli shunday kechmoqda. Biroq odamning aqliy kamolotida tafakkurning rivojlanishi hisobiga ju-da katta ijobiy (oldinga) siljishlar kuzatilgan. Pedagogika shaxs kamoloti-ni barcha tarkibiy qismlari bilan birgalikda o‘rganadi.

Shaxs kamoloti va uning boshqarilishini anglash uchun quyidagi asosiy masalalarga diqqat-e’tibor qaratilishi kerak:

1. *Shaxs kamolotining o‘ziga xos xususiyatlari*: a) qaytarilmasligi; b) rivojlanish va inqirozlarining uzviy bog‘liqligi; v) bir maromda kechmasli-gi; g) egri-bugriligi; d) bosqichli darajalardan o‘tishi; ye) barqarorlikka in-tilishi (moyilligi).

2. *Shaxs kamoloti konsepsiyalari*: a) biologiyalashgan yo‘nalish; b) ijtimoiylashgan yo‘nalish; v) bioijtimoiy yo‘nalish; g) zamonaviy pedagogika va psixologiyaning konseptual qoidalari.

3. *Faoliyat va muloqot – shaxs kamoloti omillari*: a) faoliyat va mu-loqot, ularning yetakchi turlari; b) faoliyat va muloqotga qo‘yiladigan talab-lar; v) shaxs kamolotining yosh xususiyatlari.

4. *Ma’rifat va shaxs kamolotning o‘zaro bog‘liqligi*: shaxsga yo‘naltirilgan turli xil ta’lim-tarbiya texnologiyalari majmui.

Har bir shaxs va shaxslar guruhini o‘z ichiga olgan jamoalar (jamiyat) muayyan makon va zamonda shakllanadi, faoliyat ko‘rsatadi va oxir-oqibat, o‘z

o‘rnini yosh avlodlarga bo‘shatib beradi. Demak, *avlodlar yangilanishi* (alma-shinuvi), ya’ni *avlodlarning ijtimoiy takror barpo etilishi, vorisligi* uz-luksiz davom etadigan doimiy jarayondir.

Alovida tashkil etilgan sharoitlarda, ya’ni *ta’lim-tarbiya muassasa-larida* inson shaxsini kamol toptirish *pedagogika nazariyasi* va *amaliyoti-ning* eng murakkab va hal qiluvchi muammolaridan biridir. Bu muammo turli jihatlarga ega bo‘lib, bir qator tabiiy va ijtimoiy fanlar tomonidan o‘rga-niladi.

Shaxsning shakllanishi va kamol topishi shaxs kamoloti darajasining yuksalishiga olib keluvchi miqdor va sifat o‘zgarishlari, izchil qayta o‘zgarishlar jarayoni bilan tavsiflanadi.

Shaxs kamoloti haqida bir qancha *nazariyalar* vujudga kelgan:

1) *preformistik nazariya* – jinsiy (tuxum, urug‘) hujayralarda embri-on rivojlanishi va undan paydo bo‘ladigan organizmning xususiyatlarini ol-dindan belgilab beruvchi moddiy tuzilmalar mavjud bo‘lishi haqidagi ta’li-mot; odam shaxsi oldindan berilgan yoki belgilab qo‘ylgan “dastur” asosida shakllanishi va odamning fazilatlari, xususiyatlari o‘z-o‘zidan rivojlani-shi, tarbiya va ijtimoiy sharoitlar faqat bunga yordam berishi haqidagi naza-riya (Antoni Levenguk, Marchello Malpigi va boshq.).

2) *teologik nazariya* – shaxs kamolotining ichki dasturi odamning ilo-hiy vazifasi, burchi bilan bog‘liqligi, ya’ni shaxs kamolotini Olloh belgila-shi. Odam - ikki ibrido, ya’ni jismoniy va ma’naviy manbalar (omillar) uy-g‘unligidir. Ma’naviy ibrido – “o‘lmas jon” odamni tabiatdan ustun qo‘yadi, Xudo bilan muloqot qilishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Inson hayoti-ning ma’nosи imon-e’tiqod orqali oshkor bo‘ladigan “o‘ta hissiy olam”ni chu-qur tushunishdan iborat (F. Akvinskiy, J. Mariten, D. Treysi va boshq.);

3) *ekzistensialistik (o‘ta shaxsiyatparastlik) nazariya* – jamiyat shaxsga salbiy ta’sir qiladi va odam faqat undan ajralgan holda komillikka erishadi, ya’ni uning o‘zi va tabiat shaxs kamolotini oldindan belgilaydi. Boshqacha aytganda, odamning kamol topishi uchun hech narsa va hech kimning ke-ragi yo‘q (S. Kerkegor, K. Yaspers, M. Xaydegger va boshq.);

4) *biologik nazariya* - individning homiladan boshlab rivojlanishi odamning tur sifatida taraqqiy etishi jarayonida o‘talgan boshqa barcha bos-qichlarini takrorlaydi, ya’ni odam o‘zida mavjud bo‘lgan tug‘ma his-tuyg‘ular, mayllar va ehtiyojlar bilan bog‘liq hatti-harakatlar (xulq-atvor) asosida irsiy (tabiat) qonunlarga muvofiq shaxs sifatida kamol topadi (Ch. Darvin, I. Myuller, G. Xoll va boshq.);

5) *o‘z-o‘zidan kamol topish nazariyasi* – odam faqat irsiy omillarga (ko‘z rangi, qon guruhi, rezus-faktor, shizofreniya va h.k.) tayangan holda, ularning ta’sirida rivojlanadi, kamol topadi;

6) *psixoanalitik (ruhiy tahlil) nazariya* – ruhiy quvvat ta’siridagi jinsiy mayl (istak, intilish) darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, odam shuncha-lik tez rivojlanadi, kamol topadi (Z. Freyd va boshq.) va shu kabilar.

Bu nazariyalarni keltirishdan maqsad shaxs kamoloti muammolarini o‘rganishda pedagogika fani tayanadigan tegishli nazariyalarni aniqlashdan

iboratdir. Shu sababli shaxs muammosiga oid pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqotlarda shaxs kamolotining *biologiyalashgan*, *ijtimoiylashgan* va *bioijtimoiy yo‘nalishlari* farqlanadi:

1. ***Biologiyalashgan yo‘nalish*** vakillari shaxsni alohida *tabiiy mayju-dot* deb hisoblashadi, odamning xulq-atvorini unga *tug‘ma* berilgan tabiiy ehtiyojlar, mayllar va his-tuyg‘ular bilan izohlashadi (3. Freyd va boshq.). Bu yo‘nalish vakillarining fikricha, odam jamiyat talablariga bo‘ysunishga majbur, biroq bunda shaxsning tabiiy ehtiyojlari jamiyat tomonidan qanday-dir darajada sun’iy tarzda bostirib turiladi. Ya’ni, tabiiy ehtiyojlarning qondirilmasligi qandaydir faoliyat turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar bilan al-mashtiriladi va odamning o‘z-o‘zi bilan doimiy ichki kurashi qay bir daraja-da niqoblanib, yopib turiladi.

2. ***Ijtimoiylashgan yo‘nalish*** vakillari odam biologik mavjudot si-fatida dunyoga kelsa ham, o‘z hayoti jarayonida o‘zi muloqotda bo‘lgan ijtimoiy guruhlar ta’sirida asta-sekinlik bilan *ijtimoiylashib* boradi, deb hisob-laydilar. Shaxsning kamolot darajasi qanchalik past bo‘lsa, unda biologik xususiyatlar, eng avvalo, egalik qilish, vayron qilish, jinsiy mayl kabi *tug‘-ma his-tuyg‘ular* (beixtiyor harakatlar) shunchalik yorqin, kuchli namoyon bo‘la-di. Bu yo‘nalish vakillarining fikricha, bola – “toza qog‘oz” kabi; uning kamo-loti atrof-muhitdagi sharoitlar va ma’rifatga to‘liq bog‘liq bo‘ladi.

3. ***Bioijtimoiy yo‘nalish*** vakillari odamda kechadigan psixik jarayon-lar (sezgi, idrok, tafakkur va h.k.) *biologik* tabiatga ega, biroq shaxsning in-tilishi, qiziqishi, qobiliyati *ijtimoiy* hodisa sifatida shakllanadi, deb hisoblaydilar.

***Zamonaviy psixologiya va pedagogika*** shaxsni *biologik* va *ijtimoiy jihatlari chambarchas* (uzviy) bog‘langan bir butun (yaxlit) mavjudot sifa-tida qarab chiqadi. Shaxs *biologiyasidagi* o‘zgarishlar nafaqat faoliyat xususiyatlariga, balki hayot (turmush) tarziga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs kamolotida muayyan *motivlar*, *qiziqishlar*, *maqsadlar*, ya’ni ijtimoiy hayot natija-lari hal qiluvchi rol o‘ynaydiki, ular shaxsning butun qiyofasini belgilab, o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun kuch bag‘ishlaydi. Ya’ni, o‘zidagi jismoniy kam-chiliklar va fe’l-atvor xususiyatlarini (tez achchiqlanish, serjahillik, dam-duzlik (odamovi) va sh.k.) imkon qadar bartaraf qila oladi.

Shaxs *psixologiya fanida* asosiy ruhiy tavsiflar (ya’ni, psixik jarayon-lar, holatlar va xususiyatlar) nuqtai nazaridan qarab chiqilsa, *pedagogika fanida* biologik va ijtimoiy jihatlari uzviy bog‘langan yaxlit bioijti-moiy majmu sifatida qarab chiqiladi. Shaxs kamolotida biologik (irsiy) va ijtimoiy jihatlar chatishib ketadi va ularning birligida ijtimoiy omil-larning ahamiyati yaqqol ko‘rinib turadi.

***Shaxsning asosiy vazifasi*** – jamiyatda shakllangan ijtimoiy tajriba-ni ijodiy o‘zlashtirish va o‘zini ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish-dan iborat. Shaxsning barcha jihatlari (tomonlari) faqat *faoliyat* va *mulo-qotda* namoyon bo‘ladi.

***Faoliyat* va *muloqot*** ijtimoiy hayotning ikki xususiyatini, ya’ni inson hayotining ikki tarzini tashkil qiladi (1.6- va 1.7-rasmlar).

Faoliyat – insonning hayot kechirish usuli va mavjudlik shakli bo‘lib, atrofdagi olamni maqsadga muvofiq qayta o‘zgartirishga qaratilgan faol-ligidir. Faoliyatning asosiy turlari – o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyati.

Faoliyat turlarining har xil tasniflari mavjud: *sotsiologiyada* – mehnat, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-ijodiy, ilmiy-tadqiqiy faoliyat; *pedagogika-da* – mehnat, o‘qish va o‘yin faoliyati; *psixologiyada* – ruhiy jarayonlar (sezish, xotirada saqlash va esga tushirish, tafakkur va h.k.) bilan bog‘liq faoliyat turlari farqlanadi

Faoliyat odamning mavjudlik usuli va yashash (turmush kechirish, tirikchilik) shakli sifatida:

- 1) inson hayoti moddiy shart-sharoitlarining yaratilishini, insonning tabiiy ehtiyojlari qondirilishini ta’minlaydi;
- 2) insonning ma’naviy dunyosini rivojlantirish omiliga, uning madaniy ehtiyojlarini qondirish shakli va shartiga aylanadi;
- 3) odamning o‘z shaxsiy imkoniyatlari, hayotiy maqsadlari va muvaffaqiyatlarini ro‘yobga chiqarish sohasi hisoblanadi;
- 4) odamning ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘zligini namoyon qilishi va ijtimoiy intilishlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;
- 5) ilmiy bilish, o‘z-o‘zini bilish va o‘z-o‘zini kamol toptirish manbai va mezoni hisoblanadi;
- 6) atrofdagi olamni bilish va qayta o‘zgartirishni ta’minlaydi.


Faoliyat *faol* va *sust* bo‘lishi mumkin. Faollik, masalan, ta’lim jarayonida o‘quvchiga ijtimoiy tajribani tez va muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga imkon beradi, o‘zaro fikr almashinuv bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantiradi, atrofdagi borliqqa munosabatini shakllantiradi. Bilish faolligi bolaning aqliy kamolotini ta’minlaydi. Mehnat faolligi shaxs ma’naviy va axloqiy dunyosining tez va muvaffaqiyatli shakllanishini rag‘-batlantiradi, mehnatga muvaffaqiyatli tayyorgarlikni belgilaydi. Faollik-ning barcha ko‘rinishlari faqat ehtiyojlarga asoslanadi. Inson ehtiyojlari-ning turli-tumanligi faoliyatning xilma-xil turlarini vujudga keltiradi.

O‘quvchilar faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun bo‘lg‘usi *pedagog* quyidagilarni bilishi lozim:


- 1) o‘quvchi faoliyatining psixik (ruhiy) tuzilmasi, uning rivojlanish qonuniyatları;
- 2) o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari va faoliyat motivlari xususiyatlari;
- 3) shaxs kamolotining turli (yosh) davrlarida yetakchilik qiladigan faoliyat turlari.

Shuningdek, bo‘lg‘usi *pedagog* quyidagilarni eplay olishi lozim:

- 1) o‘quvchilar faoliyatini rejalshtira olish: ularning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda faoliyat ob’ektlari va predmetini aniqlash;
- 2) o‘quvchilarda faoliyat motivlarini shakllantirish va rag‘batlantirish;



1.6-rasm. Shaxs kamolotida faoliyat va muloqotning tutgan o'rni



1.7-rasm. Muloqotning turlari va tuzilmasi

3) faoliyatning tarkibiy qismlari (maqsadi, uni rejalashtirish, muay-yan hatti-harakatlar va amallarni bajarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baho-lash) bolalar tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlanish.

**Muloqot** – shaxslar o‘rtasida birgalikdagi o‘zaro faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlar asosida o‘zaro aloqalar (munosabatlar) o‘rnatalishi jarayoni. Demak, *muloqot* – faoliyatning bir turi, ko‘rinishidir. Shaxs kamolotida muloqot-ning tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, uning bir necha turi farqlanadi (1.7-rasm):

a) ***ishtirokchilar tarkibiga ko‘ra:***

1) *shaxslararo muloqot* – “odam-odam” tizimidagi shaxsiy va ishga taalluqli muloqot bo‘lib, o‘zaro munosabatlar tabiatiga ko‘ra: a) ish bo‘yicha muloqot; b) ish bo‘yicha do‘stona muloqot; v) samimiy muloqot (do‘stlik);

2) *shaxs-guruhli muloqot* - “odam-guruh” tizimidagi ishga aloqador muloqot bo‘lib, o‘zaro munosabatlar tabiatiga ko‘ra: a) ish bo‘yicha muloqot; b) ish bo‘yicha do‘stona muloqot; v) rahbarning jamoa (guruh) bilan muloqoti;

3) *guruhlararo muloqot* – “guruh-guruh” tizimidagi ishga aloqador muloqot bo‘lib, ikki yoki undan ortiq jamoaning o‘zaro aloqasi (munosabati);

b) ***zuhurlik darajasiga ko‘ra:***

1) *bevosita muloqot* – yuzma-yuz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot;

2) *bilvosita muloqot* – uchinchi kishi ishtirokida yoki texnik vositalar, pochta aloqasi yordamida amalga oshiriladigan muloqot;

v) ***davom etish muddatiga ko‘ra:***

1) *qisqa muddatli muloqot*;

2) *uzoq muddatli muloqot*;

g) ***nihoyasiga ko‘ra:***

1) *tugallangan muloqot*;

2) *tugallanmagan (uzilgan) muloqot*.

**Muloqot** tuzilmasi *kommunikativ* (o‘zaro axborot almashinish), *inter-faol* (qaytar aloqali, dialogli, hatti-harakatli o‘zaro axborot almashinish) va *parsevtiv* (hamkorlarning bir-birini tushunishi, baholashi orqali o‘zaro axborot almashinish) jihatlarga ega.

Shunday qilib, shaxsning ijtimoiy qiyofasi uning atrofdagi odamlar hayoti bilan o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Shaxs kamolotiga bunday yondashish *yaxlit bioijtimoiy jarayonni* aks ettiradi. Bu jarayonda nafaqat miqdor, balki sifat o‘zgarishlari ham ro‘y beradi va quyidagi bir qator *zid-diyatlar* hal etiladi:

1) faoliyat turlari keltirib chiqaradigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qoniqtirish imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar;

2) bolaning o‘sib boruvchi jismoniy va ma’naviy imkoniyatlari bilan eski, oldindan shakllangan o‘zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o‘rtasidagi ziddiyatlar;

3) yoshlarga jamiyat (kattalar) tomonidan qo‘yiladigan oshib boruvchi ta-lablar bilan shaxs kamolotining amaldagi darjasini o‘rtasidagi ziddiyatlar.

Bu ziddiyatlar barcha yoshdagi odamlarga tegishli bo‘lib, muayyan yoshga bog‘-liq holda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ziddiyatlarning bartaraf

etilishi faoliyatning birmuncha yuqori darajalarini shakllantirish va yo‘lga qo‘yish orqali yuz beradi. Natijada bola o‘z kamolotining xiyla yuqori darajasiga ko‘chib o‘tadi: ehtiyoj qondiriladi, ziddiyat bartaraf etiladi. Biroq qondiri-lgan ehtiyoj yuqori tartibli yangi ehtiyojni vujudga keltiradi. Bitta ziddiyat ikkinchisi bilan almashadi va shu tariqa shaxsning uzluksiz kamol topishi davom etadi. Bu jarayonda ***ma’rifat*** shaxs rivojlanishi va kamolotini ta’-minlovchi eng muhim *uchinchi omil* sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, ***shaxs kamoloti*** – shaxsning jismoniy, ruhiy va ma’naviy xususiyatlarida miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga dialektik o‘tish bi-lan tavsiflanadigan murakkab, uzoq davom etadigan ziddiyatlari jarayon. Shaxs kamoloti psixologiya va pedagogika fanlarining ***umumilmiy kategoriyasi*** bo‘lib, psixologiya - shaxs ruhiy kamolotining qonunlarini izohlab bersa, ***pedagogika*** - komil inson va barkamol avlodni shakllantirish maqsadlarini ko‘zlab shaxs kamolotini boshqarish haqidagi nazariyani yaratadi.

#### **4. Shaxs kamolotini boshqarishda pedagogik innovatikaning tutgan o‘rni va ahamiyati**

“Shaxs kamoloti” pedagogikaning umumilmiy kategoriyasi sifatida pedagogik innovatsiyalar tufayli shakllangan. Zero, pedagogika fanidagi innovatsiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimini (maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari va texnologiyalari, vositalari, tashkiliy shakllari) tartibga solishga, uni to‘g‘ri o‘zanda yo‘nalishdirishga imkon beradi. Buning sabab shundaki, aksariyat o‘qituvchilar o‘z fanidagi noma'lum dalillar va yangicha qarashlardan ko‘pincha esankirab, dovdirab qoladi, bunday o‘zgarish-larga ko‘pincha salbiy munosabatda bo‘ladi. Fan o‘qituvchilarining ongida ommaviy shakllangan, ularning odatdagi pedagogik faoliyatiga ta’sir ko‘rsa-tib turadigan ***bir qolipdalik*** (bir xillik) ko‘pincha og‘riqli holatga olib keladi va ta’lim-tarbiyaning mavjud barcha shakllari bo‘yicha mashg‘ulotlar mazmunining yangilanishiga xaraqit beradi. O‘qituvchilarining zamonaviy innovatsiyalarni qabul qilishni istamasligining sababi qulaylik, xavfsiz-lik va o‘zligini namoyon qilish uchun hayotiy ehtiyojlarning to‘sib qo‘yilishi bilan bog‘liq.

O‘qituvchiining innovatsion hulq-atvori (hatti-harakati) moslashishni anglatmaydi, balki uning o‘ziga xos tarzda kasbiy shakllanishini, o‘z-o‘zini kasbiy kamol toptirishini anglatadi. O‘qituvchi innovatsiyalarni madaniyatli (kompetentli) o‘quvchi/talaba shaxsini shakllantirish usuli sifatida tushunishi kerak. O‘qituvchiga “tayyor didaktik (metodik) qoliplar” tavsiya etilishi kerak emas; unga o‘zining ilmiy-metodik intellektual saviyasini doimiy oshirib borishi o‘ta muhimdir. Psixologik to‘siqlardan, qandaydir “bog‘liqlik”lardan xalos bo‘lgan o‘qituvchigina shaxs kamoloti maqsad qilib olingan innovatsion o‘zgarishlarning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Zamonaviy pedagogikaning vazifalaridan biri pedagogik jarayondagi barcha ishtirokchilarning ichki imkoniyatlarini ochish, ularga o‘z ijodiy qobiliyatlarini to‘liq namoyon qilish imkoniyatini taqdim etishdan iborat. Bu

vazifani ma'rifiy (ta'lim-tarbivi) jarayonlar *variativligini*, ya'ni o'zgaruvchanligini ta'minlasdan hal etish mumkin emas. Variativlik tufayli ta'lim muassasalari va pedagogik faoliyatning har xil innovatsion tiplari yoki turlari paydo bo'ladiki, ularni chuqur ilmiy va amaliy tushunish talab etiladi.

**Innovatika** - yangiliklar shakllanishi, ularning tarqalishi va yangi yechimlarni ishlab chiqish usullarini o'rganadigan yoki innovatsion faoliyat metodologiyasini, uning tashkil etilishini o'z ichiga olgan bilim sohasi bo'lib, nafaqat iqtisodiyot tarmoqlari, balki ma'rifiy, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasining ham eng dolzarb yo'nalishiga aylangan.

**Pedagogik innovatika** – ta'lim-tarbiya sub'ektlariga nisbatan ma'rifiy innovatsiyalarning tabiatini, vujudga kelishi va rivojlanishini o'rganadigan pedagogik bilim yoki fan sohasi bo'lib, o'rganish **predmeti** - novatsiya va innovatsiya, pedagogik innovatsion jarayon va faoliyat hisoblanadi. Shu sababli pedagogik innovatika asosan quyidagi tushunchalar bilan ish ko'radi:

**novatsiya** (lotincha *novatio* - yangilash, o'zgartirish) – yangi g'oya yoki yangi ilmiy kashfiyot asosida amalga oshirilgan yangilik (yangi tartib-qoida, usul, rasm-rusum, odat va sh.k.);

**innovatsiya** (inglizcha innovation – yangilash, yangilanish) – jarayonlar samaradorligini oshirish yoki mahsulot (xizmat) sifatining yaxshilanishini ta'minlash maqsadida amaliyotga joriy etilgan novatsiya yoki novatsiyani amaliy o'zlashtirish natijasi;

**innovatsion jarayon** – innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanish bosqichlarining ketma-ketligi;

**innovatsion faoliyat** – innovatsion g'oyalarni izlash, tanlash va ular asosida yangiliklar ishlab chiqish, innovatsiyalarni joriy etish va ularni tarqatishni (ko'paytirishni) o'z ichiga olgan ishlar majmui.

Mazkur tushunchalarning pedagogika nazariyasi va amaliyotiga tatbiqi quyidagi xususiy pedagogik tushunchalar shakllanishiga olib kelgan:

**pedagogik novatsiya** - an'anaviy (tadrijiy) tartibda rivojlanayotgan pedagogik tajribani takomillashtirish;

**pedagogik innovatsiya** – pedagogik yangilik, ya'ni ma'rifiy muhitga ta'lim-tarbiya tizimi yoki ularning ayrim tarkibiy qismlari tavsifini yaxshilaydigan barqaror elementlarni (yangiliklarni) kirituvchi ilg'or maqsadli o'zgarishlarning, oddiy qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayoniga amaldagi o'qitish-tarbiyalash metodikasi va texnologiyalarining o'zgarishini (almashinuvini) ta'minlaydigan vositalarning joriy etilishi.

**pedagogik innovatsion jarayon** - pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanish bosqichlarining ketma-ketligi, boshqacha aytganda, ta'lim-tarbiyani pedagogik innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish va *qo'llash* orqali uzuksiz rivojlantirish jarayoni;

**pedagogik innovatsion faoliyat** – ta'lim-tarbiyaning ma'lum bir darajasida odatdagi pedagogik jarayonning o'zini va pedagogik innovatsion jarayonni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmui.

Aytish mumkinki, ***pedagogik novatsiya*** – ichki, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan o‘zgarish, ***pedagogik innovatsiya*** – amalga osh(iril)gan o‘zgarish.

“Pedagogik innovatsiya” hamda “ma’rifiy innovatsiya” terminlari sinonim bo‘lib, pedagogikaning tushuncha-terminlar tizimiga kiritilgan.

**Pedagogik innovatsiya** – pedagogik faoliyatdagi yangilanishlar bo‘lib, ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida ularning maqsadi, maz-muni va texnologiyalaridagi o‘zgarishlardir.

Pedagogik innovatsiyalarning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra har xil ***tur-lari*** farqlanadi:

1) ***faoliyat turlari bo‘yicha:***

- pedagogik innovatsiya;
- boshqaruv sohasidagi innovatsiya.

2) ***kiritilgan o‘zgarishlar xususiyatiga ko‘ra:***

- tub (keskin) innovatsiya;
- lo‘ttibozlikka asoslangan innovatsiya;
- shaklni o‘zgartiruvchi innovatsiya.

3) ***kiritilgan o‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra:***

- mahalliy innovatsiya;
- modulli innovatsiya;
- tizimli innovatsiya.

4) ***muammolar majmui bo‘yicha:***

- ta’lim muassasasini butunlay o‘zgartirishga, unda shaxs kamolotiga oid yangi g‘oyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimi yoki boshqa tizim hosil qiluvchi faoliyatni yaratishga qaratilgan innovatsiyalar;

- o‘quv-tarbiya jarayonining yangi shakllari, texnologiyalari hamda metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan innovatsiyalar;

- ta’limning yangi mazmunini hamda uni tizimlashtirishning yangi usullarini o‘rganishga qaratilgan innovatsiyalar;

- pedagogik boshqarishning yangi shakllari va tizimini ishlab chiqishga qaratilgan innovatsiyalar.

5) ***amalga oshirish yoki joriy etish sohasiga ko‘ra:***

- ta’lim-tarbiya maqsadlari va mazmunidagi innovatsiyalar;

- ta’lim va tarbiya texnologiyalaridagi innovatsiyalar;

- ta’lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabati tuzilmasidagi, pedagogik vositalar tizimidagi innovatsiyalar;

6) ***vujudga kelish manbaiga ko‘ra:***

- tashqi innovatsiya (ta’lim tizimidan tashqarida ishlab chiqilgan);
- ichki innovatsiya (ta’lim tizimi ichida ishlab chiqilgan).

7) ***foydanish ko‘lamiga ko‘ra:***

- yagona innovatsiya;

- aralash (qorishgan) innovatsiya va hakozo.

Pedagogik innovatsiyalar ***dolzarbligini*** quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- 1) ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish konsepsiyasiga muvofiq-ligi;
- 2) ta'lim-tarbiya tizimidagi rasmiyatchilik va avtoritar uslubning bartaraf etilishi;
- 3) shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyadan foydalanish;
- 4) o'quvchi-talabaning ijodiy salohiyatini ochish uchun shart-sharoitlar yaratilishi;
- 5) mustaqil ijodiy faoliyatning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarga muvofiqligi.

Pedagogik innovatsiyalarning asosiy ***maqsadlari*** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) o'quvchi-talabalarning intellektual, kommunikativ, lingvistik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- 2) o'quvchi-talabalarda shaxsiy fazilatlarni shakllantirish;
- 3) o'quvchi-talabalarning o'quv-bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ko'nikmalarni hosil qilish va sermahsul ijod darajasiga o'tish;
- 4) o'quvchi-talabalarda tafakkur tiplarini rivojlantirish;
- 5) sifatli bilim, ko'nikma va malakalar hamda kompetensiyalarni shakllantirish.

Ushbu maqsadlar pedagogik innovatsiyalarning quyidagi ***vazifalarini*** belgilab beradi:

- 1) o'quv-tarbiya jarayoni uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish;
- 2) o'quvchi-talaba va o'qituvchisi o'rtasida o'zaro hamkorlik muhitini yaratish;
- 3) o'quvchi-talabalarda ta'limga nisbatan ijobiy motivatsiyalarni rivojlantirish;
- 4) o'quvchi-talabalarni ijodiy faoliyatga jalb etish;
- 5) o'quv materiallari va ularni o'quvchi-talabaga yetkazish usullarini puxta (sinchiklab) tanlash.

Pedagogik innovatsiyalarning asosiy ***prinsiplari***:

- 1) ijodkorlik (ijodkorlikka mo'ljal olish);
- 2) bilimlarni tizimli o'zlashtirish (bilimlarni ma'lum bir tizim doirasida egallah);
- 3) noan'anaviy dars (mashg'ulot) shakllari;
- 4) ko'rsatmalilik.

Pedagogik innovatsiyalar asosida quyidagi ***texnologiyalar*** yotadi:

- 1) rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi;
- 2) muammoli ta'lim texnologiyasi;
- 3) tahliliy-tanqidiy fikrlash yoki tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi;
- 4) tabaqaqlashtirilgan ta'lim texnologiyasi;
- 5) o'yin texnologiyasi;
- 6) loyihalash texnologiyasi;
- 7) o'quv-tadqiqiy faoliyat texnologiyasi.

Pedagogik innovatsion texnologiyalarda quyidagi ***metodik usullarni*** samarali qo'llash mumkin:

- 1) tayanch matn usuli;
- 2) aqliy hujum usuli;
- 3) guruhli munozara usuli;
- 4) esse (insho) usuli;
- 5) videofilm usuli;
- 6) xaritani o‘qish usuli;
- 7) didaktik o‘yin usuli;
- 8) matn bilan ishlash usuli;
- 9) tarqatma material usuli;
- 10) elektron doska usuli;
- 11) elektron kitob usuli;
- 12) mustaqil ish usuli;
- 13) ko‘rsatmali varaqqa usuli;
- 14) ijodiy topshiriq usuli;
- 15) qayta takrorlash usuli;
- 16) noan’anaviy uyga vazifa usuli;
- 17) o‘z-o‘zini baholash usuli va h.k.

Pedagogik innovatsiyalar nafaqat ta’lim-tarbiya metodlari, vositala-ri va tashkiliy shakllariga oid innovatsiyalarni, balki, eng avvalo, ***ta’lim-tarbiya maqsadlari va mazmuniga*** oid innovatsiyalarni o‘z ichiga qamrab olishi kerak. Ta’lim-tarbiya maqsadlari va mazmunida innovatsiyalar bo‘lmash ekan, ta’lim-tarbiya metodlari, vositalari, tashkiliy shakllari yoki texnologiyalaridagi innovatsiyalar bilan kutilgan natijasi, ya’ni bilimli, amaliy ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxsni, qolaversa, ularning zamonaviy ta’lim-tarbiya olishga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarni qondirib bo‘lmaydi. Qisqa qilib aytganda, barcha pedagogik innovatsiyalar u yoki bu darajada shaxs kamolotini boshqarish va ta’minalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim va oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya mazmunini rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyoti bilan qiyosiy taqqoslash va tahlil qilish shuni ko‘rsat-diki, amaldagi milliy ta’lim-tarbiya dasturlari zamonaviy talablardan past savyada tuzilgan. Xususan, ayrim o‘quv fanlari, shu jumladan, pedago-gika bo‘yicha o‘quv dasturlarida ham bir necha o‘n yillardan beri pedagogik bilimlar tizimi, bu bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikma va malakalari, o‘rganish metodlari yetarlicha yangilanmagan, o‘quvchi-talabalarda aqliy va ijodiy qobiliyatlarni, hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi hamda pedagogik kompetensiyalarini to‘liq shakllantirish imkoniyatlari ta’minalanmagan. Zero, pedagogik o‘quv dasturlari – pedagogik ilmiy bilim sohasi-ning nusxasi bo‘lib, imkon qadar bu fanning barcha bo‘limlarini o‘z ichiga qamrab olishi, o‘quvchi yoki talabalarni asosiy pedagogik nazariyalar, qonun-lar, tushunchalar va faktlar bilan tanishtirishi kerakki, ular shu orqali pedagogika fani - shaxs kamolotini boshqarish haqidagi nazariyani ishlab chiqishini chuqr anglab olishlari lozim.

## **Nazorat savollari**

1. “Odam ontogenezi” tushunchasining pedagogik talqini haqida ma’lumot bering.
2. Shaxs kamoloti va uni harakatga keltiruvchi omillar: irsiyat, muhit, ma’rifat tushunchalarini izohlang.
4. Shaxs kamolotini boshqarishda pedagogik innovatikaning tutgan o‘rni va ahamiyatini aytib bering.
5. Shaxs kamoloti qonuniyatlarini sanab bering.

## **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Jumanova F., Avazova S. va boshqalar Umumiyligiga pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: “Ishonchli hamkor”, 2020 y. -582 b.
2. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.
3. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.
4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, 60 b.
5. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalar, o‘qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o‘quv qo‘llanma)-T.:2013.-279 b
6. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil.
7. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
8. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
9. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.–115
10. Kodjapirova, G.M. Pedagogika v sxemax i tablitsax: Uchebnoe posobie. - M.: Prospekt, 2016.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremenennogo obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.
13. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – T: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

## **2-ma’ruza: Ma’rifat – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi sifatida**

### **Reja:**

1. Rivojlangan davlatlarda shaxs kamolotini ta’minlovchi pedagogik hodisalar va jarayonlarni o‘rganishga ma’rifiy yondashuv.
2. Ma’rifat – yaxlit pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida.
3. Ta’lim va tarbiya – ma’rifatning “ikki qanoti” - o‘zagi sifatida.
4. “Ma’rifat” tushunchasi – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi sifatida.

**Tayanch iboralar:** ma’rifat; ma’rifiy yondashuv; ma’rifatning maqsadi va vazifalari; pedagogik jarayon; qonuniyat; ta’lim, tarbiya.

### **1. Rivojlangan davlatlarda shaxs kamolotini ta’minlovchi pedagogik hodisalar va jarayonlarni o‘rganishga ma’rifiy yondashuv**

Rivojlangan davlatlarda har bir odam va har qanday jamiyatning ma’naviy-madaniy hayotida **ma’rifiy qadriyatlar** birinchi darajali o‘rin tutadi. **Bilim** va **insoniylik** azaldan eng muhim ma’rifiy qadriyatlar hisoblanib, *dunyoqarash* va *bilimlar tizimi* ta’lim va tarbiya dasturlarining negizini tashkil qilgan: ular odamda *insoniylik fazilatini* shakllantirishga xizmat qilgan. O‘zbek xalq pedagogikasi aynan milliy ma’rifiy qadriyatlar negizida shakllangan.

Xo‘sish, ma’rifat nima? **Ma’rifat** – muayyan shaxs va jamiyat rivojlani-shining umumiy shakli. Har qanday shaxs yoki jamiyatning ma’naviyati, mafkurasi va madaniyati - ma’rifatdan boshlanadi. Zero, “ma’rifat – kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya”dir (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. 60000 so‘z va birikmasi // Z.M.Ma’rufov tahriri ostida. I tom. A-R.- Moskva, “Rus tili” nashriyoti, 1981.- 455-bet.)

“**Ma’rifat** (arabcha “arafa” – “bilmoq” so‘zidan) - ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g‘oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini o‘stirishga qaratilgan faoliyat” (Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // Mualliflar: M.Abdullaev, M.Abdullaeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahririda. - T.: “Sharq”, 1998. - 116-bet). Keltirilgan ta’riflardan ayonki, ma’rifatning asosini **ta’lim** va **tarbiya** tashkil qiladi.

Ota-bobolarimiz qadimdan *ta’lim* va *tarbiya* ishini o‘zaro uyg‘un olib borishgan; ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratishmagan. Beba boylig bo‘lmish **ilmu ma’rifat** inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi hisoblangan. Jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashilgan. Bugungi kunda chinakamiga *ma’rifatli odam* inson qadri, milliy qadriyatlar, o‘zlikni anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, jahon hamjamiyatida mustaqil davlatimizning munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin.

**Ma’rifat** - ta’lim, tarbiya va inson kamoloti jarayonlarining uzviy birligi va

o'zaro bog'liqligidir. ***Ma'rifat*** – odam irsiyati va odam atrofi-dagi tabiiy-ijtimoiy muhitning shaxs kamolotiga ta'sirini tartibga solib turuvchi omil. ***Ma'rifat*** - inson tabiatini o'zgartirishga qodir bo'lgan yagona vosita, biroq u odamning noqulay irsiyati (masalan, genetik kasalliklar) yoki odamga atrofdagi muhit ko'rsatadigan o'ta salbiy ta'sirlar oldida nisbatan ojizligi bilan tavsiflanadi. ***Ma'rifat*** - shaxs kamolotini o'ziga bo'ysundirib, uning iste'dodi, moyilligi asosida o'ziga xos tarzda kamol topishini ta'minlaydi, ammo odamlar ma'rifatga, ya'ni ta'lim va tarbiyaga turlicha beriladi: kimdir - yetarli darajada ta'lim olib, tarbiyalanadi, kimdir – aksincha. Oqibatda jamiyatda turli darajalarda tarbiyalangan, ya'ni madaniyatli yoki madaniyatsiz, ota-onasiga rahmat yoki la'nat olib keladigan odamlar farqlanadi.

***Ma'rifat – ijtimoiy hodisa va jarayon.*** Ma'rifat – jamiyatdagi *qadriyat*, *ijtimoiy ong* va *shaxs tuzilmalarini* o'z ichiga qamrab olgan alohi-da tizim; ijtimoiy hayotning muhim sohasi. ***Ma'rifat*** - odamzodni dunyoviy qadriyatlar, fan-texnika yutuqlari bilan tanishtiradi va odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqot muhiti hisoblanadi. Har qanday jamiyatning aqliy-ma'naviy va madaniy-axloqiy salohiyati bevosita ma'rifatga bog'liqdir.

Demak, ***ma'rifat – ta'lim va tarbiyaning uzviy (ajralmas) yaxlit tizimi, shuningdek shaxs tomonidan egallanadigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, qadriyatli mo'ljallar (yo'l-yo'riqlar), ish-vazifalar, faoliyat tajribasi va kompetensiyalar majmui.*** Shu nuqtai nazardan, "ma'rifat" tushunchasi ahamiyatiga ko'ra turlicha talqin etilishi mumkin: 1) *ma'rifat* - moddiy va ma'naviy madaniyatda to'plangan bilimlarni individga (shaxsga) yetkazish (o'tkazish) jarayoni; 2) *ma'rifat* - ta'lim jarayonida, natijasida olingan bilimlar majmui; 3) *ma'rifat* – shaxsning bilish darjasini (saviyasi) yoki o'qimishlilik – ma'lumotlilik: boshlang'ich ma'lumot, o'rta ma'lumot, oliy ma'lumot; 4) *ma'rifat* - inson (shaxs) kamoloti yoki shakllanishi (paydo bo'lishi, vujudga kelishi, yaralishi) kabi so'zlarning ma'nodoshi. Demak, pedagogik hodisa va jarayonlarga ***ma'rifiy yondashuv*** – yangilanayotgan milliy pedagogikaning eng asosiy tamoyillaridan biridir (2.1-rasm).

***Ma'rifatning maqsadi*** – shaxsni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatga jalb etish uchun uning o'ziga va jamiyatga zarur bo'lgan fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishdan, boshqacha aytganda, odamni jamiyatdagi ustuvor oliy maqsadlar, qadriyatlar va e'tiqodlar majmui bilan tanishtirish orqali inson kamolotini boshqarishdan iboratdir. Ma'rifiy tizim quyidagilarni ta'minlashga safarbar qilingan:

- 1) avlodlarning tarixiy davomiyligini ta'minlash, milliy madaniyatni saqlash, yoyish va rivojlantirish;
- 2) O'zbekiston vatanparvarlarini, yuksak axloqqa ega bo'lgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini hurmat qiladigan huquqiy, demokratik ijtimoiy davlat fuqarolarini tarbiyalash;
- 3) bolalar va yoshlarni o'z vaqtida har tomonlama kamol toptirish, shaxsda mustaqil o'qish va o'z-o'zini ro'yobga chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish;

4) bolalar va yoshlarda hayotni yaxlit tushunish va zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

5) madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ta’limning barcha jihatlarini muntazam ravishda yangilab borish;

6) insonning butun hayoti davomida ta’lim olishining uzluksizligini ta’minlash;

7) ma’rifiy muassasalar turlarining xilma-xilligini va ta’limni individuallashtirishga imkon beruvchi ma’rifiy dasturlarning o‘zgaruvchaligini ta’minlash;

8) ta’lim bosqichlari va darajalarining izchilligini ta’minlash;

9) masofaviy ta’limni rivojlantirish, ta’limda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etadigan dasturlarni yaratish;

10) ta’lim oluvchilarning akademik harakatchanligini ta’minlash;

11) iqtidorli bolalar va yoshlar bilan ishslashda milliy an’analarni qayta tiklash, pedagog xodimlarning ilmiy faoliyatda ishtirok etishini ta’minlash;

12) jamiyatni axborotlashtirish va yangi ilmiy sig‘imli texnologiyalarni riojlanirish sharoitida kasbiy o’sish va kasbiy harakatchanlikka layoqatli oliy ma’lumotli kishilar va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash;

13) shaxs va jamiyatning tabiatga, atrof-muhitga ehtiyojkorlik va mas’ullik munosabatini shakllantiruvchi ekologik ma’rifatni vujudga kelti-rish.

Demak, **ma’rifatning vazifalari** inson va jamiyat hayoti uchun mustaqil ahamiyatga ega bo‘lgan ma’rifatning alohida olingan natijalarini ifodalaydi. Bu vazifalarни uch guruhga ajratish mumkin:

1) *jamiyat taraqqiyoti manfaatlardan kelib chiqadigan vazifalar* – malakali xodimlarni tayyorlash, jamiyat qadriyatlariga sherik bo‘lgan ongli va faol fuqarolarni shakllantirish;


2) *inson kamoloti manfaatlardan kelib chiqadigan vazifalar* – insonning ijodiy salohiyati va ma’naviy dunyosini shakllantirish va boyitish;

3) *shaxs va jamiyat manfaatlарини уyg‘unlashtirish zaruriyatidan kelib chiqadigan vazifalar* – har xil ma’rifiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni bir vaqtning o‘zida qondirish.

Ma’rifatning maqsadi va vazifalariga uning ikki “qanoti”: **ta’lim** va **tarbiya, ularning uzviy birligi – pedagogikaning “oltin qoidasi”** orqali erishiladi. Shu sababli ma’rifat, ya’ni ta’lim-tarbiya O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ustuvor soha, deb e’tirof qilingan.

### ***Ma’rifatning asosiy vazifalari:***

1) **ta’lim** – jamiyatda tarixan shakllangan ijtimoiy tajribaning avloddan-avlodga o‘tkazilishi va uning yosh avlod tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlaydi;



2) ***tarbiya*** – odamga madaniyatni o‘zlashtirish sharoitlarini yaratadi va uzlusiz tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali ijtimoiy-madaniy tajribalar, axloqiy qadriyatlar va me’yorlar, umuman, umuminsoniy va milliy madaniyatni har bir kishining shaxsiy tajribasiga aylantiradi, bu jarayonda o‘ziga xos ijtimoiy madaniy xulq-atvor fazilatlarini shakllantiradi;

3) ***ijtimoiylashtirish*** – individning o‘zga kishilar bilan o‘zaro munosabatga kirishishi, jamiyatdagi qadriyatlar, me’yor va xulq-atvorlar majmuini o‘zlashtirishi, shuningdek turli ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar ta’sirida atrofdagi olamni, tabiiy va ijtimoiy muhitni anglashi hamda shaxs sifatida shakllanishi tezlashuvi oqibatida insoniylik fazilatlarini egallashi, boshqacha aytganda, madaniylashishi ta’milanadi;

4) ***malakali mutaxassislar tayyorlash*** – boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional hamda oliy ta’lim muassasalarida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanadi.

***Ma’rifatning mazmuni*** ta’lim-tarbiya dasturlaridagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar hajmi hamda shaxsning bilish saviyasi bilan aniqlanadi. Ma’rifatning mazmuni ta’lim, tarbiya va mustaqil o‘qish jarayonida, ya’ni shaxsning aqliy-axloqiy faoliyatida ro‘yobga chiqadi va inson kamolotini, uning milliy va umumjahon madaniyatiga integratsiyasini hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlaydi.

***Ma’rifatlilik (o‘qimishlilik) mezonlari*** turlicha bo‘lib, shaxsning boshlang‘ich, umumiyl o‘rta va professional (boshlang‘ich professional, o‘rta professional, o‘rta maxsus professional va oliy professional) ma’lumotga egaligi, uning bilim va ko‘nikmalar, tafakkur va faoliyat usullarini, bir so‘z bilan aytganda, kompetensiyalarni o‘zlashtirishda erishgan darajasi bilan belgilanadi. Ma’rifatli (o‘qimishli) odam - tegishli *ma’lumot* darajasiga ega bo‘lgan insondir.

***Mustaqil o‘qish*** va ***o‘z-o‘zini tarbiyalash*** - uzlusiz ma’rifiy jarayonning asosiy shartlaridan biridir. Ma’rifat barcha davrlarda *tarixiy*, ya’ni ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni ma’lum bir makon va zamonda ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish sharoitlari, ilmiy bilimlar yuksalishi va boshqa ijti-moiy omillar ta’sirida doimo o‘zgarib turadi.

## **2. Ma’rifat – yaxlit pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida**

Pedagog bo‘lish uchun boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ularni ma’rifat ziyyosidan bahramand qilish kerak. Millatimiz farzandlarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning o‘ziga ishonchini orttirish kabi ishlarning markaziga *ma’rifat* kabi o‘lmas qadriyat qo‘yilishi lozim. Zero, ***ma’rifat - ta’lim va tarbiyaning o‘zaro birligida kechadigan, shaxs kamolotini tartibga solib, uni madaniylikka, komillikka eltadigan pedagogik jarayondir.*** Shunday ekan, *shaxs kamoloti* va *ma’rifat* - pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida namoyon bo‘ladiki, bu pedagogika fani va amaliyotida o‘z aksini topadi.

**Pedagogik jarayon** deganda ko‘pincha o‘quv-tarbiya yoki ta’lim-tarbiya jarayoni tushuniladi. Nemis pedagogi A. Disterveg ta’lim va tarbiyani o‘zaro uzviy bog‘liq yaxlit jarayon sifatida tushungan: “ta’lim tamoyillari mavjud ekan, tarbiya tamoyillari ham hamisha mavjud bo‘ladi yoki aksincha”. Pedagogik jarayonning yaxlitlik g‘oyasi K.D. Ushinskiy, P.F. Lesgaft, N.F. Bunakov va boshqalarning ma’rifiy g‘oyalarida chuqur o‘z aksini topgan.

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F. Kapterev alohida shug‘ullanib, quyidagi xulosalarga kelgan: “ta’lim, o‘qitish, o‘qish, tarbiya, pand-nasihat, o‘git va boshqa bir qator so‘zlar turli xususiyatlar, jihatlar, vositalar va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ular birgalikda yaxlit pedagogik jarayondir”. Demak, *pedagogik jarayon* - pedagogik fanining eng muhim, asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, unga *yaxlitlik*, ya’ni ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti jarayonlarining o‘zaro birligi va shartlanganligi xosdir.

**Pedagogik jarayon** – ijtimoiy tajribani o‘tkazish va o‘zlashtirish maqsadida katta (o‘qituvchi) va yosh (o‘quvchi) avlod o‘rtasida maxsus tashkil etilgan, o‘quvchilarining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarini qayta o‘zgartirishga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir yoki hamkorlik. Pedagogik jarayon muayyan ta’lim-tarbiya tizimlari doirasida ma’lum bir vaqtida maxsus tashkil etiladi.

Pedagogik jarayon mustaqil o‘qish (ta’lim olish) bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, odamning rivojlanishi va shaxsning shakllanishi, ya’ni kamol topishini ta’minlaydi:

- **mustaqil o‘qish** – insonning o‘z qiziqishlari doirasidagi bilimlarni izlashi va ularni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq faol bilish faoliyati;
- **odamning rivojlanishi** - odamning anatomik-fiziologik tuzilmasida, asab tizimi va ruhiyatida, bilish va ijodiy faoliyatida, shuningdek dunyoqarashi, axloqi va e’tiqodi boyishida ro‘y beradigan o‘zaro bog‘liq miqdor va sifat o‘zgarishlari jarayoni;
- **shaxsning shakllanishi** - irsiyat, muhit va ma’rifatning ob’ektiv ta’sirida odamning rivojlanishi va faolligi natijasida shaxsiy va ijti-moiy fazilatlarga ega bo‘lish jarayoni.

Pedagogik jarayon inson kamolotining eng muhim omili sifatida barkamol, yetuk shaxsning shakllanishini ta’minlaydi.

**Pedagogika – ma’rifat (ta’lim, tarbiya) va inson kamoloti haqidagi fan** sifatida o‘sib kelayotgan yosh avlod va katta yoshli odamlarga shaxsiy va kasbiy kamolotining barcha davrlarida yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiya berish, ularni ilm-ma’rifatli va madaniyatli qilish, kamolga yetkazish masalalarini o‘rganadi. Insonning kamol topishi pedagogik, ya’ni o‘quv-tarbiya jarayonining uyg‘un birligida kechadi va ta’milanadi. Shu bois, yuqorida ta’kidlanganidek, **ma’rifat (ta’lim, tarbiya) va shaxs kamoloti** – pedagogik jarayonning maqsadi va mazmuni sifatida namoyon bo‘ladi.

**Pedagogik jarayon (o‘quv-tarbiya jarayoni)** – ma’rifat va shaxs kamoloti jarayonlari, ularning o‘zaro aloqadorligi va birligidan iborat quyidagi beshta tarkibiy qismni o‘z ichiga qamrab olgan yaxlit ma’rifiy tizim (2.2-rasm):

- 1) ta’lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalari;

- 2) ta'lim va tarbiya mazmuni;
- 3) ta'lim va tarbiya metodlari, shakllari va vositalari;
- 4) o'qituvchi-tarbiyachilar;
- 5) o'quvchilar (ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar).


Pedagogik jarayonning asosiy xususiyati uning ***bir butunligi*** hisoblanadi. Har tomonlama rivojlangan barkamol shaxs faqat yaxlit pedagogik jarayonda shakllanishi mumkin. ***Yaxlitlik*** deganda ta'lim va tarbiyada paydo bo'ladigan va kechadigan barcha jarayonlar va hodisalar, pedagogik jarayon sub'yektlari va ularning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlari bir-biriga bog'liqligi, bir-birini taqozo qilishi tushuniladi. Jarayonning sifati va samaradorligi aynan ularning faol faoliyatiga bog'liqdir. Yaxlit pedagogik jarayonda hatti-harakatlar va ziddiyatlar yechimlari, o'zaro ta'sirlashuvchi kuchlarning qayta guruhlanishi, yangi xususiyatlar va sifatlarning paydo bo'lishi kabilalar uzlusiz ro'y beradi.

Shuningdek, pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyati va kechish shartlaridan biri ***pedagogik o'zaro hamkorlik*** hisoblanadi. ***Pedagogik o'zaro hamkorlik*** – pedagog va tarbiyalanuvchilarning oldindan rejalashtirilgan, mo'ljallangan o'zaro munosabatlari. Bu munosabatlar natijasida ularning xulqatvori va faoliyatida ikki taraflama o'zgarishlar paydo bo'ladi. "O'qituvchi – o'quvchi", "o'qituvchi – guruh – o'quvchi", "o'qituvchi – jamoa – o'quvchi" munosabatlari pedagogik o'zaro munosabatning birmuncha keng tarqalgan variantlari hisoblanadi. Shunday bo'lsa ham, pedagogik jarayonning yakuniy natijasi "o'quvchi (tarbiyalanuvchi) – o'zlashtirish ob'ekti" munosabati bo'lib, u pedagogik jarayonning sub'ekti, ya'ni o'quvchini o'zgartirishga, uning muayyan bilimlar, faoliyat tajribasi va munosabatlarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Pedagogik jarayondagi ***ziddiyatlar*** uni harakatga keltiruvchi kuchlardir. O'quvchining ichki imkoniyatlari bilan pedagoglar (ota-onalar) tomonidan unga qo'yilgan talablar o'rtasidagi nomuvofiqlar ***umumiyy ziddiyatlar*** sirasiga kiradi.

Yaxlit pedagogik jarayon tuzilmasi *maqsad*, *mazmun*, *o'qituvchi* va *o'quvchi faoliyati*, shuningdek ularning birgalikdagi faoliyati *natijasini* o'z ichiga oladi. Pedagog (o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi (o'quvchi) pedagogik jarayonning sub'ektlari va ob'ektlari bo'lib, bu jarayonning sifati va samaradorligi aynan ularning faol faoliyatiga bog'liqdir.

***Pedagogik faoliyat*** – bu jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqqan holda zamонавиу та'lim va tarbiyaning maqsadi va vazifalariga muvofiq maxsus tashkil etiladigan faoliyat. Pedagogning ta'lim oluvchilar yoki tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro munosabati ularning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda pedagogik jarayonning maqsadga muvofiq metodlari, shakllari va vositalari tizimi orqali tashkil etiladi.



**Ta’lim oluvchilar (tarbiyalanuvchilar)** yoki **bolalar jamoasi faoliyati** jamoaning, shuningdek o‘qituvchining (ta’lim berish, tarbiyalash) maqsadlariga hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydigan ongli, ongsiz motivlar va maqsadlar bilan ham tavsiflanadi. Ta’lim oluvchilar (tarbiyalanuvchilar) faoliyati ularni ta’lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq kamol topishiga, ularda bilim va ko‘nikmalar, faoliyat tajribasi, o‘zi va atrofdagi olamga munosa-batlar tizimi shakllanishiga olib kelishi lozim. Biroq o‘quvchilar amalda faqat o‘z bilimi va tajribasiga mos keluvchi metod va vositalardan foydalanadilar. Ta’lim oluvchilarda bunday bilim va tajriba qanchalik kam bo‘lsa, ular hatti-harakatining maqsadga muvofiqligi va rang-barangligi shunchalik kam bo‘ladi. Shu sababli asosiy mas’uliyat kattalarda – shakllanayotgan shaxsning ta’limi va tarbiyasini tashkil etuvchi *pedagogda* bo‘ladi. Bola esa faqat o‘z hatti-harakatlariga javob beradi.

**Pedagogik jarayonning mazmuni** o‘zaro uzviy bog‘langan “*ta’lim mazmuni*” va “*tarbiya mazmuni*”ni o‘z ichiga oladi. *Ta’lim mazmuni* - ta’lim oluv-chi “nimani o‘rganishi lozim”, *tarbiya mazmuni* – tarbiyalanuvchi “shaxsda qanday fazilatlar shakllanishi lozim” degan savolga javob beradi. Pedagogik jarayonning mazmuni jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi, ta’lim va tarbiyaning maqsadlari va vazifalari aks etgan o‘quv-tarbiya dasturlariga, pedagoglar (o‘qituvchilar, tarbiyachilar) va tarbiyalanuvchilarning (o‘quvchilar-ning) birgalidagi o‘zaro faoliyatiga, shuningdek ta’lim va tarbiya vositalariga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi vaqtida pedagogik jarayonning mazmun-mohiyatini ochib beradi-gan, qandaydir nazariy postulatlarda ifodalangan ta’lim-tarbiya jarayonlarini bilish natijalari, ya’ni quyidagi **pedagogik qonunlar** e’tirof etilgan:

1. **Pedagogik jarayonning yaxlitligi va birligi qonuni** (pedagogik jarayonning yaxlitligi va uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, xususan, aqliy, hissiy, axboriy, qidiruv, mazmuniy, jarayonli va motiva-iyali tarkibiy qismlari uyg‘un birligining zaruriyatini ochib beradi).


2. **Ta’lim nazariyasi va amaliyotining birligi va o‘zaro bog‘liqligi qonuni** (ta’limda nazariy va amaliy tamoyillar o‘rtasidagi nisbatni, shuningdek o‘qituvchining amaliy faoliyati, uning maqbulligini ochib beradi).

3. **Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta’lim qonuni** (shaxsni har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish bilan bilimlar va faoliyat usullarini egallah o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beradi);

4. **Ta’lim maqsadlari, mazmuni va metodlarining ijtimoiy shart-langانlik qonuni** (ta’lim va tarbiyaning barcha tarkibiy qismlari shakllanishiga ijtimoiy munosabatlar va tuzum (ijtimoiy buyurtma) hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishining ob’ektiv jarayonini ochib beradi).

5. **O‘quvchilar ta’limi, tarbiyasi va faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi qonuni** (pedagogik rahbarlik va o‘quvchilar shaxsiy faolligining rivojlanishi o‘rtasidagi, shuningdek ta’limni tashkil etish usullari bilan uning natijalari o‘rtasidagi nisbatni (bog‘liqlikni) ochib beradi).

6. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini individual (yakka) va guruhli tashkil etishning birligi va o‘zaro shartlanganligi qonuni (sinf/guruh bilan ta’limning individual shakli o‘rtasidagi nisbat (bog‘liqlik) qarab chiqiladi, o‘qituvchining jamoa va ayrim o‘quvchilar bilan ishlash tamoyillari va qoidalari o‘rnataladi) (2.3-rasm).



2.3-rasm. Pedagogik jarayonning qonuniyatlari

Shuningdek, rossiyalik taniqli pedagog A.V. Xutorskiy tomonidan ma'rifiy va pedagogik jarayonlarga xos bo'lgan, asosida tashxislanuvchi va tasdiqlanuvchi dalillar yotgan quyidagi *pedagogik qonunlar shakllantirilgan*:

**1. Pedagogikaning birinchi qonuni:** odamning o'zini-o'zi ro'yobga chiqqa-rish qonuni: o'quvchining ma'rifiy jarayondagi missiyasini (burchi, vazifasini) namoyon qilishga yo'naltirilgan pedagogik mo'ljal asosida ish yuritish odamning o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishini (anglashini) ta'minlaydi.

**2. Pedagogikaning ikkinchi qonuni:** odamzodning vorislik qonuni: har bir o'quvchining ma'rifikatli (o'qimishli, ma'lumotli, tarbiyalı, madaniyatlı) bo'lishi uning o'z oilasi (avlodlari) ma'rifikatiga, uning meros qilib olinishiga ta'sir ko'rsatadi.

**3. Pedagogikaning uchinchi qonuni:** madaniyatning uzluksiz tiklanishi va o'sishi qonuni: o'quvchining ma'rifiy natijasi, ya'ni o'qimishliligi madaniyatning uzluksiz tiklanishi va yuksalishiga olib keladi.

**4. Pedagogikaning to'rtinchi qonuni:** kishilar farovonligi va baxtsaodati qonuni: ma'rifiy natijalarining asosiy ko'rsatkichi, ya'ni o'quvchilarning muvaffaqiyatga, baxt-saodatga erishish darajasi pedagogik jarayonning aniq, muayyan maqsadlarga yo'nalgaligi bilan bog'liqdir.

**5. Pedagogikaning beshinchi qonuni:** insoniyat ma'rifikatining umumbashariy mo'ljallanganlik qonuni: umumjahon miqyosidagi vazifalarni pedagogik jarayonga kiritish o'quvchining maqsadli mo'ljallarini faoliyatining umumbashariy mazmuni bilan bog'laydi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunlarga muvofiq, *maktab* – o'quvchilar uchun baxt-saodat maskani, har bir *ota-onा* - o'z farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Agar o'qituvchi o'z darslarini ushbu qonunlar asosida tashkil qilsa, shogirdlari va ularning farzandlari ustoz-murabbiydan bir umrga minnatdor bo'ladi. Agar *uslubchilar* (*metodistlar*) o'z ishlanmalari asosiga mazkur qonunlarni qo'ysa, ko'plab o'qituvchilar va ularning o'quvchilari baxtli va muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. *Pedagog olimlar* mazkur qonunlarni tahlil qilib (baholab), yangi pedagogik qonunlar va qonuniyatlarni kashf qilishi mumkin. *Amaldorlar* esa ma'rifiy tizimni mazkur qonunlar asosida boshqarsa, puldan ko'proq mukofot - qo'shimcha haqqa ega bo'ladilar.

Pedagoglar ta'lim-tarbiya qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar insonni kamol toptirishga yo'naltirilgan pedagogik qonunlarga muvofiq sodir bo'lishini, qilayotgan ishi bu qonunlarga qanchalik mosligini doimo esda tutishlari, tekshirib borishlari kerak.

Mazkur qonunlar ijrosining muayyan sharoitdagi ifodasi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi ob'ektiv, barqaror, takrorlanuvchi bog'lanishlar, boshqacha aytganda, quyidagi *pedagogik jarayon qonuniyatları* bilan uzviy, mustahkam bog'langan (4.9-rasm):

**1. Pedagogik jarayonning o'zgaruvchanlik qonuniyati** – pedagog va o'quv-chilar o'rtasidagi o'quv-tarbiya jarayoni tadrijiy, bosqichli, pog'onali xususiyatga egaligi: oraliq yutuqlar qancha katta (yuqori) bo'lsa, yakuniy natija

shuncha salmoqli bo‘lishi yoki keyingi barcha o‘zgarishlar ko‘lami oldingi o‘zgarishlarga bog‘liq bo‘lishi.

2. ***Shaxsning pedagogik jarayonda kamol topish (rivojlanish) qonuniyati*** – shaxsning rivojlanish, kamol topish tezligi va erishadigan darjasи irsiyat, o‘quv-tarbiya muhiti va uning o‘quv-tarbiyaviy faoliyatga jalb etilishiga, shuningdek qo‘llaniladigan pedagogik ta’sir vositalari va usullariga bog‘liqligi.

3. ***Pedagogik ta’sirni o‘quv-tarbiya jarayoni orqali boshqarish qonuniyati*** - pedagogik ta’sirlar samaradorligi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi qaytar aloqalar jadalligiga, o‘quvchiga ko‘rsatiladigan tuzatuvchi ta’sirlar ko‘lami, ularning tabiatini va asoslanganligiga bog‘liqligi.

4. ***Rag‘batlantirish qonuniyati*** - pedagogik jarayonning samaradorligi o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning ichki motivlari, tashqi omillar tabiatini va ularning qanchalik yaxshi ishlashi (ta’sir ko‘rsatishi) hamda o‘z vaqtida bo‘lishiga bog‘liqligi.

5. ***Pedagogik jarayonda hissiy, mantiqiy va amaliy jihatlar yoki tashqi (pedagogik) va ichki (bilish) faoliyat birligi qonuniyati*** – pedagogik jarayonning samaradorligi o‘qituvchi va o‘quvchilarning shaxsiy faoliyati sifatiga, ya’ni his (idrok) qilish tezligi va xususiyatlariga, idrok qilingan narsalarni mantiqiy tushunishiga, tushunilgan narsalardan amalda foydalanishiga bog‘liqligi.

6. ***Pedagogik jarayonning shartlanganlik qonuniyati*** - o‘quv-tarbiya jarayonining borishi va natijalari shaxs va jamiyat ehtiyojlariga, moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlarga, ma’naviy-ruhiy, sanitariya-gigienik va estetik sharoitlarga bog‘liqligi.

***Pedagogik jarayon tamoyillari*** – yaxlit pedagogik jarayondagi o‘zaro ta’sirlarning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari va xususiyatlarini belgilovchi dastlabki qoidalar; pedagogik jarayonni tashkil etish va amalga oshirishga qo‘ylgan me’yoriy talablar, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi g‘oyalari.

Pedagogik jarayonning quyidagi *tamoyillari* farqlanadi:

1. ***Ta’lim va tarbiyaning hammabopligi tamoyili*** – bu tamoyilga muvofiq o‘quv-tarbiya ishlari o‘quvchilarning yoshini, individual va jinsiylarini, shuningdek ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Shuningdek, o‘quv materiallarini o‘qitish oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumgacha bo‘lgan qiyinlikning astasekin oshib borishi bilan amalga oshiriladi.

2. ***Tarbiyaga individual yondashish tamoyili*** – pedagogik jarayonni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini (mijozi, fe’l-atvori, qobiliyati, moyilligi, qiziqishi va shu kabilarni) hisobga olgan holda amalga oshirish. Bu tamoyilning mohiyatini har bir bolaga nisbatan o‘quv-tarbiya jarayonining eng maqbul natijalariga erishish uchun pedagog tomonidan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning turli shakllari va metodlaridan epchillik bilan foydalanish tashkil etadi.

3. ***Ta’lim va tarbiya har bir bolaning o‘ziga xos xususiyatlarini rivojlantirishi bilan birgalikda jamoaviy tabiatga egaligi.*** Bu tamoyilni amalga

oshirish ishtirokchilardan hamkorlik qilish, birgalikda hatti-harakatlarni muvofiqlashtirish va doimiy ravishda o‘zaro munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini talab qiluvchi individual, guruhli va ommaviy ishlarni tashkil etishni taqozo qiladi.

4. *Ko‘rsatmalilik tamoyili* – bu tamoyilga muvofiq ta’lim o‘quvchi-lar tomonidan nafaqat ko‘rish, balki harakatga kelish, shuningdek sezish his tuyg‘ulari orqali bevosita idrok etiladigan aniq nusxa-namunalarga asosla-nadi. O‘quv-tarbiya jarayonida turli xil rasm-suratlar, namoyish qilishlar, ta’limning texnik vositalari, amaliy-laboratoriya ishlari va kompyuter-lashtirish orqali ta’minlanadigan ko‘rsatmalilik o‘quvchilarning tasavvur doirasini kengaytiradi, kuzatuvchanligi va tafakkurini rivojlantiradi, o‘quv materialini chuqur o‘rganishga yordam beradi.

5. *Ta’lim va tarbiyaning ilmiyligi tamoyili* – ushbu tamoyilga muvofiq o‘quvchilarga faqat ilm-fanda belgilangan (rasmiylashgan) qonun-qoidalar o‘rganish (o‘zlashtirish) uchun taklif etiladi va o‘z xususiyatiga ko‘ra fan metodlariga yaqin bo‘lgan ta’lim metodaridan foydalaniladi. O‘quvchilar eng muhim kashfiyotlar tarixi va zamonaviy g‘oyalar, ilmiy farazlar bilan tanishishi, ta’limning muammoli tadqiqiy metodlari va faol ta’lim texnolo-giyalaridan unumli foydalanishi kerak. O‘quvchilarga beriladigan bilimlar qanchalik oddiy bo‘lmisin, ular fanga zid bo‘lmasligi kerak.

6. *Madaniyatga muvofiqlik tamoyili* – ta’lim va tarbiyada ma’lum bir o‘quv muassasasi joylashgan mintaqqa, mamlakat, jamiyat, millat va muhit madaniyatidan imkon boricha (mumkin qadar) foydalanish.

7. *Tabiatga muvofiqlik tamoyili* – har qanday pedagogik jarayon va tarbiyaviy hamkorlikning yetakchi bo‘g‘ini o‘ziga xos xususiyatlar va kamolot darajasiga ega bola (o‘smir) bo‘lishini talab qiluvchi dastlabki qoida. O‘quv-chining tabiat, sog‘lig‘ining holati, jismoniy, fiziologik, aqliy va ijtimoiy rivojlanishi – insonni ekologik himoyalash rolini o‘ynaydigan tarbiyaning asosiy va hal qiluvchi omillaridir.

8. *Hamkorlik tamoyili* – ta’lim-tarbiya jarayonida shaxs ustuvorligiga mo‘ljal olish; shaxsning o‘z yo‘lini o‘zi belgilab olishi, o‘zligini namoyon etishi, kamol topish yo‘lida doimo harakatda bo‘lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek kattalar va bolalarning birgalikdagi hayotiy faoliyatini sub’ektlararo aloqa, dialogik munosabat asosida tashkil etish.

9. *Ta’lim va tarbiya natijalarining puxtaligi, anglanganligi va amaliyligi tamoyili* – uning mohiyati shundan iboratki, bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va dunyoqarashlik g‘oyalari chuqur anglangach va yaxshi o‘zlashtirilganidan keyin uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi. Ushbu tamoyil bilim, ko‘nikma, malakalar hamda xulq-atvor me’yorlari va qoidalarini doimiy, muntazam takrorlash, mashq qilish, mustahkamlash, tekshirish va baholash or-qali amalga oshiriladi.

10. *Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi tamoyili* – ilmiy bilimlarni kundalik hayotiy amaliyot bilan uyg‘un bog‘lashni talab qiladi. Nazariya - dunyonи bilishga imkon bersa, amaliyot unga samarali ta’sir ko‘rsatishni o‘rgatadi.

11. **Batartiblik va izchillik tamoyili** - ta’lim jarayonida mantiqiy bog‘lanishlarga rioya etilishini talab qiladi va natijada katta hajmdagi o‘quv materialining mustahkam o‘zlashtirilishi ta’minlanadi. Batartiblik va izchillik qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishishga imkon beradi. Bu tamoyil rejalashtirishning turli shakllarida va ma’lum bir tarzda tashkil etilgan mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi.

12. **Onglilik, faollik, tashabbuskorlik tamoyili** – uning mohiyati shundaki, ta’lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy bilish faoliyati ta’lim olganlik va tarbiyalanganlikning muhim omili bo‘lib, bilim va me’yorlarni o‘zlashtirish sur’ati, chuqurligi hamda ko‘nikma, malaka va odatlarni shakllashtirish tezligiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv-tarbiya jarayonida ongli ishtirot etish o‘quvchiga rivojlantiruvchi ta’sirni kuchaytiradi.

13. **Oqilona talablarga asoslangan holda bola shaxsini hurmat qilish tamoyili** – o‘qituvchining o‘quvchini shaxs sifatida hurmat qilishini talab etuvchi tamoyil. Oqilona talabchanlik – bola shaxsiga hurmatning o‘ziga xos shakli. O‘quvchilarga nisbatan talabchanlik o‘qituvchining o‘ziga talabchanligi bilan birlashtirilishi kerak. Shaxsga hurmat ko‘rsatish odamning ijobi jihatlariga tayanishni nazarda tutadi.

14. **Optimallash (eng qulay sharoit yaratish) tamoyili** – eng samarali, mos shakllar va metodlardan foydalanish kerakligini taqozo qiladi.

Yuqorida qayd etilgan *pedagogik jarayonning tamoyillari* ta’lim va tarbiyaga qo‘yilgan asosiy talablar tizimi bo‘lib, ularga rioya etish shaxsni har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish muammolarini samarali hal etishga imkon beradi.


Haqiqiy pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiya tamoyillari bir-biriga chambarchas bog‘liq holda amalga oshadi, ya’ni ular o‘zaro shartlangan bo‘lib, hech biri alohida joriy etilishi yoki qo‘llanilishi mumkin emas.

## 2. Ta’lim va tarbiya – ma’rifatning “ikki qanoti”, o‘zagi sifatida

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularning ta’limi va tarbiyasini samarali tashkil etish ehtiyojidan kelib chiqqan. Pedagogika dastlab *falsafa* negizida paydo bo‘lgan. Falsafa qadim zamonlardan boshlab hayotning mazmuni, insonning jamiyatda tutgan o‘rni va ma’rifatning vazifasi nimalardan iborat, degan savollarga javob izlash bilan shug‘ullangan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ma’rifatning o‘zagi, eng asosiy vazifasi **ta’lim** hisoblanadi (2.4-rasm).

**Ta’lim** - ijtimoiy-madaniy tajribaning avloddan-avlodga o‘tkazilishi va o‘zlashtirilishini ta’minlash, yosh avlodda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularning aqliy kuchlarini rivojlantirish maqsadida o‘qituvchi va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan birgalikdagi o‘zaro munosabatlari jarayoni.



2.4-rasm. **Ta'lim – pedagogika kategoriyasi sifatida**


**Ta'limning asosini** o'qituvchi tomonidan beriladigan va o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan *bilm*, *ko'nikma*, *malaka* va *kompetensiyalar* tashkil qiladi (2.5-rasm):

1) ***bilm*** - insonning borliq qonuniyatları, voqeа-hodisalar, narsalar, dalillar, shuningdek faoliyat usullari haqidagi tushuncha va tasavvurlarni o'zlashtirishi, muayyan tizimga solishi va xotirasida mustahkamlashi, boshqacha aytganda, o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

2) ***ko'nikma*** - insonning ongli hatti-harakatlarni tez, tejamli, to'g'ri va kam jismoniy hamda aqliy kuch sarflangan holda bajarish jarayoni va natijasi, boshqacha aytganda, o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

3) ***malaka*** - insonning muayyan faoliyatni mohirlik bilan bajarishi, uning ayrim tarkibiy qismlarini avtomatlashgan tarzda amalga oshirishi, ya'ni ongli hatti-harakatlarning avtomatlashuvi, boshqacha aytganda, o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

4) ***kompetensiya*** – insonning mayjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.



2.5-rasm. **Ta'limning asosi**

Yuqorida ta'kidlanganidek, ***tarbiya*** - ma'rifatning tarkibiy qismi, asosiy vazifalaridan biri sifatida eng qadamgi davrda vujudga kelgan. Kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida odamlar tayyor mahsulotlardan foydalangan.

Ovchilik va hunarmandchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi odamlarda mehnat tajribasi shakllanishiga olib kelgan. Mehnat, o‘z navbatida, odamlar tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatib, uni hayotiy zaruratga aylantirgan. Odamlarning mehnat ko‘nikmalari va malakalari avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘ta boshlagan. Oldiniga bola tarbiyasi kattalar tomonidan mehnat fao-liyatida bevosita amalga oshirilgan bo‘lsa, jamiyat rivojiana borgan sari bunday yo‘l talabga javob bermay qolgan: *tarbiya bilan bilimdon, tajribasi yetarli odamlar shug‘ullana boshlagan*.


Insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida ta’lim va tarbiya muassasalarining paydo bo‘lishi, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni umumlashtirish jarayonida *pedagogika fani* vujudga kelgan.

Qadim zamonlardan boshlab *inson tarbiyasi* xalq maqollari, afsonalari va dostonlarida o‘z ifodasini topgan. Bu jarayonda ajdodlarimiz tarbiyaviy ta’sirning samarali usullari va manbalarini izlab topib, hayotga tatbiq etganlar. Natijada *tarbiya haqidagi g‘oyalar* paydo bo‘lgan. Bu borada Sharq mutafakkirlarining jahon pedagogikasi tarixiga qo‘sghan hissasi be-qiyosdir. Tarixga nazar tashlasak, tarbiya haqidagi g‘oyalar eramizdan oldingi VII-VI asrlarda shakllanganligi ma’lum bo‘ladi. Keyingi davrlarda pedagogik g‘oyalarning shakllanishiga *zardushtiylik ta’limoti*, uning muqaddas kitobi “Avesto” katta ta’sir ko‘rsatgan. *Islom ta’limoti* g‘oyalarning tar-biyaviy ahamiyati Qur’oni karim va Hadisi sharifda musulmon dunyoqarashi, falsafasi, ma’naviyati, axloqi va e’tiqodi sifatida bayon qilingan.

Demak, *tarbiya* jamiyatning vazifasi bo‘lib, u turli tarixiy davrlarda muayyan shakllarga ega bo‘lgan. Insonning bu dunyoga kelishi faqat tug‘ilishdan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug‘ilgandan keyin o‘z zamonasi ta-raqqiyoti darajasiga ko‘tarilishi, ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Bu jarayonda katta avlod (tarbiyachi) o‘zining yashash va mehnat faoliyati sohasidagi tajribalarini, to‘plagan bilim va ko‘nikmalarini kichik avlodlarga - tarbiyalanuvchilarga bera boshlaganki, bu hodisa *tarbiya* deb atalgan.

**Tarbiya** - ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlari va qoidalari assosida o‘quvchilarning o‘z yo‘lini (mavqeini) belgilab olishi va ijtimoiylashishi uchun shart-sharoit yaratishga, shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan faoliyat.

Tarbiya jarayoning ishtirokchilari *tarbiyachi* va *tarbiyalanuvchi* hisoblanadi. Ular o‘rtasida aloqa (munosabat) o‘rnatalishi – jarayonni amalga oshirishning dastlabki shartidir, ya’ni *tarbiya* – ularning birgalikdagi faoliyati (2.6-rasm).




2.6-rasm. Tarbiya – pedagogika kategoriyasi sifatida


Tarbiyaning ma'lum bir *maqsadga yo'nalganligi*, *tizimli* va *jarayonli* tabiatga egaligi unga xos asosiy belgilar hisoblanadi (2.7-rasm). Xususan, tarbiyaning maqsadi bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi (2.8-rasm).

Tarbiya haqidagi g'oyalarning shakllanishiga Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobi, Axmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalarimiz katta hissa qo'shganlar. Ulardan pedagogika nazariyasi va amaliyotida hozirga qadar unumli foydalanib kelinmoqda.

Pedagogikaga uzoq vaqt davomida o'sib kelayotgan *yosh avlod tarbiyasini* o'rghanadigan ilmiy fan sifatida qaralgan. Ammo hayotiy amaliyot tarbiyaning umumiyligi faqat yoshlar tarbiyasiga emas, balki kattalar tarbiyasiga ham taaluqli ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli keyingi paytlarda pedagogikaga yosh avlod va katta yoshlilar ta'limi va tarbiyasi qonuniyatlarini o'rga-nuvchi fan sifatida qarash odatga aylangan.



2.7-rasm. Tarbiyaning asosiy belgilari



2.8-rasm. Tarbiyaning maqsadi

**Tarbiya** – yosh avlodni ijtimoiy hayot va bo‘lg‘usi mehnatga tayyorlash maqsadida jamiyatda shakllangan *ijtimoiy-tarixiy tajribani* ularga maqsadga muvofiq o‘tkazish (uzatish) jarayonidir. **Ijtimoiy-tarixiy tajriba** deganda odamlarga ma’lum bo‘lgan barcha bilimlar, ko‘nikmalar, tafakkur usullari, ahloqiy-huquqiy me’yorlar, bir so‘z bilan aytganda, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan *ma’naviy merosi* tushuniladi. Tarbiya bilan nafaqat pedagoglar, balki oila, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san’at, mehnat jamoalari va huquq-tartibot organlari ham shug‘ullanadilar.

Demak, **tarbiya**, *keng pedagogik ma’noda*, ta’lim-tarbiya muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik jamoa va tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy xulq-atvor fazilatlarini shakllantirish maqsadida maxsus tashkil etilgan pedagogik ta’sir ko‘rsatish tizimi; *tor pedagogik ma’noda*, tarbiyalanuvchilarda muayyan axloqiy-ma’naviy fazilatlarni shakllantirish maqsadida aniq tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyat (ishlar) jarayoni va natijasi.

“Tarbiya” tushunchasi pedagogika va xususiy metodikada, shuningdek boshqa ijtimoiy fanlarda tarbiya jarayonining ayrim tarkibiy qismlari yoki yo‘nalishlarini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, “jismoniy tarbiya”, “axloqiy tarbiya”, “ekologik tarbiya”, “mehnat tarbiyasi” va sh.k.

**O‘z-o‘zini tarbiyalash** – tarbiya jarayonining asosi sifatida insonning o‘zini-o‘zi kamol toptirishga, mustaqil o‘qishga va o‘zida ijobiy fazilatlarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf etishga qaratilgan tushunib yetilgan, maqsadli, sobitqadam faoliyatidir.

#### 4. Ma’rifat” tushunchasi – milliy pedagogikaning bosh kategoriyasi sifatida

Ilmiy umumlashmalarni ifodalovchi asosiy pedagogik tushunchalar *pedagogik kategoriyalar* deb ataladi. “**Ma’rifat**”, “**ta’lim**”, “**tarbiya**”, “**pedagogik jarayon**” kabi tushunchalar asosiy pedagogik kategoriyalar

hisoblanadi. Shuningdek, pedagogika “*odamning rivojlanishi*”, “*shaxsnинг shakllanishi*” kabi umumilmiy kategoriyalarga tayanib ham ish ko‘radiki, ular shaxsni kamolotga yetaklovchi tushunchalar sifatida qarab chiqiladi (2.9-rasm).

“*Ma’rifat*” pedagogikaning bosh kategoriyasi sifatida bir qancha ma’-nolarga ega bo‘lib, uni *jarayon*, *natija* va *tizim* sifatida ta’riflash mumkin:

1) *jarayon sifatida* – o‘quv-tarbiya muassasalarida, shuningdek mustaqil o‘qish natijasida bilim va ko‘nikmalar, bilish va amaliy faoliyat tajrabasi, qadriyatli mo‘ljallar va munosabatlar tizimining o‘zlashtirilishi;

2) *natija sifatida* – bilim va ko‘nikmalarni, tafakkur va faoliyat usullarini o‘zlashtirishda erishilgan daraja, ya’ni *ma’lumot*;

3) *tizim sifatida* – Davlat ta’lim standartlari va ta’lim-tarbiya dasturlarining o‘zaro izchil majmui, ularni amalga oshiruvchi ma’rifiy (o‘quv-tarbiya) muassasalar va boshqaruv organlari tarmog‘i.

### Nazorat savollari

1. Pedagogik hodisa va jarayonlarga ma’rifiy yondashuv haqida ma’lumot bering.
2. Ma’rifat - pedagogik jarayonning maqsadi va mazmunini aytib bering.
3. Ta’lim va tarbiya – ma’rifatning o‘zagini izohlab bering.
4. “Ma’rifat” – pedagogikaning bosh kategoriyasini aytib beirng.


### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jumanova F., Avazova S. va boshqalar Umumiyligpedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: “Ishonchli hamkor”, 2020 y. -582 b.
2. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.
3. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.
4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, 60 b.
5. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalar, o‘qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o‘quv qo‘llanma)-T.:2013.-279 b
6. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil.
7. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
8. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
9. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.–115
10. Kodjaspirova, G.M. Pedagogika v sxemax i tablitsax: Uchebnoe posobie. - M.: Prospekt, 2016.

11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

12. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremenennogo obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

13. Ibraymov A.E. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – T: “Lesson press”, 2020. 112 bet.



1.92-rasm. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va ularning ta'rif

### **3-ma’ruza: Zamonaviy pedagogikaning innovatsiyalar bilan shartlangan umumiy asoslari**

#### **Reja:**

1. Inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning fan va o‘quv fani sifatidagi ahamiyati. Pedagogik antropologiya.
2. Pedagogikaning ob’ekti, predmeti va vazifalariga innovatsion yondashuvlar.
3. Pedagogika fanlari tizimi, uning boshqa fanlar bilan integratsiyasi.
4. Pedagogikadagi metodologik yondashuvlar hamda ta’lim va tarbiya strategiyalarini belgilovchi printsiplar.
5. Pedagogika fani va pedagogik amaliyot metodologiyasi.
5. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tizimi.

**Tayanch iboralar:** fan; o‘quv fani; pedagogik antropologiya; ob’ekt; predmet; fanlar tizimi; integratsiya; metodologiya; metodologik yondashuv; ilmiy-tadqiqot metodlari.

#### **1. Inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning fan va o‘quv fani sifatidagi ahamiyati. Pedagogik antropologiya**

Umuman, *fan* - dunyo haqidagi ob’ektiv bilimlar tizimi; ijtimoiy ong shakllaridan biri. Fan - tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqida yangi bilimlar hosil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish faoliyatini o‘z ichiga olib, jamiyatning ma’naviy hayotiga dahldor muhim hodisadir.

*Inson haqidagi fanlarning asosiy vazifasi* – odam haqidagi ilmiy bilimlar tizimi (ilmiy dalillar, ilmiy mantiq va ilmiy tushuncha-terminlar majmui) vositasida *inson* mohiyatini turli xil aloqadorliklar majmuida nazariy aks ettirishdan iborat.

Odam bilan *olam* o‘rtasidagi turli xil aloqa va munosabatlar (“inson – tabiat”; “inson – jamiyat”; “inson – texnika”; “inson – madaniyat”; “inson – tarbiya”) tobora chuqur o‘rganilmoqda. Bu sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani boshqarish tizimida, transport, qurilish va shu kabilarda inson omilining tutgan o‘rni, uni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarning ortishi bilan izohlanadi.

Odam biologik mavjudot - *tur*, tarixiy jarayonlar sub’ekti va ob’ekti – *shaxs* va boshqa tabiiy yoki ijtimoiy-madaniy jarayonlar sub’ekti yoki ob’yekti sifatida har jihatdan o‘rganilmoqda. Odamni jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi, mehnat sub’ekti, “inson-texnika” tizimidagi yetakchi bo‘g‘in, shuningdek bilish, kommunikatsiya va boshqarish sub’ekti hamda ta’lim-tarbiya predmeti sifatida o‘rganishning ahamiyati esa kundan-kunga ortib bormoqda.

Inson muammosini bir qator ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar o‘rganadi. Jumladan, biologiya, tibbiyot, filologiya, tarix, geografiya,

huquqshunoslik, falsafa, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, iqtisodiyot nazariyasi, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya kabi qator fanlar insonni u yoki bu jihatdan tadqiq qiladi, uning o'ziga xos qirralarini ochib beradi. Bugungi kunda inson haqidagi umumiylanmoqda – *antropologiya* ham jadal rivojlanmoqda.

**Antropologiya** (yunonchadan *anthropos* - odam, *logos* - bilim, ta'limot) odamni favqulodda qobiliyat egasi sifatida har taraflama o'r ganuvchi maxsus fan. Antropologiya – tadqiqot predmeti *odam* bo'lgan ilmiy bilish sohasi. Zamonaviy fanlarning aksariyati inson mavzusiga murojaat qilishi sababli antropologiya bilan mustahkam bog'langan.

XX asr boshiga qadar antropologlar tomonidan *odamning tabiiy tarixi* (odam embriologiyasi, biologiyasi, anatomiysi, psixologiyasi), *odam paleontologiyasi* (odam tarixidan oldingi davr va ibtidoiy odam), *odam etnologiyasi* (odamning tur sifatida Yerda tarqalashi va turli qabila, elat va millatlar – xalqlarning urf-odatlari, xulq-atvori), *odam mifologiyasi* (dirlarning paydo bo'lish tarixi, rivojlanishi va o'zaro aloqadorligi), *odam sotsiologiyasi* (turli ijtimoiy guruhlar va uyushmalarda kishilarning bir-biri bilan munosabati), *odam demografiyasi* (odamning tabiiy ko'payish qonuniyatlar), *odam tibbiy geografiyasi* (odamga atmosfera va iqlim hodisalarining ta'siri va kasalliklarning geografik tarqalishi), *odam lingvistikasi* (tillarning paydo bo'lishi, ularning o'zaro aloqasi, afsonalar, folklor) imkon qadar o'r ganilgan.

"**Antropologiya**" tushunchasi dastlab G'arbiy Yevropa olimlari asarlarida ikki xil ma'noda: odamning *anatomik* (tanasi, a'zolari) va *ma'naviy* (joni, ruhi, qalbi) mohiyati haqidagi fan sifatida qarab chiqilgan. XVIII asr boshlarida "antropologiya" termini ilmiy iste'molga endi kira boshlaganida "*odam tanasi va joni haqida ilmiy asar*" ma'nosini anglatgan.

Keyinchalik bu termin odamni har taraflama o'r ganishni, uning *biologik*, *ijtimoiy* va *ma'naviy* xususiyatlari birlashuvining umumiylanmoqda shaklini anglatgan. XIX asrdan boshlab hozirga qadar ayrim xorijiy mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh) "*antropologiya - inson haqidagi umumiylanmoqda*" sifatida keng talqin etilmoqda.

Zamonaviy antropologiyada biologik (tabiiy-ilmiy), ijtimoiy va madaniy antropologik tuzilmalar muhim ahamiyat kasb etadi.

**Biologik antropologiya** biologiya fanlari tizimida alohida o'r in tutib, odamning paydo bo'lishi, evolyusiyasi va irqlari, odam organizmining makon va zamonda o'zgarishi qonuniyatlarini o'r ganadi.

**Ijtimoiy antropologiya** mazmunini odam (shaxs) va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'r ganishdan iborat bo'lib, insonning ma'naviy-madaniy hayoti haqidagi fan sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda antropologik bilimlar tizimi tabaqalashib, uning quyidagi innovatsion yo'naliishlari jadal rivojlanmoqda:

1) *antropogenez* (evolyusion antropologiya) – antropologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, odamning kelib chiqishini, boshqacha aytganda, odamning vaqt o‘tishi bilan tur sifatida o‘zgaruvchanligini o‘rganadi;

2) *odam morfologiysi* (tuzilmaviy antropologiya) – antropologiyaning asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, zamonaviy odamning gavda tuzilishi (jismoniy tuzilmasi), vaqt va makonda odam tanasining o‘zgaruvchanligi, shuningdek gavda muchalarining juz’iy o‘zgarishi qonuniyatlarini o‘rganadi;

3) *ijtimoiy antropologiya* – antropologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy tuzilmaga e’tiborini qaratgan holda odam va odamlar uyushmasi (jamoasi), ya’ni jamiyatda o‘rnatilgan me’yoriy ijtimoiy tuzum va faoliyatni o‘rganadi;

4) *siyosiy antropologiya* - antropologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, siyosiy jarayonlar va jamiyatning siyosiy institutlarini o‘rganadi;

5) *iqtisodiy antropologiya* - antropologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ibridoiy, qadimgi va kapitalizmgacha bo‘lgan jamiyat xo‘jaligi rivojlanishining muammolarini o‘rganadi;

6) *madaniy antropologiya* - antropologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, madaniyat aks etishining barcha shakllari va rivojlanishining barcha tarixiy bosqichlarida moddiy ob’ektlar, g‘oyalar, qadriyatlar, tasavvurlar va axloq-odob (fe’l-atvor) modellari majmui haqidagi fan;

7) *etnik antropologiya* - antropologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, etnik uyushmalar (jamoalar) xususiyatlarini o‘rganadi;

8) *falsafiy antropologiya* – keng ma’noda, odamning tabiatni va mohiyati haqidagi falsafiy ta’limot; tor ma’noda, turli fanlar – biologiya, psixologiya, etologiya, sotsiologiya, shuningdek din va sh.k. ma’lumotlarini qo’llash va sharhlash orqali inson haqida yaxlit ta’limotni yaratishga intiladi;

9) *psixologik antropologiya* - antropologiyaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, turli madaniy sharoitdagi kishilar haqida integrativ bilimga ega bo‘lish maqsadida odam psixikasining etnik xususiyatlarini, milliy o‘zlik (o‘z-o‘zini anglash) funksiyalari va shakllanishi qonuniyatlarini hamda etnik turmush tarzlarini o‘rganadi;

10) *pedagogik antropologiya* - antropologiyaning integrativ yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, odam haqida erishilgan barcha ilmiy va falsafiy tasavvurlarga muvofiq inson ma’rifati va kamoloti bo‘yicha maqsadli faoliyat qonuniyatlarini, yo‘llari va metodlarini o‘rganadi.

*Pedagogik antropologiya ob’ekti* - “odam-odam” munosabati, *predmeti* - ma’rifiy jarayon ishtirokchisi bo‘lgan bola shaxsi hisoblanadi. Buni anglash uchun, eng avvalo, *bolaning kimligi*, *uning tabiatni qanaqaligini* tushunish, bilish talab etiladi.

Pedagogik antropologiya tarbiyachidan nafaqat pedagogika fanini yaxshi bilishni, balki bola, odam haqida, uning bilish jarayoni haqida, shuningdek, bolalar va kattalar, tabiat va jamiyat hayoti haqidagi fundamental bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bolani (odamni) kamol toptirish uchun, eng avvalo, uning *tabiatini bilish* kerak bo‘ladi, aks holda, barcha pedagogik harakatlar

besamar kechadi, quruq safsataga aylanadi. Shu sababli zamonaviy pedagog quyidagi tushunchalarga ega bo‘lishi lozim:

1) *odam - pedagogik antropologiya predmeti* (odam – tirik bioenergetik mavjudot; odamning ijtimoiyligi va aql-farosatga egaligi; odamning ma’naviyili va yordamga muhtojligi; odamning yaxlitligi va fikrlari zidligi; bola – rivojlanayotgan odam ekanligi);

2) *inson (shaxs) kamoloti – muntazam o‘rganish talab etiladigan ilmiy muammo* (odam filogenezi va ontogenezi xususiyatlari; inson kamolotining makon va zamonda kechishi, bosqichlari);

3) *madaniyat - antropologik tushuncha* (“madaniyat” tushunchasining tarixi; madaniyat – ijtimoiy hodisa ekanligi; madaniyatli odam va jamiyat);

4) *ma’rifat - antropologik jarayon* (ma’rifat (ta’lim, tarbiya) – inson hayotining uslubi; ma’rifat – faoliyatning alohida turi; mukammal antropologik pedagogik tizimlar; zamonaviy pedagogga qo‘yilgan talablar).

Pedagogik antropologiya bolaning asl *jismoniy* va *ma’naviy* qiyofasini ochib beradi va ayni paytda *odam haqidagi bilimlarni* pedagogika uchun eng muhim masalaga aylantiradi. Pedagogik jarayonni tushunish va tashkil etishda antropologik bilimlarga tayanish shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalardan ongli, samarali foydalanishga imkon beradi. Demak, pedagogikadagi yetakchi tamoyil - *antropologik tamoyil*, aptropologik bilimlar esa *o‘qituvchini kasbga tayyorlashning o‘zagi* bo‘lishi lozim. Pedagogik antropologiya pedagogika binosining asosi bo‘lib, ta’lim va tarbiya ishlarida odam yoki odamlar guruhi tabiatiga tayaniladi.

Psixologiya, fiziologiya, ekologiya, pediatriya, pedagogika kabi ayrim fanlar kamol topayotgan inson shaxsiga o‘z nuqtai nazaridan yondashadi. Biroq, yaxlit holga keltirilmagan (integratsiyalanmagan) bilimlar majmuidan mushkul ma’rifiy masalalarni yechishda foydalanish og‘ir kechadi. Shu sababli shaxs ontogenezining pedagogik yo‘nalishi XX asrning birinchi o‘n yilligida jadal rivojlangan, XX asr oxiri - XXI asr boshida esa pedagogik antropologiya shakliga kirgan.

Dastlabki pedagogik antropologiyalashtirish g‘oyasi, ma’lum bo‘lishicha, Ya.A. Komenskiy ishlarida o‘z aksini topgan. Pedagogikaga antropologik yonda-shuvni K.D. Ushinskiy, A.F. Chemberlen, S.Xoll, D.M. Bolduin, V.M.Bexterev, P.P.Blonskiy, M.Ya.Basov, A.B. Pinkevich va boshqalar, XX asrning ikkinchi yarmida B.G.Ananев, L.V.Zankov, V.V. Davidov kabi olimlar jadallik bilan tatbiq etganlar.

*Antropologik yondashuv* ma’rifiy faoliyatni inson shaxsiga yo‘naltirishni o‘z oldiga asosiy maqsad va qadriyat qilib qo‘ydi, deb tushunish o‘rinli bo‘ladi. Biroq, yuqorida ta’kidlanganidek, inson shaxsi har xil ta’limotlar asosida turli jihatdan o‘rganilgan. K.D. Ushinskiy o‘zining “Pedagogik antropologiya”sida pedagogikani “umumiyl tushuncha” sifatida, ya’ni uni boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq va aloqadorlikda o‘rganish kerak, deb izohlagan.

Pedagogik antropologiya uchun nafaqat insonning mavjudligi, balki inson shaxsining shakllanishi, bu jarayonning kechish shart-sharoitlari muhim o‘rin

tutadi. Inson - yaxlit mavjudot. Shunday ekan, pedagogik ta'sirlarning murakkab, qiyin jihatlarini bilish va majmuiy tavsiflarni inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish pedagogik mahoratning samarali shartlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda pedagogik antropologiya turli tasniflarga ega bo'lib, bunda ikki xil yondashuv aniq farqlanadi:

1) *pedagogik antropologiya* - inson haqidagi yaxlit va tizimli bilimlarni umumlashtiruvchi fan. Bunda uning predmeti, ob'ekti, metodlari, maqsadi, vazifasi va mazmuni o'ziga xos integrativ tarzda shakllanadi;

2) *pedagogik antrapologiya* - pedagogika nazariyasi va amaliyotining assosi, ta'lim-tarbiya haqidagi fanlar metodologiyasi, pedagogikaning o'ziga xos o'zagi sifatida talqin etiladi.

#### ***Pedagogik antropologyaning vazifalari:***

1) odamning shaxsga aylanishi va ijtimoiylashishi, qolaversa, turli yoshga mansub odamlarning bir-biriga ta'sirini tushunib yetish;

2) insonparvarlikka yo'naltirilgan ma'rifiy jarayonni tashkil etish qonuniyatlari, yo'llari, shakllari va metodlarini aniqlash;

3) insonni ham tarbiyachi, ham tarbiyalanuvchi sifatida e'tirof qilish va tushunish;

4) inson kamolotining turli bosqichlarida uning o'qimishlilik – ta'-lim-tarbiya olganlik darajasini bilish;

5) inson o'zining fikrlash jarayoni qay darajada ekanligini anglashi, uni to'g'ri boshqarishi va pedagogik o'zaro ta'sirlar natijasini tekshira olishi haqida tushunchalar hosil qilish;

6) ma'rifiy sohasida insonni kreativ rivojlantirish shart-sharoitlarini tasniflash;

7) antropoligik ta'lim sohasining talablari va ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

#### ***Pedagogik antropologyaning yetakchi g'oyalari:***

1) insonning biologik va ma'naviy tabiatni bir butunligi (yaxlitligi);

2) har bir insondagi umumiylilik, o'zgachalik va alohidalik birligi;

3) insonda individuallik (shaxsiylik) va ijtimoiylikning o'zaro bog'liqligi;

4) inson kamolotida aqliy, ahloqiy va fiziologik asoslar birligi;

5) insonning ta'lim olganligi va yaxshi tarbiya ko'rganligi;

6) barcha shaxsiy xususiyatlarning moslashuvchanligi.

Pedagogik antropologiya pedagogik faoliyat o'ta murakkabligini aniq tushunishga imkon beradi, chunki sub'ektivlik tushunchasi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro munosabatidagi pedagogik tafakkurni tubdan o'zgartiradi. Pedagogik antropologiya qonuniyatlari pedagogik amaliyotning zaxirasi bo'lib xizmat qiladi.

***Pedagogika*** – ijtimoiy hayot va inson kamoloti haqidagi amaliy fan. Pedagogik bilimlar – esda saqlash uchun daxmaza bo'lgan, imtihon yoki sinovni topshirgach, unutib yuboriladigan ortiqcha narsa emas. Bu bilimlar o'quvchi-talabalarning atrofdagi olamni idrok etish tizimiga, amaliy tafakkuriga, uning

ichki dasturi va odatlariga chuqur kirib borishi hamda ulardan hayotiy va kasbiy faoliyat muammolarini hal etish vositasi sifatida keng foydalanish lozim.

Pedagogika nafaqat ta’lim sohasi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun ham kadrlar tayyorlash tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Pedagogika bo‘lg‘usi mutaxassislar shaxsida ijodkorlik va faollik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

**Pedagogika** – shaxsni shakllantiruvchi, ziddiyatli va munozarali fan. Hatto mashhur mutafakkir va olimlar o‘rtasida ham ta’lim va tarbiyaga, ma’rifat va madaniyatga yondashuvlarni baholashda aynan bir xil fikrlar, qarashlar bo‘lgan emas.

Pedagogikaning tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta bo‘lib, u bo‘lg‘usi mutaxassis shaxsini shakllantirish va takomillashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni o‘quvchi-talabalarda tahlil qilish, loyihalash va o‘zaro muloqotga kirishish bilan bog‘liq qobiliyatlarni, shuningdek tashkiliy, tarbiyaviy va didaktik ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Pedagogikaning amaliy ahamiyati** shundaki, u bo‘lg‘usi mutaxassislarda o‘zga kishilar – do‘srtlari, hamkasblari, ustoz-murabbiylar, rahbarlar va keng jamoatchilik bilan, kelgusida esa o‘z farzandlari bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish, munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Pedagogika o‘quvchi-talabalarda dalillarni tahlil qilish, umumlashtirish, o‘zaro taqqoslash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nazariy bilim-larni amaliyatda qo‘llash, shuningdek, ma’rifiy jarayonida turli xil qo‘srimcha adabiyotlar, qomuslar, lug‘atlar bilan ishslash, ma’ruza va referatlar tayyorlash kabi ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Pedagogika juda katta **hayotiy** va **umummadaniy** ahamiyatga ega. Zamona-viy kishi jamiyat amal qilayotgan ijobiy xulq-atvor odatlari, ta’lim va tarbiyaning tashkiliy shakllari, o‘z yurti va xorijdagi har xil ta’lim turlari, tarbiyaviy ta’sirlarning samarali usullari, o‘zaro munosabat uslublari, ax-borot uzatish va o‘zaro almashish usullari kabilar haqida tizimli ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Ota-onalar esa ta’lim turlari, ularning izchilligi va o‘ziga xos xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak.

Keyingi yillar tajribasidan ma’lum bo‘ldiki, **ma’rifat**, **ta’lim** va **tarbiya** jamiyat va uning madaniy taraqqiyot darajasini barqarorlashtirish tizimida markaziy bo‘g‘inga aylanmoqda. Ma’rifat ( ta’lim, tarbiya) tarixiy taraqqiyot jarayonida *ijtimoiy-madaniy hodisa* sifatida turli mazmuniy (andazaviy) o‘zgarishlarga uchragan va uning turli namunalari (modellari) o‘ziga xos ustunligi bilan ajralib turgan. Masalan, ta’lim va tarbiyaning ilmiy, madaniy, texnokratik, insonparvar, bolaparvar, antropologik modellari ma’lum bo‘lib, ularning negizida bu nomlar bilan bog‘liq bo‘lgan biror-ta tarkibiy qism (unsur) ustunlik qiladi. Xususan, ilmga asoslangan ta’-lim-tarbiya modelida *ilmiylik* tamoyili, insonparvarlikka asoslangan ta’lim-tarbiya modelida *insonparparlik* tamoyili markaziy o‘rin tutadi.

Demak, **pedagogikaning ahamiyati** uning juda keng tushuncha sifatida bir qancha ma’nolarni anglatishida namoyon bo‘ladi:

**1. Pedagogikaning hayotiy ahamiyatga egaligi.** Har bir shaxs, kim bo‘lishidan qat’iy nazar, hayoti davomida pedagog vazifasini bajaradi, ya’ni o‘z farzandlari, oila a’zolariga ta’lim beradi, ularni tarbiyalaydi, ishda hamkasblariga ta’sir ko‘rsatadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanadi.

**2. Pedagogikaning amaliy ahamiyatga egaligi.** Pedagogika o‘quvchi-yoshlarni mustaqil hayot va mehnatga tayyorlash maqsadida katta avlodlarning ijtimoiy-madaniy tajribasini kichik avlodga yetkazish bilan bog‘liq inson faoliyatini sohalaridan biridir. Bunda o‘zbek xalq pedagogikasining pedagogik mahorat va tarbiya san’ati bilan o‘zaro bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi. Zero, pedagogik faoliyatning oliy ko‘rinishi bejiz san’at deb atalmaydi.

**3. Pedagogikaning fan, ayni paytda, insonshunoslik sohasi (pedagogik antropologiya) sifatida tushunilishi.** Pedagogika tabiiy, ijtimoiy va boshqa o‘ziga xos omillar birligida inson kamolotini boshqarish usullarini tatqiq etadi va takomillashtiradi. Shu sababli pedagogik nazariyalar, konsepsiylar, modellar, metodika va texnologiyalar rivojlanayotgan shaxs haqidagi bir butun va tizimli bilimlar asosida shakllanadi. Unga psixologiya, falsafa, tarix, sotsiologiya kabi inson haqidagi fanlar ko‘magida erishiladi.

**4. Pedagogikaning o‘quv fani sifatidagi ahamiyati.** Bu bo‘lg‘usi pedagoglar o‘rganadigan “Pedagogika” o‘quv fanida ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining nazariy va amaliy jihatlari qamrab olinganligida namoyon bo‘ladi.

**5. Pedagogikaning gumanitar bilimlar tarmog‘i sifatida muhim o‘rin tutishi va ijtimoiy hayotning umummadaniy qatlamiga kirishi.** Pedagogika katta yoshli insonlarning pedagogik madaniyatida, bo‘lg‘usi mutaxassislarning psixologik-pedagogik kompetensiyasida namoyon bo‘ladi.

Demak, ma’rifat, ta’lim va tarbiya har bir odam uchun uning ma’lumoti va kasbidan qat’iy nazar - odatdagi hol, kundalik ishdir. Har bir inson umumiyligi madaniyatning tarkibiy qismi sifatida *pedagogik madaniyat* asoslarini ham egallahsga majbur. Shu nuqtai nazardan:

1) *pedagogika* - aniq pedagogik tizim doirasida inson kamolotini ta’minlovchi pedagogik jarayon haqidagi fan;

2) *ma’rifat, ta’lim* va *tarbiya* tushunchalari pedagogikaning asosiy kategoriyalari hisoblanadi;

3) *pedagogika* shaxsni rivojlantiruvchi fan sifatida ochiq tizimga ega;

4) *pedagogika* insonshunoslik fanlari tizimida odamning axborotlar olish va uzatish, uni milliy va umummadaniy qadriyatlar bilan tanishtirish usullari va yo‘llari haqidagi gumanitar fanlar tarmog‘iga mansub;

5) *pedagogika* fan sifatida o‘z predmetiga ega bo‘lib, falsafa, psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya bilan mustahkam bog‘langan;

6) *pedagogika nazariyasi va amaliyoti* o‘zaro uzviy bog‘liqlikda insonshunoslik mohiyatiga ob’ektiv mos keladi.

## **2. Pedagogikaning ob'ekti, predmeti va vazifalariga innovatsion yondashuvlar**

Zamonaviy fanlarda tadqiqot ob'ekti va predmetini ajratib ko'rsatish qabul qilingan. *Ob'ekt* – voqelikning aniq bir fan tadqiq etadigan sohasi, *predmet* – bu ob'ektni tegishli fan nuqtai nazaridan ko'rish usuli.

*Pedagogikaning ob'ekti* – ijtimoiy voqelikda odam hayoti va faoliyati tufayli vujudga kelgan *ma'rifikat* (*ta'lim, tarbiya*) sohasi, *predmeti* – odamning umri davomida uning kamol topishini ta'minlaydigan *pedagogik jarayonlar* (*ta'lim, tarbiya, mustaqil o'qish, o'zini-o'zi tarbiyalash* va sh.k.) hisoblanadi (3.1-rasm). Demak, *pedagogika fani* ma'rifikat, ya'ni *ta'lim* va *tarbiya* vositasida har tomonlama rivojlangan *barkamol shaxs* – *komil insonni* shakllantirish jarayoni va uning samarali shart-sharoitlarini o'rganadi.

### ***Pedagogikaning vazifalari:***


- 1) ma'rifikat, *ta'lim, tarbiya, shaxs kamoloti* va bu jarayonlarni boshqarish qonuniyatlarini ochish;
- 2) pedagogik faoliyat amaliyoti hamda bu boradagi innovatsion tajribalarni o'rganish, umumlashtirish;
- 3) *ta'lim* va *tarbiya* tizimlarini, boshqacha aytganda, ma'rifiy tuzilmalarning yangi metodlari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish;
- 4) ma'rifiy, *ta'limiy* va *tarbiyaviy* tizimlarning kelgusi taraqqiyotini bashorat qilish;
- 5) ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o'tkazish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish.

*Pedagogika – ma'rifikat (ta'lim, tarbiya) va shaxs kamoloti haqidagi fan.* Boshqacha aytganda, *pedagogika fani* *ta'limiy* va *tarbiyaviy* tartibotlar vositasida yosh avlodni va katta yoshli odamlarni shaxsiy va kasbiy kamolotining barcha davrlarida tarbiyalash, ilm-ma'rifikatli qilish masalalari bilan shug'ullanadi. Ayni paytda, *ta'lim* va *tarbiya* metodikasining nazariy asosi hisoblanadi (3.2-rasm).


Pedagogika fani mohiyatan uchta *asosiy nazariyani*, ya'ni *ta'lim* nazariyasi (didaktika), *tarbiya* nazariyasi va *pedagogik menejment* (boshqarish) nazariyasini o'z ichiga qamrab oladi.

### **Pedagogika fanining *rivojlanish manbalari* quyidagilar hisoblanadi:**

- 1) *ta'lim-tarbiya* borasidagi amaliy tajribalar;
- 2) falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlar;
- 3) G'arb va Sharq, jahon va vatanimizdagi zamonaviy *ta'lim-tarbiya* amaliyoti;
- 4) ilmiy-pedagogik tadqiqotlar natijalari;
- 5) tashabbuskor pedagoglarning ish tajribalari.



3.1-rasm. Pedagogikaning ob'ekti, predmeti va vazifalari



3.2-rasm. Pedagogikaning asosiy nazariyalari va rivojlanish manbalari

### 3. Pedagogika fanlari tizimi, uning boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Har qanday fan rivojlanish jarayonida o'z nazariyasini boyitib boradi va unda eng muhim tadqiqiy yo'nalishlar ilmiy tabaqalashadi. Bu pedagogika faniga ham taalluqlidir. Hozirgi vaqtida "Pedagogika fani" tushunchasi quyidagi

yaxlit ***pedagogika fani tuzilmasi***, ya’ni tarmoqlarini bir butun aks ettiradi (3.3-rasm):

1. **Ma’rifat va pedagogika tarixi** (ma’rifat, ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyotining birligida qarab chiqiladigan umumjahon tarixiy-pedagogik jarayoni, ya’ni turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalari, nazariyalar va ma’rifiy tizimlarning rivojlanishini o‘rganadi).

2. **Umumiyy pedagogika** – pedagogika fanining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta’lim va tarbiyaning umumiyy qonuniyatlarini tadqiq etuvchi, barcha turdagи ma’rifiy muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonining umumiyy asoslarini ishlab chiquvchi tayanch ilmiy fan. U quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1) ***pedagogik faoliyatga kirish*** (kasbiy pedagogik faoliyat mohiyatini o‘rganadi);

2) ***pedagogikaning umumiyy asoslari*** (pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalarini, pedagogik qonunlar, qonuniyatlar, qoidalar va tamoyillarni o‘rganadi);

3) ***didaktika - ta’lim nazariyasi va amaliyoti*** (ta’lim qonuniyatları, xususan, o‘qitish va bilimlarni egallash, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek har xil o‘quv mashg‘ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganadi);


4) ***tarbiya nazariyasi va amaliyoti*** (maxsus tashkil etilgan yaxlit tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ishlarning asosiy turlarini (yo‘nalishlarini), ya’ni aqliy, axloqiy, ekologik, estetik, jismoniy tarbiya va sh.k.ni o‘rganadi);

5) ***pedagogik menejment yoki ma’rifiy tizimni boshqarish va tas-kil etish nazariyasi*** (o‘quv-tarbiya muassasalarini va ularning tizimini umumiyy tashkil etish muammolarini o‘rganadi);

3. **Yosh pedagogikasi** – turli yosh davrlarida shaxs ta’limi va tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘rganadi. Shaxs kamoloti bosqichlari va yosh xususiyatlariga bog‘liq ravishda yosh pedagogikasining quyidagi tarmoqlari farqlanadi:

1) ***maktabgacha pedagogika*** (maktab yoshiga yetmagan bolalarning rivojlanishi, shakllanishi, ta’limi va tarbiyasi qonuniyatlarini o‘rganadi);

2) ***maktab pedagogikasi*** (maktab yoshidagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslari, tamoyillari, metodlari, shakllari va vositalarini ishlab chiqadi. Maktab pedagogikasida kichik maktab yoshi (boshlang‘ich maktab) pedagogikasi, o‘rta maktab yoshi pedagogikasi va katta maktab yoshi pedagogikasi farqlanadi);



3) **androgogika** (katta yoshlilar ta'limi va tarbiyasi masalasini o'rghanadi);

4) **gerontogogika** (keksalik pedagogikasi, ya'ni keksaygan, qariy boshlagan chog'da yashash qobiliyatini saqlash, shaxsiy hayotni ta'minlash uchun yangi bi-lim va ko'nikmalar egallanishini, masalan, kompyuter va internetdan foydalanishni o'rghanadi).

4. **Maxsus pedagogika** – jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy asoslari, tamoyillari, metodlari,

shakllari va vositalarini ishlab chiqadi. Maxsus pedagogika “defektologiya”, “korreksion pedagogika” deb ham yuritiladi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) *surdopedagogika* (kar-soqov (gungalak) va kar bolalar hamda katta yoshli odamlarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi);

2) *tiflopedagogika* (ko‘rlar va zaif ko‘radigan bolalar va katta yoshli kishilarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi);

3) *oligofrenopedagogika* (aqli zaif bolalar va katta yoshli kishilarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganadi);

4) *logopediya* (nutqi buzilgan bolalar va katta yoshli kishilarni o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi, nutq kamchiliklarining namoyon bo‘lishi va tabiatini, nutq rivojlanishidagi og‘ishlar (chetga chiqishlar) sabablari va mexanizmlarini tadqiq etadi, ularni bartaraf etish tamoyillari va metodlarini ishlab chiqadi).

5. **Kasb-hunar pedagogikasi** – insonni aniq bir kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatları, tamoyillari va texnologiyalarini o‘rganadi hamda ishlab chiqadi. Kasb-hunar ta’limi bosqichlari, darajalari va mutaxassis tayyorlash sohasiga (tarmog‘iga) bog‘liq holda uning quyidagi ikki qismi ajratib ko‘rsatiladi:

a) **kasb-hunar ta’limi bosqichlari, darajalari bo‘yicha:**

1) *boshlang‘ich professional ta’lim pedagogikasi* (kasb-hunar maktablarida boshlang‘ich professional ta’lim dasturlari bo‘yicha kasbga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi);

2) *o‘rta professional ta’lim pedagogikasi* (kollejlarda o‘rta professional ta’lim dasturlari bo‘yicha kasbga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi);

3) *o‘rta maxsus professional ta’lim pedagogikasi* (texnikumlarda o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari bo‘yicha kasbga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi);

4) *oliy professional (kasbiy) ta’lim pedagogika* (oliy ta’lim muassasalarida oliy professional ta’lim (bakalavriat, magistratura) dasturlari bo‘yicha kasbga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqadi);

5) *mehnat (ishlab chiqarish) pedagogikasi* (ishlayotgan xodimlarni mehnat jamoasida o‘qitish va malakasini oshirish, ularni ishlab chiqarishning yangi vositalariga qayta moslashtirish, yangi kasblarga qayta o‘qitish (tayyorlash) qonuniyatlarini o‘rganadi);

b) **mutaxassislar tayyorlanadigan sohalar (tarmoqlar) bo‘yicha:**

1) *muhandislik pedagogikasi* (muhandis kadrlar tayyorlashning samarali pedagogik tizimini loyihalashtiradi, qonuniyatlarini ochadi, pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqadi);

2) *sport pedagogikasi* (fan sifatida sport faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni va qonuniyatlarini o‘rganadi);

3) *yuridik pedagogika* (huquqshunos kadrlar tayyorlashning samarali pedagogik tizimi, qonuniyatları va texnologiyalarini ishlab chiqadi);

4) **harbiy pedagogika** (harbiy o‘quv muassasalari va harbiy mutaxassislik o‘rganiladigan qurolli kuchlar qismlarida harbiy xizmatchilarni o‘qitish va tarbiyalashning qonuniyatları, nazariy asoslari, tamoyillari, metodlari va shakllarini ishlab chiqadi. Harbiy pedagogika qoidalari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimida ham uchraydi);

5) **tibbiy pedagogika** (sog‘liqni saqlash muassasalarida tibbiyot xodimlarini o‘qitish va tarbiyalashning qonuniyatları, tamoyillari, metodlari va shakllarini ishlab chiqadi);

6. **Ijtimoiy pedagogika** – jamiyatning shaxs rivojlanishi va kamolotiga ta’siri muammolar, bolalar va kattalarni ijtimoiylashish jarayonida tarbiyalash, ularga ijtimoiy ta’lim berish qonuniyatları va matabdan tashqari ta’lim va tarbiyaning nazariy va amaliy masalalarini o‘rganadi. Ijtimoiy pedagogikaning quyidagi tarmoqlari farqlanadi:

1) **oila pedagogikasi** (oila tarbiyasi haqidagi fan bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarini (manbalarini) o‘rganadi, bola shaxsini to‘g‘ri shakllantirish bo‘yicha ota-onalar uchun ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi);

2) **mehnat jamoalari pedagogikasi** (mehnatga ongli munosabatni, kasbiy kamolotga intilishni va topshirilgan ishga ijodiy munosabatni tarbiyalash, umumiy madaniyatni shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarishni rivoshlantirish kabi masalalarini o‘rganadi);

3) **penitsensiar (axloq tuzatish) pedagogikasi** (jazoni ijro etish yoki axloq tuzatish muassasalarida qonunni buzgan shaxslarni o‘qitish va qayta tarbiyalash muammolarini o‘rganadi).

7. **Davolash pedagogikasi** – pedagoglarning zaif va kasal o‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy faoliyati tizimini ishlab chiqadi.

8. **Etnopedagogika** – xalq pedagogikasi, ya’ni an’anaviy milliy tarbiya tajribasini (amaliyotini) o‘rganadi.

9. **Qiyosiy pedagogika** – dunyoning turli mamlakatlaridagi ta’lim-tarbiya tizimlarining o‘xshash va farqli jihatlarini topish yo‘li bilan ularning mazmuniy va tashkiliy xususiyatlarini o‘rganadi, taqqoslaydi va ajratib ko‘rsatadi.

10. **Xususiy metodikalar** (barcha turdagи o‘quv-tarbiya muassasalarida muayyan o‘quv fanlarini o‘qitish va o‘rganishning xususiy qonuniyatlarini o‘rganadi va ularning texnologik majmuuni ishlab chiqadi).

11. **Ma’rifat (ta’lim-tarbiya) falsafasi va metodologiyasi** (ma’rifatning mohiyatini tushunishda falsafiy ta’limotlarning tutgan o‘rnini, ma’rifiy maqsadlar va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlashga imkon beruvchi asosiy yondashuvlarni, pedagogika metodologiyasi, ya’ni pedagogik tadqiqot metodlari, metodikasi va texnikasini o‘rganadi, ta’lim va tarbiyaning mafkurasini belgilaydi).

Pedagogik muammolarini tadqiq qilish fanlararo yondashuvni va inson haqidagi boshqa fanlar ma’lumotlaridan keng foydalanishni talab qiladi. Pedagogikaning paydo bo‘lishi va shakllanishiga falsafa, psixologiya, biologiya,

antropologiya, tibbiyat, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlar katta ta'sir ko'rsatgan va ular pedagogika bilan mustahkam bog'langan.

Pedagogikaning **boshqa fanlar bilan aloqadorligini** to'rt xil shaklda ajratib ko'rsatish mumkin:

1) pedagogikaning boshqa fanlardagi g'oyalar, nazariyalar va umumlashgan xulosalardan foydalanishi;

2) pedagogikaning boshqa fanlardagi tadqiqot metodlarini ijodiy o'zlashtirishi;

3) pedagogikaning boshqa fanlardagi tadqiqotlar natijalaridan foydalanishi;

4) pedagogikaning insonni majmuiy tadqiq etishda ishtirot etishi.

Pedagogikaning **falsafa** bilan o'zaro aloqadorligi mahsuldor bo'lib, eng uzoq vaqtlardan beri uzlusiz davom etmoqda. Zero, falsafiy g'oyalar pedagogik konsepsiylar va nazariyalarning yaratilishiga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va insonning olamda tutgan o'rnini tushunishga imkon beradi. Pedagogik izlanishlarning yo'naliishlari tadqiqotchilar tayanadigan falsafiy qarashlar tizimiga bevosita va bilvosita bog'liqdir.

Pedagogikaning **psixologiya** bilan aloqadorligi an'anaviy bo'lib, shaxs rivojlanishi va kamoloti ikkala fan uchun ham umumiyo'rganish ob'ekti hisoblanadi. Barcha mashhur pedagoglar inson tabiatining xususiyatlarini, tabiiy ehtiyojlari va imkoniyatlarini tushunishda hamda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda shaxsning ruhiy (psixik) faoliyati, rivojlanishi va kamol topishi qonunlarini inobatga olish shart, deb hisoblaganlar.

Inson kamolotida tabiiy va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi va nisbati pedagogikaning markaziy muammolaridan biriga aylangan. Bu masala odamning tabiiy, o'ziga xos tarzda rivojlanishini o'rganuvchi **biologiya** uchun ham g'oyat muhimdir. Shuningdek, pedagogika biologiyaning muhim tarmog'i – odam organizmi faoliyati haqidagi fan - **fiziologiya** bilan mustahkam bog'langan. Zero, ta'lim oluvchilarning jismoniy va psixik (ruhiy) rivojlanishini boshqarish mexanizmlarini tushunish uchun eng avvalo odam organizmining, ayrim a'zolari va tizimlarining faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini bilish talab etiladi. Oliy asab tizimi qonuniyatlarini bilish shaxsni eng maqbul kamol toptirishga imkon beruvchi rivojlantiruvchi va o'rgatuvchi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Pedagogika odamni tabiiy-biologik va ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatida o'rganar ekan, inson haqidagi bilimlarni umumlashtiruvchi **antropologiya** fanining imkoniyatlariga tayanadi.

Pedagogikaning **tibbiyat** bilan aloqasi tufayli rivojlanishida tug'ma va orttirilgan og'ishlar bo'lган nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berish masalasini o'rganuvchi korreksion (maxsus) pedagogika vujudga kelgan.

Pedagogikaning **sotsiologiya** bilan bog'liqligi ta'lim-tarbiya ishlarini rejorashtirishda, aholining u yoki bu guruhlari yoki qatlamlari rivojlanishining asosiy yo'naliishlarini hamda shaxsni ijtimoiylashtirish qonu-niyatlarini aniqlashda namoyon bo'ladi. Sotsiologik tadqiqotlarning natijalari pedagogik hodisalarni baholashga yordam beradi


Pedagogikaning *siyosatshunoslik* bilan bog‘liqligi shu bilan shartlanganki, ta’lim-tarbiya siyosati hamisha jamiyatda hukmron bo‘lgan mafkuraning ifodasi hisoblanadi.

Pedagogika bilan *iqtisodiy fanlar* o‘rtasidagi munosabat birmuncha murakkab. Iqtisodiy siyosat hamisha jamiyatning o‘qimishlilik darajasini yuksaltirish sharti bo‘lib kelgan. Pedagogikaning rivojlanishida bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiy rag‘batlanirish muhim omil sanaladi. Bu fanlarning o‘zaro aloqadorligi ta’lim va tarbiya sohasida iqtisodiy qonunlar qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadigan ta’lim-tarbiya iqtisodiyoti kabi bilim sohasining ajralib chiqishiga olib kelgan.

Pedagogika bilan *matematika* va *kibernetika* o‘rtasidagi bog‘liqlik (ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, avtomatlashtirish nazariyasi) zamonaviy pedagogik muammolarni mazkur fanlar yordamida hal etishda o‘z ak-sini topadi (masalan, ta’lim jarayonini modellashtirish, dasturlashtirilgan ta’lim va h.k.).

Shuningdek, *adabiyot*, *tarix*, *geografiya*, *ekologiya* kabi fanlar ham pedagogika bilan bevosita va bilvosita bog‘langan.

Bugungi kunda pedagogikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasi jaryonida quyidagi *zamonaviy tarmoqlari* jadal rivojlanmoqda (3.4-rasm):



3.4-rasm. Pedagogikaning zamonaviy tarmoqlari

- *pedagogik aksiologiya* (ma’rifiy qadriyatlarni insonning o‘zini-o‘zi qadrlashi nuqtai nazaridan qarab chiqadi va unga tayangan holda ma’rifatga qadriyatli yondashuvni amalga oshiradi, shuningdek ma’rifiy qadriyatlarni, ularning tabiatini, vazifalari va o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi);

- *pedagogik akmeologiya* (o‘qituvchi kasbiy mahoratining qirralari va darajalarini, shuningdek shaxsiy va kasbiy barkamollik (etuklik) cho‘qqilariga chiqish shart-sharoitlari va qonuniyatlarini o‘rganadi);

- ***pedagogik innovatika*** (pedagogik innovatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganadi, shuningdek pedagogik an’analar bilan istiqboldagi ma’rifiy loyihalarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi);
- ***neyropedagogika*** (oliy asab tizimi tashkil etilishining individual xususiyatlari haqidagi bilimlardan foydalangan holda amaliy pedagogik vazifalarni eng maqbul tarzda ijodiy hal etish masalasini o‘rganadi);
- ***pedagogik kvalimetriya*** (pedagogik faoliyat va pedagogik innovatsiyalar sifatini miqdoriy baholash metodologiyasi va muammolarini o‘rganadi);
- ***badiiy pedagogika - artpedagogika*** (pedagogika va san’atning birlashuviga asoslangan holda san’at vositasida shaxsni rivojlantirish va kamol toptirish qonuniyatlarini o‘rganadi va uning musiqiy pedagogika, teatr pedagogika kabi yo‘nalishlari farqlanadi);
- ***ekologik pedagogika*** (ekologik dunyoqarashi, ekologik ongi va madaniya-ti bilan ajralib turadigan ekologik shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini o‘rganadi);
- ***muzey pedagogikasi*** (muzeylar tarixi, madaniy-ma’rifiy faoliyati, ularning turli toifadagi tashrif qiluvchilarga ta’sir ko‘rsatish metodlari, muzeylarning ta’lim-tarbiya muassasalari bilan o‘zaro aloqasi kabi masalalarni o‘rganadi).

#### **4. Pedagogikadagi metodologik yondashuvlar hamda ta’lim va tarbiya strategiyalarini belgilovchi printsiplar**

“***Metodologiya***” (yunoncha methodos – tadqiqot yoki bilish yo‘li, logos – tushuncha) termini ilmiy lug‘at tarkibida bir necha ma’nolarda qo‘llaniladi:

- 1) ***metodologiya*** – bilishning ilmiy metodlari haqidagi ta’limot;
- 2) ***metodologiya*** – biror-bir fanda qo‘llaniladigan metodlar majmui;
- 3) ***metodologiya*** – nazariy va amaliy faoliyat tuzilmasi, uning tashkil etilish tamoyillari va uslublari tizimi.

Metodologiyaning ikki pog‘onasi farqlanadi:

*I pog‘ona* – amaliy faoliyat darajasi;

*II pog‘ona* - ilm-fan darajasi.

Metodologiya o‘zining ***I pog‘onasida*** faoliyat tuzilmasi, uning mantiqiy tashkil etilishi, metodlari va vositalari haqidagi ta’limot sifatida namoyon bo‘ladi, ***II pog‘onasida*** ilmiy bilishni tashkil etish tamoyillari, shakllari va metodlari haqidagi ta’limot sifatida qarab chiqiladi.

***Pedagogika fani metodologiyasi*** – 1) pedagogik voqelikni bilish va qayta o‘zgartirish tamoyillari, metodlari, shakllari va chora-tadbirlari haqidagi ta’limot; 2) voqelikni pedagogik bilish va qayta o‘zgartirish haqidagi nazariy qoidalar majmui. Keltirilgan ta’riflarda pedagogik voqelikni bilish vositalari bilan uni qayta o‘zgartirish texnologiyalarining uyg‘unlashuvi o‘z aksini topadi.

Pedagogika fanida ham boshqa fanlar kabi metodologiyalarning bir-biriga pog‘onali (bosqichli) bo‘ysunishi mavjud (3.5-rasm):

1) *umumilmiy metodologiya* - materialistik dialektika, bilish nazariyasi, mantiq;

2) *xususiy-ilmiy metodologiya* – pedagogika yoki boshqa fanlar metodologiyasi;

3) *mavzuiy metodologiya* – masalan, pedagogikada didaktika metodologiyasi, ta’lim mazmunini tanlash metodologiyasi, biologiya o‘qituvchilarining malakasini oshirish metodologiyasi va sh.k.

***Pedagogika metodologiyasining funksiyalari (vazifalari):***

1) *gnoseologik (bilish) funksiyasi* – ushbu funksianing amalga oshishi o‘rganilayotgan pedagogik hodisalar va jarayonlarning tavsifi (nimadan iborat?), *sababi* (nima uchun shunday?) va *oqibati* (nima bo‘ladi?) qandayligini ta’minlaydi;

2) *prakseologik (qayta o‘zgartirish) funksiyasi* – maqsadlarni belgilash va qo‘yilgan ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy) maqsadlarga erishish yo‘llari, usullari va texnologiyalarining konstruktiv (amaliy) tavsifini hamda natijalarning pedagogik amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlaydi. Mazkur funksianing amalga oshishi pedagogikani tatbiqiy fanga aylantiradi va uning amaliy ahamiyatini ochib beradi;

3) *aksiologik (baholash) funksiyasi yoki pedagogika fanining rivojlanishini tekshirish funksiyasi* – ushbu funksianing amalga oshishi pedagogik modellar, qayta o‘zgartirishlar, innovatsiyalar va shu kabilarni baholash tizimi va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishga imkon beradi;

4) *refleksiv (tahlil) funksiyasi* – pedagogika fani taraqqiyoti natijalarini tahlil qilish va tushunishga, pedagogik tadqiqot metodlari tizimini takomillashtirishga, ya’ni pedagogika fanining o‘zini o‘rganishga qaratilgan;

5) *me’yoriy (ko‘rsatmali) funksiyasi* – “nima qanday bo‘lishi kerak”ligini ko‘rsatadi;

6) *evristik (ijodiy) funksiyasi* – nazariy va amaliy muammolarni shakllantirish va ularning yechimlarini izlashdan iborat bo‘lib, pedagogikaning fan sifatida funksiyalari amalga oshiriladi.

Shunday qilib, *pedagogika metodologiyasining umumiy vazifalari* quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) pedagogika predmetini va uning boshqa fanlar orasida tutgan o‘rnini aniqlash;


2) pedagogik tadqiqot muammolari majmuini aniqlash;

3) pedagogik voqelik haqidagi bilimlarni axtarib (izlab) topish tamoyillari va usullarini, ularni qayta o‘zgartirish va sharhlash (izohlash) metodlarini aniqlash;

4) pedagogik nazariyaning tuzilmasi, vujudga kelishi va rivojlanishi usullarini o‘rganish;

5) fan va amaliyotning bir-biriga samarali ta’sir ko‘rsatishi shart-sharoitlarini aniqlash, fan yutuqlarini pedagogik amaliyotga joriy etishning asosiy yo‘llarini topish;

6) pedagogik konsepsiyalarni tahlil qilish va tekshirish.



3.5-rasm. Pedagogika metodologiyasining funksiyalari va asosiy metodologik yondashuvlar

Pedagogika fanlari taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri *fan metodologiyasi* bilan *amaliyot metodologiyasi* o‘zaro bog‘liq holda uzviy rivojlanishi hisoblanadi. Zero, *fan metodologiyasi* amaliyotchi pedagoglar uchun pedagogik vazifalarni hal etish shart-sharoitlari, yo‘lyo‘riqlari va usullarini aniqlab beradi, *amaliyot metodologiyasi* pedagog olimlarni metodologik majmularning maqsadga muvofiqligi, pedagogik voqelikni qay-ta o‘zgartirish texnologiyalari haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.

Pedagogikada fan va amaliyot metodologiyalarining o‘zaro shartlanganligi ilmiy-amaliy muammolar yechimini nazariy-tatbiqiylarini minlashga hamda istalgan nazariy va amaliy pedagogik tadqiqotning metodologik majmui-ni ishlab chiqishga imkon beradi. Fan va amaliyot metodologiyasining o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishi pedagogik amaliyotga *innovatsiyalarni* joriy etish imkoniyatini yaratadi.

### ***Pedagogikadagi asosiy metodologik yondashuvlar* (2.10-rasm):**

1) *tizimli yondashuv* – murakkab pedagogik ob’ektlarni yaxlit tadqiq etishda foydalaniladi va o‘zaro bog‘liq quyidagi tarkibiy qismlar tizimini ifodalaydi: a) pedagogik jarayonning maqsadi; b) o‘qituvchi faoliyati; v) pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari, shakllari va vositalari; g) o‘quvchi faoliyati; d) pedagogik jarayonning natijasi. Pedagogik ob’ektni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganish ob’ektning ichki va tashqi aloqalari va bog‘lanishlarini tahlil qilishni, uning barcha tarkibiy qismlarini o‘rni va vazifalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqishni anglatadi.

Tizimli yonda-shuvni amalga oshirishning mohiyatini ochib beruvchi asosiy *tamoyillar* quyidagilardan iborat:

- tizim ichidagi har bir tarkibiy qism, xususiyat va munosabatlarning bir butunlik ichida tutgan o‘rni va vazifalariga bog‘liqligini aks ettiruvchi *yaxlitlik tamoyili*;
- tizimni uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar va munosabatlar majmuini ochish orqali tavsiflashga imkon beruvchi *tuzilmaviylik tamoyili*;
- tizimning tashqi va ichki omillari *o‘zaro bog‘liqligi tamoyili*;
- ob’ektni uch jihatdan, ya’ni mustaqil tizim sifatida, yuqori darajali tizimning tarkibiy qismi sifatida, tizimning tarkibiy qismlariga nisbatan yuqori ierarxik darajadagi tizim sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutuvchi *ierarxiya tamoyili*;
- tizimli ob’ektni tavsiflash uchun bir necha modellar yaratish zarurligini anglatadigan *tizim taqdimotining bir talaylik tamoyili*;
- tizimni va uning tarkibiy qismlarini nafaqat statik (turg‘un), balki dinamik (o‘zgaruvchan) tizim sifatida o‘rganishni talab qiluvchi *tarixiylik tamoyili*.

*Tizimli yondashuvning asosiy vazifasi* – pedagogik jarayonda barcha tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olishdan iborat;

2) *shaxsiyatli yondashuv* – odamning shaxs sifatida ijtimoiy faol va ijodiy mohiyati haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradi va shaxsni ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli, madaniyat sohibi sifatida e’tirof qiladi. Shax-siyatli

yondashish pedagogik jarayon tuzilmasida, uni amalga oshirishda *shaxsga mo‘jal* olishni ifodalaydi. Bu tamoyil shaxsning beqiyosligini, uning aqliy-axloqiy erkinligini, hurmatga loyiqligini talab etadi. *Asosiy vazifasi* - pedagogik jarayonda shaxs iqtidorining tabiiy rivojlanishiga, uning ijodiy imkoniyatlariga tayanish va buning uchun tegishli shart-sharoitlar yara-tib berishdan iborat;

3) *faoliyatli yondashuv* – faoliyat shaxs kamolotining asosi, vositasi va omili hisoblanadi. Bu dalil pedagogika fani va amaliyotiga shaxs faoliyati nuqtai nazaridan yondashish zaruratini keltirib chiqaradi. Faoliyatli yondashish tatqiq etilayotgan ob‘ektni faoliyat tizimi doirasida qarab chiqishni nazarda tutadi. Faoliyat - shaxsning o‘z-o‘ziga va olamga bo‘lgan munosabatida o‘z ifodasini topadigan faollik shaklidir. Faoliyat - odam va jamiyatning mavjudlik, rivojlanish usuli bo‘lib, tabiat va ijtimoiy voqelikni, xusu-san, odamni qayta o‘zgartiruvchi ko‘p jihatli jarayondir. Odamni qayta o‘zgar-tirish uchun uning hatti-harakati va faoliyati mo‘ljallarini o‘zgartirish zarur bo‘ladi. Xusan, o‘qish, o‘yin, muloqot, mehnat faoliyati bola shaxsini shakllantirish va kamol toptirishning eng muhim omillari hisoblanadi. *Asosiy vazifasi* – pedagogik jarayonda maqsadga muvofiq faoliyat turlarini tanlash va ularning samarali tashkil etilishini ta’minlashdan iborat;

4) *dialogik (muloqotli) yondashuv* – shaxs – jamoaviy, birgalikdagi o‘zaro faoliyatga bo‘lgan ehtiyojlar asosida kishilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar o‘rnatalishi va rivojlanishi jarayonining mahsuli va natijasidir. Shu sababli shaxs ijtimoiy guruhlar o‘zaro aloqadorligining sub’ekti (so-hibi) sifatida o‘ziga xos munosabatlar tizimida qarab chiqiladi. *Asosiy vazifasi* – pedagogik jarayonda insoniy munosabatlarga imkoniyat yaratish, jamoa ruhiyatini tartibga solish, sub’ektlarning psixologik-pedagogik birligini ta’minlashdan iborat;

5) *aksiologik (qadriyatli) yondashuv* – nazariya va amaliyot o‘rtasida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini o‘taydi, ya’ni bilishning amaliy va mavhum-nazariy darajalari bilan atrofdagi olamga (jamiyatga, tabiatga, madaniyatga, o‘z-o‘ziga) munosabat o‘rtasidagi aloqa mexanizmi vazifasini bajaradi. Mazkur yondashish insonning hayotiy qadriyatlari, ta’lim-tarbiya va pedagogik faoliyat jamiyatda haqiqatan tan olinishi va amalga oshishini ifodalaydi. *Asosiy vazifasi* – pedagogik jarayonda insoniy qadriyatlarga asoslangan ta’lim-tarbiya amaliyotini takomillashtirish va shu asosda pedagogika fanlarini rivojlantirish;

6) *madaniyatshunoslik yondashuvi* – qadriyatlar haqidagi ta’limotga asoslanadi va odamning madaniyat bilan ob‘ektiv munosabatini ifodalaydi. Har qanday odam muayyan madaniyatning bir qismini o‘zida saqlaydi. U o‘zi o‘z-lashtirgan madaniyat asosida nafaqat rivojlanadi, balki unga yangiliklar ham kiritadi, ya’ni madaniyat ijodkoriga aylanadi. *Asosiy vazifasi* – pedagogik jarayonda madaniy oqimning ishtirok etishini ta’minlash, madaniy ijodkorlikni faollashtirishdan iborat;

7) *antropologik yondashuv* – pedagogik jarayon tuzilmasi va uni amalga oshirishda inson haqidagi fanlar ma’lumotlaridan tizimli foydalanish. *Asosiy vazifasi* – odamning barcha jihatlari va munosabatlarini majmuiy bilish asosida pedagogik jarayonni tashkil etish;

8) *etnopedagogik yondashuv* - pedagogik jarayonni milliy an'analar, urfodatlar va madaniyatga tayangan holda tashkil etish va amalga oshirish. Bola shaxsi milliy madaniy muhitda o'sadi va shakllanadi. *Asosiy vazifasi* – pedagogik jarayonda milliy-madaniy muhitni o'rganish va shakllantirish, uning tarbiyaviy imkoniyatidan to'liq foydalanish.

Pedagogikaning yuqorida qayd etilgan metodologik tamoyillari, *birinchidan*, soxta, yuzaki bo'lmanan haqiqiy muammolarni ajratib olishga va ularni hal etish rejasи hamda usullarini belgilashga, *ikkinchidan*, ta'limtarbiyaning eng dolzarb muammolarini yaxlit va dialektik birlikda tahlil qilishga, ularning bir-biriga bosqichli bo'ysunishini aniqlashga, *uchinchidan*, metodologik tamoyillarga oid ma'lumotlar ob'ektiv bilimlar olishga, pedagogik yakka hokimlik qoliplaridan qutulishga imkon beradi.

## 5. Pedagogika fani va pedagogik amaliyot metodologiyasi

**Pedagogika** – ajoyib va ratsional fan. U haqiqat izlab, uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan va ilmiy asoslangan bilimlar tizimi – **fanga**, amaliyotda esa insoniyatning ko'plab avlodlarini shakllantirish (ta'lim berish, tarbiyalash) vositasi - **san'atga** aylangan. Nazariya va amaliyotning o'zaro ijodiy aloqasi pedagogikani ham fanga, ham san'atga aylantirgan. Shu sababli u ba'zan "fan", ba'zida "san'at" sifatida ta'riflanadi.

Pedagogika "fan" sifatida o'z ilmi, qonunlari va qonuniyatlarini hamda nazariyasiga ega bo'lganligi uchun uni faqat "san'at" deb hisoblash mumkin emas. Agar pedagogika faqat "san'at" deb hisoblanadigan bo'lsa, u o'quv-tarbiya jarayoni mantig'iga ta'sir ko'rsata olmaydigan oddiy maslahatlar, qoidalar va tavsiyalar majmuidan iborat bo'lib qolardi, xolos. Pedagogika "fan" sifatida o'z predmetini ob'ektiv ilmiy metodlar bilan bilish mantig'ini va ilmiy nazariyaning tizimli yondashuviga asoslangan barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga olishi kerak. Shu nuqtai nazardan pedagogika fanida:

- 1) o'rganish predmeti aniq ifodalangan, ajratib ko'rsatilgan va belgilangan;
- 2) ob'ektiv tadqiqot metodlari qo'llaniladi;
- 3) o'rganish predmetini tashkil etuvchi omillar va jarayonlar o'rtasidagi ob'ektiv aloqalar (qonunlar va qonuniyatlar) aniqlangan;
- 4) mavjud qonunlar va qonuniyatlar o'rganilayotgan jarayonlarning kelgusi rivojlanishini oldindan aytishga imkon beradi.

Bugungi kunda pedagogikada o'rnatilgan ilmiy tartibotni hech kim inkor eta olmaydi. Zero, **pedagogik ilmiy nazariyada bashorat qilish (oldindan aytish) va foyda (samara) ko'rish maqsadlari borki, bashorat qilish – nazariya masalasi, foyda ko'rish – amaliyot masalasi hisoblanadi**. Demak, pedagogika fani ma'rifat (ta'lim, tarbiya) va inson kamoloti qonunlarini bilishga va shu asosda pedagogik amaliyotga maqsadga erishishning eng sara yo'llari va usullarini ko'rsatishga da'vat etilgan. Pedagogika nazariyasi pedagogik (didaktik) qonunlar, qonuniyatlar va tamoyillar bilan birgalikda pedagogik

amaliyotga aniq tavsiyalarni (texnologiyalar, metodlar, usullar, shakllar va h.k.) ham o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining asl mahorati uning yuksak tarbiyalash san’ati ilmiy pedagogik bilimlarga muntazam tayanishiga asoslanadi. Biroq pedagogika fanining taraqqiy etishi o‘z-o‘zidan ta’lim-tarbiya sifatini taminlamaydi, eng muhim, pedagogik nazariyadan amaliy texnologiyalarga o‘tishni ta’minlashdan iboratdir. Pedagogik tafakkurning texnologik mantig’ini egallash har bir pedagog oldida turgan eng muhim vazifaga aylangan. Bu shu bilan izohlanadiki, zamonaviy pedagogika o‘z taraqqiyotida borgan sari texnologiyalashib bormoqda. Tashabbuskor-amaliyotchilarning turli xildagi pedagogik tajribalari ta’lim va tarbiyaning samarali texnologiyalari ishlab chiqilganligiga dalil bo‘lib xizmat qiladi, bu esa texnologik tafakkurning o‘zlashtirilishini talab etadi. Shu sababli pedagogik nazariya bilan pedagogik amaliyot o‘rtasidagi uzilishni bartaraf etish eng muhim vazifalardan biri sanaladi.


Pedagogika fanlarining faoliyati va rivojlanishi davlat me’yorlari, iqtisodiy shart-sharoitlar, tadqiqotchilarning tegishli soni, ilmiy-pedagogik muassasalar tarmog’i (pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti, oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy-pedagogik laboratoriylar, katta ilmiy xodim - izlanuvchilar instituti), axborot ta’minoti va xalqaro pedagogik aloqalar bilan tartibga solinadi.

Pedagogika taraqqiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri fan metodologiyasi bilan amaliyot metodologiyasining o‘zaro bog’liq holda rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Buning ma’nosi shundaki, **fan metodologiyasi** - amaliyotchi pedagoglar uchun pedagogik vazifalarni hal etish shart-sharoitlari, yo‘l-yo‘riqlari va usullarini aniqlab beradi, **amaliyot metodologiyasi** - pedagog olimlarni metodologik majmularning maqsadga muvofiqligi va pedagogik voqelikni qayta o‘zgartirish texnologiyalari haqidagi ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.

Fan va amaliyot metodologiyalarining o‘zaro shartlanganligi ilmiy-amaliy muammolarning hal etilishini nazariy-tatbiqiy ta’minlashga hamda istalgan nazariy va amaliy pedagogik tadqiqotning metodologik majmuuni ishlab chiqishga imkon beradi. Fan va amaliyot metodologiyasining o‘zaro bog’liq holda rivojlanishi pedagogik amaliyotga innovatsiyalarni joriy etishga imkon beradi.

## 5. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tizimi

Pedagogik voqelikdagi hodisalar va jarayonlarni o‘rganish, pedagogik qonun va qonuniyatlarni aniqlash zaruriyati *ilmiy pedagogik tadqiqotlar* o‘tkazish ehtiyojini yuzaga keltiradi. *Ilmiy pedagogik tadqiqot* – yangi pedagogik bilimlarni shakllantirish jarayoni; ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining ob’ektiv qonuniyatlarini ochishga yo‘naltirilgan bilish faoliyatining bir turi. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarda qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq fundamental, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalar farqlanadi (3.6-rasm).



3.6-rasm. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning turlari

**Fundamental (muhim) tadqiqotlar** - ma'rifiy (ta'lim, tarbiya va sh.k.) jarayonlarning qonuniyatlarini ochib beradigan, ilmiy bilimlarni chuqurlash-tirishga, fan metodologiyasini rivojlantirishga, uning yangi sohalarini ochishga yo'naltirilgan va bevosita amaliy maqsadlarni ko'zlamaydigan tadqiqotlardir.

**Amaliy tadqiqotlar** - ta'lim va tarbiya mazmunini shakllantirish hamda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy muammolarni hal qiladigan tadqiqotlardir. Amaliy tadqiqotlar fan va amaliyotni, fundamental va tadqiqotlar va ishlanmalarni bir-biriga bog'laydi.

**Ishlanmalar** – ta'lim va tarbiya, o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari va metodlari, shuningdek ma'rifiy tizimlarni boshqarish bo'yicha dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, o'quv-metodik tavsiyalar yaratishga qaratilgan tadqiqotlardir.

Pedagogik jarayonlarning kechishi o'ziga xosligi va noaniqligi bilan ajralib turadi – har bir pedagogik jarayon takrorlanganda avvalgisidan mutlaqo farq qiladi – shuning uchun pedagogikada aniq ilmiy-tajriba o'tkazish deyarli mumkin emas va olingan xulosalar har doim yetarli darajada shartli va nisbiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotning asosiy tarkibiy qismlari:

1) **tadqiqot mavzusi** – o'rganilayotgan sohaning qisqa va aniq cheklangan jihat. Mavzu dolzarb bo'lishi, ya'ni uni shakllantirish davrning ob'ektiv talablari bilan belgilanishi va o'rganilayotgan masala bo'yicha fan oldin ishlab chiqilgan javobga ega bo'lmasligi kerak;

2) **tadqiqot ob'ekti** - izlanish doirasi (sohasi). Bu ob'ektlar pedagogik tizimlar, hodisalar, jarayonlar (ma'rifat, ta'lim, tarbiya, shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, kamol topishi va sh.k.) bo'lishi mumkin;


3) **tadqiqot predmeti** – ob'ekt ichidagi izlanish sohasining cheklangan jihat; o'rganilayotgan hodisalar, tarkibiy qismlar, aloqalar va munosabatlar majmuining kechishi yoki amalga oshishi jarayonlari; ob'ektning yechim talab qilayotgan muammosi sohasidagi tarkibiy qismlar va munosabatlar majmui hisoblanadi;

4) *tadqiqot muammosi* – javob berilishi kerak bo‘lgan savol (masala); o‘rganilayotgan hodisada noma’lum bo‘lgan narsani aniq ifoda qilish (ta’riflash);

5) *tadqiqotning maqsadi* – tadqiqotning asosiy g‘oyasi (rejasi, mo‘ljali); tadqiqot yakunida olinishi kerak bo‘lgan ilmiy natija. Sabab-oqibat bog‘lanishlari va qonuniyatlarni ochish, nazariyalar va metodikalar yaratish;

6) *tadqiqotning vazifalari* – tadqiqotning oldindan mo‘ljallangan, cheklangan natijasi (o‘rganish, aniqlash, ochish, umumlashtirish, tajriba-sinov ishida tekshirish va baholash kabilar).

*Pedagogik tadqiqotning bir necha darajasi* farqlanadi (3.7-rasm):



3.7-rasm. **Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning darajalari** rik qonuniyatlar paydo bo‘ladi; amaliy o‘rganish jarayonida olingan pedagogik dalillarni to‘plash, tanlash, taqqoslash, fikran tahlil va sintez qilish, miqdoriy va sifati qayta ishlash kabilalar amalga oshiriladi;

2) *nazariy dariasi* – unda ilgari topilgan dalillarni tushuntirish-ga, bo‘lg‘usi voqealar va dalillarni oldindan bilish va aytishga imkon beruvchi asosiy, umumiyyetli pedagogik qonuniyatlar ilgari suriladi va shakllantiri-ladi;

3) *metodologik dariasi* – empirik va nazariy tadqiqotlar asosida pedagogik hodisalarni o‘rganish va nazariyalar yaratishning umumiyyatini tamoyillari va metodlari shakllantiriladi. Ushbu darajadagi tadqiqotlar *fundamental tadqiqotlar* deb ataladi. Ular tadqiqot sohasiga katta ilmiy hissa qo‘shadi.

#### *Ilmiy pedagogik tadqiqotlar tuzilmasi va mantig‘i:*

**1 bosqich.** Tadqiqot muammosi bilan umumiyyatini tanishish asosida uning dolzarbliji, o‘rganilganlik darjasini asoslanadi; tadqiqot mavzusini, ob’ekti va predmeti aniqlanadi; tadqiqotning umumiyyatini va oraliq maqsadlari, ular bilan bog‘liq vazifalar shakllantiriladi.

**2 bosqich.** Tadqiqotning ilk ilmiy konsepsiyasini (metodologiyasini), uning borishini belgilovchi tayanch nazariy qoidalar va ko‘zda tutilgan natijalar (mo‘ljallar) hamda tadqiqiy yondashuvlar tanlanadi.

**3 bosqich.** Tadqiqotning nazariy tuzilishi va chinligini isbotlashi lozim bo‘lgan amaliy faraz ilgari suriladi.

**4 bosqich.** Tadqiqot metodlari tanlanadi; tadqiqot predmetining dastlabki holatini aniqlash maqsadida ta’kidlovchi ilmiy-tajriba o‘tkaziladi.

**5 bosqich.** Shakllantiruvchi ilmiy-tajriba tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

**6 bosqich.** Tadqiqot natijalari tahlil qilinadi, izohlanadi va rasmiy-lashtiriladi.

**7 bosqich.** Amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik tadqiqotlar o‘ziga xos *metodlardan* foydalangan holda amalga oshiriladi. **Tadqiqot metodi** – bu qo‘yilgan maqsadga erishish yoki ob’ektiv voqelikni bilish usulidir. Tadqiqotchi metodlardan foydalanib, o‘rganilayotgan predmet haqida axborot (ma’lumot) oladi. Har bir fan o‘rganilayotgan hodisalarning xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘z metodlaridan foydalanadi. Pedagogik tadqiqot metodlari quyidagi xususiyatlar bilan shartlanadi:

1) ta’lim va tarbiya natijalari juda ko‘p sabab va sharoitlarning bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatishiga bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik jarayonlarning bir ma’noga ega bo‘lmagan, ya’ni har xil tabiat fanga ma’lum bo‘lgan metodlarni qo‘llash imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli pedagogik tadqiqotlarda *metodlar majmuidan* foydalaniladi;

2) pedagogik jarayonlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Pedagog-tadqiqotchida “toza” tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish imkoniyati yo‘q. Qayta, ikkinchi bor tadqiqot o‘tkazilganda oldingi shart-sharoit va “material”ni asliday qaytarish, ya’ni qanday bo‘lsa, xuddi shunday tiklash hech qachon mumkin bo‘lmaydi;


3) pedagogik tadqiqotda *asosiy tendensiya* e’tiborga olinadi, xulosalar umumlashtirilgan shaklda tuziladi;

4) pedagogik tadqiqotlar bolalarining jismoniy va ruhiy salomatligiga, ularni o‘qitish va tarbiyalash jarayoniga *zarar* yetkazmasdan amalga oshirilishi kerak.

**Pedagogik tadqiqot metodlari** – ta’lim, tarbiya va shaxs kamolotining ob’ektiv qonuniyatlarini bilish, chin, ishonchli bilimlar olish va aniq ilmiy natijalarga erishish usullaridir.

**Pedagogik tadqiqot metodikasi** – pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va boshqarish usullari, ularni qo‘llash tartibi va muayyan ilmiy maqsadga erishishda olingan natijalarni sharhlashning tartibga solingan majmui.

Pedagogik tadqiqot metodlari bir necha guruhlarga bo‘linadi: ilmiy axborotlar bilan ishlash metodlari, umumilmiy metodlar va xususiy-ilmiy metodlar guruhi (3.8-rasm).



3.8-rasm. Ilmiy pedagogik tadqiqot metodlarining guruhlari

**I. Ilmiy axborotlar bilan ishlash metodlari** guruhiba axborotlarni izlash (ma'lumotlarni olish) metodlari, olingan axborotlarni (ma'lumotlarni) qayta ishlash metodlari, ilmiy axborotlarni (ma'lumotlarni) tizimlashirish va saqlash metodlari kiradi.

**1. Axborotlarni izlash metodlari** ilmiy ma'lumotlarni qidirish, ya'ni ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ilmiy ma'lumotlarni izlab topishga yo'naltiriladi. Nashr etib tarqatiladigan monografiyalar, sharhlar (umum-lashtirilgan qisqacha ma'lumot), maqolalar, ma'ruzalar, taqrizlar, ocherklar, avtoreferatlar, referatlar, ma'ruzalar va xabarlar tezislari kabilar *ilmiy asarning* asosiy shakllari hisoblanadi.

Asosiy ilmiy matnlarning qisqa tavsifini ko'rib chiqamiz:

1) **monografiya** – bu bitta yoki bir necha mualliflarning yagona nuqtai nazariga asoslangan ilmiy ishi bo'lib, unda muayyan muammo yoki mavzu to'liq o'rganiladi. Monografiyada muayyan masala bo'yicha adabiyotlar umumlashtiri-lib, tahlil qilinadi va fan rivojiga hissa qo'shadigan yangi farazlar va yechimlar taklif qilinadi. Monografiyada odatda keng qamrovli bibliografik ro'yxat mavjud bo'ladi;

2) **risola** – kichik hajmdagi nodavriy bosma nashr (xalqaro amaliyotda kamida 5 va ko'pi bilan 48 betlik) bo'lib, odatda ilmiy-ommabop xususiyatga ega bo'ladi;

3) **ilmiy ishlar to'plami** – ilmiy muassasalar, jamiyatlar va o'quv yurtlarining tadqiqot materiallarini o'z ichiga olgan to'plam;

4) **maqola** - kichik o'lchamli ilmiy ish (asar) bo'lib, unda muammoning dolzarbliji, nazariy va amaliy ahamiyati o'tkazilgan tadqiqot metodikasi va natijalari bilan birga tavsiflangan holda qarab chiqiladi. Maqolalar asosan jurnallarda chop etiladi;

5) **tezislар** – ilmiy ma'ruba mazmunining qisqa bayoni;

6) **o'quv qo'llanma** – o'quv dasturlarida nazarda tutilgan va darsliklarda bayon etilgan bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va yaxshiroq o'zlashtirishga mo'ljallangan o'quv kitobi; darslikni to'ldiradi yoki uning o'rnini qisman yoki to'liq bosadi.

Kerakli adabiyotlarni izlash uzoq vaqt talab qiladigan ish. Uning ahamiyati juda katta, chunki o'quv-tadqiqiy ishlarning sifati nashr qilingan materialning to'liq o'rganishiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha umumiyligi ma'lumotlarni olgandan so'ng kutubxona kataloglariga kirish mumkin.

**Kutubxona katalogi** – kutubxona yoki axborot markazi fondining tarkibi va mazmunini ochib beruvchi hujjalarga bibliografik yozuvlarning muayyan qoidalarga muvofiq joylashtirilgan to'plami. Kutubxona katalogi kartochkalar yoki kompyuterda o'qiladigan shaklda ishlashi mumkin.

Kataloglarning quyidagi turlari farqlanadi: alifboli, mavzuli, tizimli va yangi adabiyotlar katalogi.

**Alifbo tartibidagi katalogga** kerakli manbaning nomi va muallifining ismi-sharifi ma'lum bo'lsa, murojaat etiladi.

*Mavzuli katalog* – mavzu sarlavhalari alifbo tartibida joylashtirilgan bibliografik yozuvli kutubxona katalogi.

*Tizimli katalogda* kitoblar nomi bo‘limlar sarlavhasi va kichik sarlavhalari bo‘yicha guruhlanadi, biroq sarlavhaning o‘zi, mavzuiy katalogdan farqli o‘laroq, alifbo tartibida emas, balki fanlar tizimi bo‘yicha joylashtiriladi.

Kutubxonada kataloglarni diqqat bilan o‘rganish kerak bo‘ladi. Qisqa va aniq katalog kartochkalarida ko‘p ma’lumotlar bo‘ladi: muallifning familiyasi, kitobning nomi, qo‘sishimcha sarlavha, nashrni tayyorlagan ilmiy muassasa, nashriyot nomi, kitob chop etilgan yil va sahifalar soni. Kerakli manbalar bo‘yicha kartochkalardan nusxa ko‘chiriladi. Shu asosda *bibliografik ro‘yxat* tuziladi.

Bibliografik tavsifni tuzishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1) bir muallifli kitobning bibliografik tavsifi;
- 2) ikki yoki undan ortiq muallifli kitobning bibliografik tavsifi;
- 3) jurnal yoki gazeta maqolalarining bibliografik tavsifi;
- 4) ilmiy ishlar to‘plamlarining bibliografik tavsifi;
- 5) dissertatsiya avtoreferatlarining bibliografik tavsifi.

**2. Ilmiy adabiyotlarni o‘qish.** O‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan muvafqaqiyatli ishslash uchun *o‘qish madaniyatini* egallash kerak bo‘ladi. O‘qish madaniyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘qishning muntazamligi, o‘qish tezligi, o‘qish turlari, axborot-qidiruv tizimlari va kutubxona kataloglari bilan ishslash ko‘nikmasi, o‘qishning maqsadga muvofiqligi, yozuvlarning har xil turlarini yuritish ko‘nikmasi.

Tadqiqotchi uchun *o‘qish maqsadlarini* aniqlash ko‘nikmasi hamda har xil *o‘qish turlarini* egallash juda muhim hisoblanadi.

Quyidagi o‘qish maqsadlari farqlanadi:

- 1) *axborot izlash maqsadi* – kerakli ma’lumotlarni topish;
- 2) *axborotni o‘zlashtirish maqsadi* - topilgan ma’lumot va fikrlar mantig‘ini tushunish, anglash;
- 3) *tahliliy-tanqidiy maqsad* – matnni tushunish va unga o‘zining munosabatini aniqlash;
- 4) *ijodiy maqsad* – ma’lumotni tushunish, anglash asosida uni to‘ldirish va rivojlantirish.

Mutaxassislar ko‘pincha o‘qishning uchta *asosiy turi* haqida gipirishadi:

1) *tanishish (ko‘rib chiqish) uchun o‘qishi* – kitob, maqola bilan oldindan tanishish uchun foydalaniladi. Asosiy vazifasi – kitobda zarur ma’lumotlar mavjudligini (bor-yo‘qligini) aniqlash;

2) *oralatib (tanlab) o‘qish* – agar biron bir ma’lumotni batafsil aniqlash zaruriyati paydo bo‘lsa, ikkinchi bor o‘qish uchun qo‘llaniladi. Bunday holda kitobning (matnning) faqat kerak bo‘lgan qismiga e’tibor qaratiladi;

3) *chuqur o‘qish* – uning asosiy vazifasi o‘qilgan matnni tushunish va eslab qolishdir. Bunda tafsilotlarga e’tibor qaratiladi, ma’lumotlar tahlil etiladi va baholanadi. Bu puxta o‘ylashni talab qiladigan o‘qishning jiddiy turidir.

Samarali o‘qish uchun matnni qarab chiqish, tahlil qilish, faol o‘qish va undagi fikrni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. *O‘qish samaradorligi* materialni o‘zlashtirish darajasi va unga sarflangan vaqt miqdori bilan belgilanadi. Tez o‘qish – tadqiqotchi uchun muhim ko‘nikma. O‘qishning o‘rtacha tezligi minutiga 200-250 so‘zni tashkil etadi. Biroq minutiga 1000-1200 so‘zni o‘qiy oladigan odamlar ham bor. O‘qish tezligini oshirish uchun quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

- 1) talaffuz qilmasdan o‘qish – ichki nutq o‘qish tezligini sezilarli darajada kamaytiradi;
- 2) satr bo‘ylab emas, balki sahifaning o‘rtasiga ko‘zlar bilan sirg‘anib, yuqorida pastga qarab o‘qish;
- 3) so‘zlar bilan emas, balki ko‘rish maydonini kengaytirib, butun satrlar bilan o‘qish;
- 4) o‘qilgan so‘zlar, iboralarga takror qaytmasdan o‘qish;
- 5) diqqat va qiziqish bilan o‘qish.

3. *Olingan ma’lumotlarni qayd etish metodlari.* Axborot (ma’lumot) muayyan doiradagi vazifalarni hal qilish uchun ishlatsa, vaqt va makonda tarqalishi mumkin bo‘lsa, resurs - manbara aylanadi. Boshqacha aytganda, axborot uni tashuvchida (qog‘oz, elektron) qayd etilgan vaqtdan boshlab, resursga (manbara) aylanadi.

Axborot – ma’lumotlarni birlamchi qayd etish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin: kitobda so‘zlarning tagini qizil qalam bilan chizib qo‘yish, kitob xoshiyalariga qalam bilan belgilardan foydalanish mumkin:

- ! - juda muhim;
- ? - shubhali, aniq emas;
- ▼ – asosiy, e’tibor qaratish;
- = - xulosa, yakun, natija;
- █ – ko‘chirib olish va sh.k.

Axborot – ma’lumotlarni yozuvlar: rejalar, tezislar, matnlar ko‘rinishida ham qayd etish mumkin.

*Reja* – qandaydir bayonning (ifodaning) qisqacha dasturi; siqilgan shaklda qisqacha bayon qilingan fikr-sarlavhalar to‘plami matnning ma’noli tuzilmasini anglatadi. Reja – matnning “skeleti” bo‘lib, u materialni taq-dim etish ketma-ketligini ixcham aks ettiradi. Reja shaklidagi yozuvlar o‘qilgan mazmunni xotirada tiklash uchun juda muhimdir.

Reja tuzishdagi hatti-harakatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) matnni ko‘rib chiqish va uni tugallangan ma’noli qismlarga ajratish. Bunda matn paragraflari mo‘ljal bo‘lib xizmat qilishi mumkin, ammo ma’noli qismlar chegaralari har doim ham ular bo‘ylab o‘tmaydi;
- 2) kalit so‘zlar va iboralarga tayangan holda har bir ma’noli qismdagi asosiy fikrni aniqlash va uni shakllantirish;

3) ifoda qilingan iborani (ta’rifni, izohni) aniqlash va ularni ketma-ket yozish. Agar har bir ma’noli qismga savollar qo‘yilib yozilsa, savolli reja paydo bo‘ladi.

*Tezislar* – qandaydir g‘oyani yoki kitobdagagi asosiy fikrlardan birini qamrab oluvchi qoidalar. Tezislar tasdiqlash yoki rad etish shaklida ifodala-nishi mumkin. Tezislar mazmunni olib berish, eslash yoki aytish lozim bo‘lgan narsalarga mo‘ljal olish imkonini beradi.

Tezislar yozishdagi hatti-harakatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) matnning har bir paragrafida ma’noga ega bo‘lgan asosiy jumlalarni ajratib ko‘rsatish;

2) tanlangan jumlalar asosida paragrafdagi asosiy g‘oyani umumiyligi bilan ifodalash;

3) asosiy g‘oyalarni tasniflash va shakllantirish.

*Ko‘chirmalar* – matnning parchasi bo‘lib, kitob yoki jurnaldan biron bir kerakli, muhim joyini ko‘chirib (yozib) olish. Turli manbalardan materiallar to‘plash zaruriyati tug‘ilganda asosan ko‘chirmadan foydalaniladi. Ko‘chirmalar matn to‘liq o‘qilgandan va tushunarli bo‘lgandan keyin olinadi. Ko‘chirmalar so‘zma-so‘z yoki erkin shaklda yozilishi mumkin.

*Matn tuzish (yozish)* – ma’ruza, kitob yoki maqola mazmunining qisqa iz-chil bayoni. Uning asosini reja, tezis va ko‘chirmalar tashkil etadi. Matn, tezislardan farqli o‘laroq, nafaqat asl fikrlarni, balki ular orasidagi bog‘liqlikni ham aks ettiradi. Matnlashtirishning har xil turlari va usullari mavjud. Kitob yoki maqola matnni ketma-ket yozib olish eng keng tarqalgan usullardan biridir. Bunday matnda axborot mantig‘i va hajmi to‘liq bo‘ladi. Matnlar rejali yozilishi ham mumkin.

Matnlashtirishning har qanday turida quyidagilarni unutmaslik kerak:

1) yozuvlar zinch, mayda bo‘lishi, sahifada iloji boricha ko‘proq matn joylashtirilishi kerak, bu uni tahlil qilishda qulaylik tug‘diradi;

2) yozuvlarni qo‘srimcha (kichik) sarlavhalarga, xat (satr) boshiga, oraliq qatorlarga bo‘lish foydali bo‘lib, ular yozuvni tashkil qiladi;

3) bezatish vositalaridan foydalanish kerak (matndagi so‘zlar ostiga chizib qo‘yish, daftar xoshiyasiga belgilar qo‘yish, qonunlar, qonuniyatlar va asosiy tushunchalarni doira ichiga olish, yozayotganda har xil ranglardan foydalanish, turli shriftlarda yozish);

4) matn uchun mo‘ljallangan daftarning betlariini raqamlash va mundarijasini qilish mumkin. Bunday holda zarur ma’lumotlarni tez topish mumkin bo‘ladi.

**4. Axborotni tizimlashtirish va saqlash.** Manbalar bilan ishlashda to‘plangan zarur materiallarni tanlash va saqlash kerak bo‘ladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari ma’lumotlarni tizimlashtirish va saqlashda katta imkoniyatlarga ega. Kompyuterda qoidalardan foydalanib, tadqiqot ishining axborot makonini tashkil etish mumkin.

**II. Umumilmiy metodlar guruhi** quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi (2.14-rasm):

1) **umumnazariy metodlar** - tahlil qilish, sintez qilish, induksiyalash, deduksiyalash, taqqoslash, mavhumlashtirish metodlari;

2) **sotsiologik metodlar** - so‘rovnama, intervyu, reyting metodlari;

3) **ijtimoiy-psixologik metodlar** - sotsiometrik, trening metodlari;

4) **matematik-statistik metodlar** - qayd etish, bo‘ysiralash, shkalalash, taqqoslash metodlari.

### **III. Xususiy-ilmiy metodlar guruhi** quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi (3.9-rasm):

1) **nazariy metodlar** - adabiyotlar va hujjatlarni o‘rganish, tushuncha-terminologiya tizimini tahlil qilish, amaliy faraz tuzish, ilmiy-tajribani fikran shakllantirish, modellashtirish metodlari;

2) **empirik metodlar** - kuzatish, tajribani o‘rganish, suhbat, o‘quvchilar ijodi mahsulini o‘rganish, pedagogik test sinovi, pedagogik konsilium, ilmiy-pedagogik safar, pedagogik ilmiy-tajriba metodlari.

Quyida ayrim *metodlar* tavsifi keltiriladi:

1) **kuzatish** – qandaydir pedagogik hodisani aniq bir maqsadni ko‘zda tutgan holda idrok qilish, o‘zlashtirish. *Kuzatish bosqichlari*: maqsadi va vazifalarini aniqlash (nima uchun kuzatish kerakligi); ob’ektni, predmetni va vaziyatni tanlash (nimani kuzatish kerakligi); kuzatish usulini tanlash (qanday kuzatish kerakligi); kuzatish natijalarini qayd etish usullarini tan-lash (qanday yozib borish kerakligi); olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va izohlash (qanday natija olingenligi);


2) **tajribani o‘rganish** – o‘quv-tarbiya tizimlaridagi umumiyligi, barqaror xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish, tarixiy bog‘lanishlar o‘rnatishga yo‘naltirilgan tashkiliy bilish faoliyat; ijodiy ishlayotgan pedagogik jamoa va ayrim o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish;

3) **o‘quvchilar ijodi mahsulini o‘rganish** (barcha o‘quv fanlari bo‘yicha uy va sinf ishlari, insholar, referatlar). O‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, moyillik va qiziqishlari, o‘qishga, ishga va o‘z burchiga munosabatlari, faoliyat motivlari va boshqa sifatlari o‘quvchilar ijodi mahsulini o‘rganish orqali aniqlanadi;

4) **suhbat** – pedagogik tadqiqotlarning an’anaviy metodi bo‘lib, u orqali shaxsning munosabati, his-tuyg‘usi, o‘y-maqsadi, fikr-bahosi va nuqtai nazari aniqlanadi. Suhbat tadqiqot metodi sifatida tadqiqotchining suhbatdoshi ichki dunyosiga aniq bir maqsad yo‘lida kirishga, uning qandaydir hatti-harakatlari sabablarini aniqlashga urinishini ifodaydi;

5) **intervyu** – suhbatning bir ko‘rinishi bo‘lib, tadqiqotchi oldindan tayyorlangan savollarga tayanib ish tutadi, savollar muayyan ketma-ketlikda berilib, intervyu olinadi;

6) **test** – o‘rganiladigan pedagogik jarayonning tavsifini ob’ektiv o‘lchashga imkon beruvchi, qattiq nazorat sharoitida o‘tkaziladigan, aniq bir maqsadni ko‘zda tutuvchi, barcha sinaluvchilar uchun bir xil bo‘lgan tekshirish. Test tekshirishning boshqa usullaridan aniqligi, soddaligi, hammabopligi, avtomatlashtirish imkoniyati borligi bilan farq qiladi;



3.9-rasm. Umumilmiy, nazariy va empirik metodlar

7) **so‘rovnama** - tadqiqot materialini maxsus ishlab chiqilgan savolnomaga yordamida yalpi yig‘ish metodi. Pedagogik tadqiqotlarda so‘rov varaqasining quyidagi turlari keng qo‘llaniladi: a) mustaqil ravishda javob beriladigan ochiq so‘rovnama; b) tayyor javoblardan bittasi tanlanadigan yopiq so‘rovnama; v) nomi yozilgan (kimgadir mo‘ljallangan) va noma’lum (umumiyl) so‘rovnama; kirish va nazorat qilish so‘rovnomasi;

8) **adabiyotlar va hujjatlarni o‘rganish** – kitob va boshqa nashrlarning tizimli ilmiy tavsifini tuzish, referat yozish, matn tuzish, asarning qisqa mazmunini yozish, matndan parcha olish.

Pedagogik tadqiqotlarda *miqdoriy* metodlardan ham samarali foydalaniadi. *Sifat* – xususiyat, xossalalar majmuini ifodalasa, *miqdor* – kattalik, miqyos, ko‘lamni belgilaydi.

Quyida ayrim *miqdoriy metodlar* tavsifi keltiriladi:

1) **qayd etish** – guruhning har bir a’zosida muayyan sifatning mavjudligini aniqlash va kimda mazkur sifat borligi va yo‘qligini umumiy hisoblab chiqish (masalan, mashg‘ulotda faol yoki sust ishtirok etayotgan o‘quvchilar soni);

2) **bo‘ysiralash (darajali baholash)** – yig‘ilgan ma’lumotlarni muayyan ketma-ketlikda joylashtirish (qaysidir ko‘rsatkichning o‘sishi va kamayishi tartibida) va shunga muvofiq har bir sinaluvchining bu qatordagi o‘rnini aniqlash (masalan, eng yaxshi deb hisoblangan sinfdoshlar ro‘yxatini tuzish);

3) **shkalalash ( o‘sib yoki kamayib boruvchi raqamlash)** – pedagogik hodi-salarning ayrim jihatlarini baholashda raqamli ko‘rsatkichlarni kiritish, tadqiq etilayotgan tavsiflarga ballar yoki boshqa raqamli ko‘rsatkichlarni berish. O‘lchov shkalalarining quyidagi turlari farqlanadi: nomli shkala; tartibli (darajali) shkala; oraliq shkala; munosabatlar shkalasi;

4) **modellashtirish** – xayolda tug‘ilib tavsija etilgan yoki moddiy amalga oshgan tizimning ilmiy andazasi (modeli) bo‘lib, tadqiqot predmetini aynan bir xil aks ettiradi. Modelni o‘rganish bu ob’ekt haqida yangi ma’lumotlar olishga imkon beradi. Modellashtirish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda qo‘llaniladi: bilish faoliyati va o‘quv-tarbiya jarayonini bosh-qarish; ta’lim jarayonini tashxislash, bashoratlash va loyihalash.

**Ilmiy-tajriba metodi** ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari orasida alohida ahamiyat kasb etadi. *Ilmiy-tajriba* – qandaydir ish metodi va uslubini, uning pedagogik samaradorligini aniqlash uchun maxsus tashkil etilgan tekshirish yoki sinovdan o‘tkazish. Ilmiy-tajribada *amaliy faraz* – qandaydir yangidan kiritilgan tartib-qoidaning mumkin bo‘lgan samaradorligi haqidagi taxmin tekshiriladi. Ilmiy-tajriba davomida bir qator *metodlar majmuidan* foydalaniadi.

**Ilmiy-tajriba bosqichlari:**

1) **nazariy bosqich** – muammo qo‘yiladi, tadqiqotning maqsadi, ob’ekti va predmeti, vazifalari va amaliy farazi aniqlanadi;

2) **metodik bosqich** – tadqiqot metodikasi va uning rejasi, dasturi, olingan natijalarni ishslash metodlari ishlab chiqiladi;

3) ***haqiqiy ilmiy-tajriba bosqichi*** – bir qator tajribalar o‘tkaziladi (tajribaviy vaziyat yaratish, kuzatish, tajribani boshqarish va sinaluvchida yaqqol ko‘zga tashlanadigan o‘zgarishlarni o‘lchash).

4) ***tahliliy bosqich*** – olingan dalillarni miqdoriy va sifatiy tahlil qilish, izohlash, xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Ilmiy-tajribada ko‘zlangan maqsadlarga muvofiq uning bir necha ***turlari*** farqlanadi:

1) ***ta’kidlovchi (qayd etuvchi) ilmiy-tajriba*** – mavjud pedagogik hodisa o‘rganiladi;

2) ***tekshiruvchi (aniqlovchi) ilmiy-tajriba*** – muammoni tushunib yetish jarayonida yaratilgan amaliy faraz tekshiriladi;

3) ***shakllantiruvchi (qayta o‘zgartiruvchi) ilmiy-tajriba*** – yangi pedagogik hodisa loyihamidanadi.

O‘tkazilish o‘rniga ko‘ra tabiiy va laboratoriya ilmiy-tajribasi farqlanadi. *Tabiiy ilmiy-tajriba* maktab yoki sinfdagi ta’lim va tarbiyaning tabiiy sharoitida o‘tkaziladi, *laboratoriya ilmiy-tajribasida* o‘quvchilar maxsus guruhlarga (sinflarga) ajratiladi.

Demak, pedagog olimlar va amaliyotchi-pedagoglar o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik – pedagogika fanini innovatsion ilmiy tadqiqotlar orqali muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

## **Nazorat savollari**

1. Inson haqidagi fanlar tizimida pedagogikaning fan va o‘quv fani sifatidagi ahamiyatini aytib bering.

2. Pedagogikaning ob’ekti, predmeti va vazifalarini aytib bering.

3. Pedagogika fanlari tizimi, uning boshqa fanlar bilan integratsiyasini izohlang.

4. Pedagogika metodologiyasi va asosiy metodologik yondashuvlarini aytib bering.

5. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini sanab bering.

6. Pedagogik antropologiya nimani o‘rganadi.

## **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Jumanova F., Avazova S. va boshqalar Umumiyl pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: “Ishonchli hamkor”, 2020 y. -582 b.

2. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.

3. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.

4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, 60 b.

5. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalar, o‘qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o‘quv qo‘llanma)-T.:2013.-279 b
6. Muslimov N.A., M.J.Matalipova, Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil.
7. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
8. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
9. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.–115
10. Kodjapirova, G.M. Pedagogika v sxemax i tablitsax: Uchebnoe posobie. - M.: Prospekt, 2016.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennoego obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.
13. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – T: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

#### **4-ma’ruza: Pedagogika fani va amaliyotini rivojlantirishning innovatsion strategiyalari**

##### **Reja:**

1. Pedagogik kontseptsiyalar, paradigmalar va maqbul ma’rifiy modellar.
2. Pedagogika fanini rivojlantirish omillari va tendensiyalari.
3. Pedagogika fanini rivojlantirishning maxsus strategiyalari: interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, problematizatsiya va refleksiya.
4. Pedagogika fani va amaliyoti integratsiyasi: pedagogik faoliyat; talabalar pedagogik amaliyoti; innovatsion ma’rifiy tashkilotlar va klasterlar muammolari va yechimlari.

**Tayanch iboralar:** konsepsiya; paradigma; model; omil; tendensiya; integratsiya; pedagogik faoliyat; pedagogik amaliyot; strategiya; interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, problematizatsiya i refleksiya.

##### **1. Pedagogik kontseptsiyalar, paradigmalar va eng maqbul ma’rifiy modellar**

**“Konsepsiya”** lotincha so‘z bo‘lib, “tushunish”, “tizim” kabi ma’nolarni anglatadi: biror narsa, hodisa yoki jarayonga qarashlar tizimi; biror narsa, hodisa yoki jarayonning asosiy mohiyati.

**Konsepsiya** – 1) tabiat va jamiyatdagi jarayonlar va narsa-hodisalarga doir qarashlar tizimi; 2) islohot, dastur, loyiha, rejalarini amalga oshirishga doir harakatlar strategiyasi; 3) faoliyat xilma-xil turlarining konstruktiv tamoyili.

Pedagogika fanida *konsepsiya* deganda ta’lim, tarbiya va shaxs kamoloti jarayonlarining mohiyatini yaxlit hodisa sifatida tushunish asosida uni amalga oshirish vositalari tizimini tashkil etish usuli nazarda tutiladi. Konsepsiya da asosiy e’tibor *pedagogik faoliyat strategiyasini* ishlab chiqishning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillariga qaratiladi, ya’ni:

2) *pedagogik konsepsiya* – pedagogik ob’ektlar, pedagogik tamoyillar va metodlar mohiyatini ochib beruvchi yetakchi g‘oyalalar tizimi;

2) *didaktik konsepsiya* – ta’lim jarayonini tushunish, uning yetakchi g‘oyalalarini shakllantirishga imkon beruvchi tizimlashtirilgan nazariya;

3) *o‘qitish va o‘qish konsepiyasi* – o‘quv jarayonining mohiyati, mazmuni, metodikasini tushunishga doir qarashlar tizimi yoki umumlashgan g‘oyalalar yi-g‘indisi.

**Zamonaviy pedagogika** – ma’rifat, ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari va vositalari haqidagi fan bo‘lib, odamning qobiliyati, mustaqil fikr yuritishi va insonparvarligini rivojlantirishda, shaxs kamolotini ta’minlashda pedagogika fanining roli benihoya kattadir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, *falsafiy nazariyalar* ko‘plab pedagogik (didaktik) konsepsiylar va ta’lim-tarbiya tizimlarining asosida yotadi. Tegishli falsafiy yo‘nalishlarga asoslangan *asosiy pedagogik konsepiyalar* sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin (4.1-rasm):



4.1-rasm. Asosiy pedagogik konsepiyalar

**1. Pragmatizm.** Pragmatizm (yunoncha "pragma" – ish) ta’limni hayotga yaqinlashtirish va uning maqsadlariga faqat amaliy faoliyatda erishish mumkin, deb hisoblovchi falsafiy-pedagogik yo‘nalish. Pragmatik falsafa asoschilari Ch. Pirs (1839—1914) va U. Jems (1842—1910) idealizm va materializmdan tashqari yangi falsafa yaratilishini da’vo qilganlar. Ularning g‘oyalarini

amerikalik filosof va pedagog J. Dyui (1859—1952) rivojlantir-gan. U pragmatizm g‘oyalarini *instrumentalizm* deb ataluvchi tizimga kiritgan. Ushbu tizimning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- 1) muktab hayotdan, ta’lim tarbiyadan ajralmasligi kerak;
- 2) o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarining shaxsiy faolligiga tayanish, shu asosda ularni rag‘batlantirish va rivojlantirish (kamol toptirish) lozim.

Pragmatik ta’lim va tarbiya nazariy mavhum shakllarda emas, balki *aniq amaliy ish-vazifalarni bajarish* jarayonida amalga oshiriladi, bunda bolalar nafaqat dunyonи biladi, balki birgalikda ishslash, qiyinchilik va kelishmovchiliklarni birgalikda yengib o‘tishni ham o‘rganadilar. Boshqacha aytganda, *bilimning o‘ziga munosib baho berilmaydi, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga ustunlik beriladi*. Bunday maktabda hayotga yaxshi moslashgan odamlar tarbiyalanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni bolalarning manfaatiga, qiziqishiga asoslanadi: o‘quvchilarga o‘quv fanlarini tanlashda to‘liq erkinlik beriladi, amaliy (foydali) bilimlar o‘rgatiladi.

1960-yillar boshida pragmatizm falsafasi va unga asoslangan pedagogika o‘z mashhurligini yo‘qotgan. J. Dyui g‘oyalariga asoslangan o‘quv-tarbiya jarayonining amaliy yo‘nalishi ta’lim va tarbiya sifatining pasayishiga olib kelgan.

2. **Neopozitivizm.** Ilmiy-texnika inqilobi sharoitida yanada qat’iy va tartibli bilim va xulq-atvorga ega bo‘lgan odamlarga ehtiyoj paydo bo‘lgan. Bu 1970-yillarda *neopragmatizm* bayrog‘i ostida qayta tiklangan klassik pragmatizmning qayta ko‘rib chiqilishi va modernizatsiyasiga olib kelgan.

J. Dyuining metodologik ko‘rsatmalari yangi tamoyillar va tendensiyalar bilan to‘ldirildi: ilm-ma’rifat (ta’lim, tarbiya) – shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni sifatida tushunila boshlandi. Neopragmatik konsepsiya mohiyati *shaxsning ogilona fikrlab, o‘zligini namoyon qilishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashi* bo‘ldi. Bu g‘oyaning tarafdorlari (A. Maslou, A. Kombs, E. Kelli, K. Rodjers, T. Brammeld, S. Xuk va boshq.) ilm-ma’rifat, ya’ni ta’lim va tarbiyaning *shaxsiyatparastlik (individualistik)* yo‘nalishini kuchaytirdi. A. Maslou fikricha, “shaxsning kamol topishi va insonparvarligi manbalari faqat shaxsning o‘zida bo‘ladi: ular jamiyat tomonidan yaratilmaydi. Bog‘bon atirgul butasining o‘sishiga yordam berishi yoki unga to‘sinqilik qilishi mumkin, biroq u atirgulning eman daraxtiga aylanishini ta’minlay olmaydi”. Boshqacha aytganda, neopragmatistlar shaxs o‘z xoxishi va irodasi bilan boshqariladi, deb hisoblashadi. Bu g‘oya bugungi kunda AQSh va G‘arbiy Yevropadagi ba’zi mamlakatlar pedagogikasining yetakchi yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

*Neopozitivizm* – ilmiy-texnika inqilobi natijasida vujudga kelgan hodisalar majmuini tushunishga harakat qiluvchi falsafiy-pedagogik yo‘nalish. Hozirgi *pedagogik neopozitivizm* ko‘pincha “yangi gumanizm” deb nomlanadi. Uning ba’zi yo‘nalishlariga nisbatan «*ssiensizm*» (inglizcha sciense – fan) - “fanshunoslik” termini ham ishlataladi. Yangi gumanizm fanshunosligining ko‘zga ko‘ringan vakillari: P. Xers, J. Vilson, R.S. Pitere, A. Xar-ris, M. Uornok, L. Kolberg va boshq. hisoblanadi.

*Neopozitivizm pedagogikasining asosiy qoidasi: ta’lim-tarbiya dunyoqarashlik g‘oyalardan tozalanishi kerak, chunki ijtimoiy hayot mafkuraga emas, balki “oqilona tafakkurga”ga muhtoj.* Yangi gumanizm tarafdorlari hayotning barcha jahbalarida *adolatni* odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning eng asosiy tamoyili sifatida ko‘rib chiqadi va to‘liq insonparvarlikka asoslangan ta’lim-tarbiya tizimini qo‘llab-quvvatlaydilar: asosiy e’tibor *intellekt* – aqlzakovatni rivojlantirishga, ta’lim-tarbiyaning vazifasi – *oqilona fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga* qaratilishi lozim.

*Ssiensizm* tarafdorlari his-tuyg‘uga emas, balki mantiqqa ishonadilar va shaxs kamolotining bosh mezoni, ya’ni *oqilona tafakkur* yordamida o‘z-o‘zini anglaydi va jamiyatning boshqa a’zolari bilan muloqotga kirishish qobiliyatini namoyon eta oladi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, odam o‘z kamolot yo‘lini o‘zi dasturlaydi. Shu sababli ta’lim-tarbiyada asosiy e’tibor insoniy “Men”ni rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak.

*Neopozitivizm pedagogikasi* samarali g‘oyalardan xoli emas. O‘zbekistondagi ma’rifiy g‘oyalari ta’lim muassasalarini insonparvarlashtirish, davlat vasiyligidan xoli qilish kabi yangilanishlar bilan kechmoqdaki, bular oqilona fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

**3. Ekzistensializm.** Ekzistensializm (yunoncha existencia – mavjudlik) – shaxsni olamdagи eng *oliy qadriyat* sifatida tan oladigan falsafiy yo‘nalish. Insonning “Men” sifatida mavjudligi uning mohiyatini belgilaydi. Har bir inson – o‘ziga xos, takrorlanmas, noyob, boshqalardan farqli. Har bir inson – o‘z axloqining egasi. Havf-xatarga to‘la hozirgi zamonda insoniyat doimiy tahdid ostida: insondagi “Men”ni saqlash, rivojlantirish va amalga oshirish tobora qiyinchilik bilan kechmoqda.

Ekzistensialistlar fikricha, inson hamma joyda va har doim yolg‘iz, yakkalanib qolgan. Jamiyat shaxsning axloqiy mustaqilligiga juda katta zarar yetkazadi, chunki ijtimoiy institutlar shaxsni, uning hatti-harakatlarini bir xil qilishga intiladi. Tarbiya nazariyasi ob’ektiv qonuniyatlarini bilmaydi va u barchaga baravar taalluqlilikni da’vo qiladi. Aslida har bir insonning olamga o‘z sub’ektiv qarashlari mavjud bo‘lib, odam o‘z dunyosini o‘zi xoxlagan tarzda yaratadi. Bu g‘oyalari G‘arbiy Yevropa, Amerika mamlakatlari va Yaponiyadagi ijodiy kasb vakillari orasida keng tarqalgan.

*Ekzistensializm pedagogikasi* xilma-xil yo‘nalishlari bilan ajralib turadi. Ularni pedagogika nazariyasiga, ta’lim-tarbiyaning maqsadlari va imkoniyatiga bo‘lgan umumiy ishonchsizlik birlashtirib turadi. Ta’lim-tarbiya kam yordam beradi: *odam o‘zidan o‘zini yaratadi*. Bu individualizmni keltirib chiqaradi: hech qanday dasturlar kerak emas, ta’lim-tarbiyaning maxsus metodlari va usullarini ixtiro qilishning keragi yo‘q. Hayot, tabiat va ichki his (sezgi) ta’lim-tarbiya oluvchilar va ularning ustozlariga shaxsning o‘zini o‘zi namoyon qilish yo‘llarini adashmasdan aniqlashga yordam beradigan katta kuchdir. Insonning shakllanishi jarayonida ta’lim-tarbiyaning ahamiyatini pasaytirish tendensiyasi ekzistensializm pedagogikasining barcha yo‘nalishlariga xosdir. Ekzistensialistlar fikricha, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi jamoa

uchun ayniqsa zararli bo‘lib, odamni “podadagi hayvon”ga aylantiradi, uning “men” darajasini pasaytiradi, bosib turadi.

Zamonaviy ekzistensializm pedagogikasining eng ko‘zga ko‘ringan vakillari: J. Kneller, K. Gould, E. Breyzax (AQSh), U. Barret (Buyuk Britaniya), M. Marsel (Fransiya), O.F. Bolnov (Germaniya), T. Morita (Yaponiya), A. Falliko (Italiya) va boshqalar ma’rifiy ta’sirlar markazi - odamning kayfiyati, his-tuyg‘ulari, ichki turkisi va sezgisidir; ong, aql va mantiqni ikkinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydilar.

“Odam o‘zligini namoyon etishga, tabiiy individuallik va erkinlik tuyg‘usiga jalb etilishi kerak, - deb yozadi germaniyalik pedagog-ekzistensialist E. Shpranger – yosh insonlarni biznesga, siyosatga jalb etish tez muvaffaqiyat qozonishga olib kelmaydi, aksincha o‘ziga, ya’ni o‘sha sohalarga olib boradigan ichki dunyosining sirli va muqaddas ovozini eshitishga boshlashi kerak”. Bunda ekzistensializm pedagogikasining yana bir – diniy jihatni ko‘zga tashlanadi.

Ekzistensializm pedagogikasi o‘qituvchiga o‘ziga xos mas’uliyat yuklaydi. U erkin fikr muhitini yaratishga g‘amxo‘rlik qilishi, shaxsning erkin fikr bildirish jarayonini cheklamasligi kerak. O‘qituvchi o‘quvchiga o‘ziga qaratish san’atini o‘rgatish orqali uning barqaror “ichki ahloq”qa ega bo‘lishiga yordam beradi. Pedagogik faoliyat qoidalari juda oddiy: *kamroq o‘qitish (o‘rgatish), ko‘proq do‘stona munosabatda bo‘lish; hayotda ma’naviy yordamga muhtojlarga ko‘maklashish; har kimga tabiat bergen qobiliyat darajasiga muvofiq o‘z xoxishi bilan harakat qilish huquqini berish* va sh.k.

**4. Neotomizm.** Neotomizm – katolik dinshunosi Tomas nomi bilan atalgan falsafiy ta’limot. O‘rtta asr aqidaparasti o‘tmish elchisi va kelajak payg‘ambari sifatida ulug‘langan, din esa inson va uning tarbiyasini boshqaradigan abadiy va asosiy falsafa hisoblangan. Neotomistlar ob’ektiv haqiqat borligini tan olishadi, ammo bu voqelikni Xudoning irodasiga bog‘lashadi. Dunyo “ilohiy aql”ning timsolidir, teologiya (ilohiyot) esa ilmning eng oliy darajasidir. Neotomistlar fikricha, dunyoning mohiyati fan tomonidan tu-shunarsiz talqin etiladi. Dunyoning mohiyatini faqat “buyuk aql egasi” – Xudoga murojaat qilish orqali bilish mumkin. Fanga odamni o‘rab turgan moddiy dunyoning bir qismigina ochiqdir. Shu sababli yoshlarni diniy qadriyatlar asosida madaniyat bilan tanishtirish, bunda ta’lim, fan va din o‘zaro aloqador bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi kerak: fanga yer yuzidagi tabiiy hodisalar, dinga tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydigan ruhiy g‘oyalar sohasi berilgan.

Zamonaviy neotomizmning taniqli vakili fransuz faylasufi J. Mariten hisoblanadi. U. Kanningam, U. Makgaken (AQSh), M. Kazotti, M. Stefanini (Italiya), V. fon Lovenix (GFR), R. Livingston (Angliya), Ye. Jilson (Fransiya) neotomizmning taniqli vakillaridir.

Neotomizm pedagogikasining asosiy qoidalari insonning “dual – ikki tomonlama tabiat” bilan belgilanadi. Odam materiya va ruhning birligidan vujudga keladi, shuning uchun ayni paytda ham individ, ham shaxs hisoblanadi. Odam individ sifatida tabiat va jamiyatning barcha qonunlariga bo‘ysunadigan jonli mavjudot, shaxs sifatida o‘lmas ruh – “ilohiy mavjudlik” organiga ega. Fan

- ta'lim-tarbiya maqsadlarini aniqlashga ojizdir. Buni faqat din amalga oshirishi mumkin. Eng muhimi - ruh (jon), demakki, ta'lim-tarbiya ruhiy (ma'naviy) tamoyilga asoslanishi kerak.

Neotomizm pedagogikasi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalash tarafdoi: mehr-oqibat, insonparvarlik, halollik, yaqinlarga muhabbat, fidoiylik va sh.k. Neotomistlar fikricha, umuminsoniy fazilatlar o'zini-o'zi halokatga olib boruvchi sivilizatsiyani saqlab qolishi mumkin. "Odam tabiatiga zid ikki tamoyilga asoslangan dunyo: foyda va manfaatparastlikka intilish - ehtiyoj va quillikni doimiy ko'paytirib boradi" (J. Mariten).

Tarbiyaning maqsadi xristian ahloqidan kelib chiqishi, ya'ni yer yuzidagi odamlarni nasroniy qilish, o'zga dunyoda ularning hayotiga g'amxo'rlik qilish, ruhini (jonini) qutqarish bo'lishi lozim, shuningdek fan o'qituvchilari o'z faoliyatida Xudoni unutmasligi kerak (J. Mariten, U. Makgaken). Katolik maktablari Italiya, Portugalii, Ispaniya, Irlandiya, Belgiya, Fransiya, GFR, Polsha kabi mamlakatlarda mashhurdir.

**5. Bixevoirizm.** Bixevoirizm (inglizcha behavior – xulq-atvor) – texnokratik ta'lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik konsepsiysi bo'lib, u inson haqidagi fanlarning so'nggi yutuqlariga asoslanadi va odamning qiziqishlari, qobiliyatları, xulq-atvorini aniqlashga qodir bo'lgan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanadi.

Klassik bixevoirizm asoschilaridan biri taniqli amerikalik faylasuf va psixolog J. Uotson bo'lib, u *xulq-atvorning (reaksiyaning) qo'zg'ovchiga (rag'batga) bog'liqligi haqidagi holatni S -» R formulasi ko'rinishidagi munosabat* sifatida tasavvur qilgan. Shunday qilib, ta'lim-tarbiyaga tatbiqan bixevoirizmning asosiyligi - *inson hulq-atvori boshqariladigan jarayon* ekanlidir. Bu qo'llaniladigan rag'batlar bilan shartlangan bo'lib, ijobiy isbotni talab qiladi. Muayyan xulq-atvorni keltirib chiqarish, ya'ni muayyan bir ta'lim-tarbiya ta'siriga erishish uchun samarali rag'batlantirishni tanlash va ularni to'g'ri qo'llash kerak bo'ladi.


Psixolog B.F. Skinner hayvonlarga o'rgatish borasida katta yutuqlarga erishgan va odamlarda ham ma'lum bir xulq-atvorni shu bilan hosil qilish mumkin, degan fikrga kelgan: *zarur hatti-harakatlarni shakllantirish uchun "rag'bat – reaksiya - madat" sxemasiga rioya qilishning o'zi kifoya*. Insonning axloqiy fazilatlari: jasorat yoki qo'rkoqlik, jinoyatchilik yoki saxovat bo'ladimi, ularning barchasi holat, rag'bat va madat bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, insonning axloqiy kamoloti uning atrof-muhitga yang yaxshi mos-lashish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bu moslashuv tabiatli tirik organizmlarning tabiatga moslashishidan farq qilmaydi.

B.F. Skinner ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyat "oqilona fikrlash – to'g'ri tafakkur"ga asoslanishi kerak. Texnokratik yo'nalish tarafdozlari fikricha, ta'lim-tarbiya industrial jamiyat talablariga mos bo'lgan idealga mo'ljal olishi lozim. Bixevoirizm tarafdozlari ta'lim-tarbiya jarayoni oqilona algoritmlar bilan boshqariladigan qizg'in aqliy faoliyat muhitini yaratishga qaratilgan, individual

faoliyat rag‘batlantiriladigan, “sanoat odami” fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, deb hisoblaydilar.

**Pedagogik paradigm** – pedagogik (ta’lim, tarbiya) muammolarni hal qilishda namuna (model, strandart) sifatida qo‘llaniladigan, pedagogikaning har bir taraqqiyot bosqichida ilmiy pedagogik jamiyat tomonidan qabul qilingan nazariy, metodologik va boshqa yo‘l-yo‘riqlar majmui (to‘plami).

Ta’limda keng tarqalgan quyidagi beshta paradigma farqlanadi (4.2-rasm):



4.2-rasm. Asosiy pedagogik paradigmalar

1) *an'anaviy-konservativ (bilimga asoslangan) paradigma* - uning bosh maqsadi: istalgancha bilim, bilim va yana bilim; o‘quv dasturlari mazmuni asosan bilim, ko‘nikma va malakalarga yo‘naltiriladi;

2) *fenomenologik (insonparvarlik) paradigma* - uning bosh maqsadi: ta’limni ijtimoiylashtirish, umuminsoniy va milliy madaniyatni shakllantirish, bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik ijodiy rivojlantirish;

3) *ratsionalistik (bixevoiristik) paradigma* - uning bosh maqsadi: yashash muhitiga moslashish uchun «xulq-atvor majmui»ni shakllantirish;

4) *texnokratik (ilmiy-texnik) paradigma* - uning bosh maqsadi: «bilim - kuch», aniq ilmiy-texnik bilimlar tizimi va ularni o‘zlashtirish;

5) *ezoterik («sirli», «yashirin») paradigma* - uning bosh maqsadi: haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin.

Pedagogik konsepsiylar va paradigmalarga muvofiq, keng ma’noda, *ta’limning turli modellari* farqlanadi va ularda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi o‘ziga xos tarzda kechadi. Bugungi kunda ma’rifiy muassasalarda quyidagi *ta’lim modellari* keng tarqalgan (4.3-rasm):

1. **Izohli-ko‘rsatmali ta’lim modeli** - o‘qituvchi bilimlarni padozlangan, “tayyor” ko‘rinishda bayon qiladi, o‘quvchilar ularni o‘zlashtiradi va asliday

qaytaradi. Ko'rsatmalilik asosidagi tushuntirishda o'quvchi faoliyatining yetakchi turi - tinglash va yodda saqlashdan iborat. O'rganilgan mate-riallarni xatosiz aytib berish – mashg'ulot samaradorligining bosh talabi va asosiy mezoni hisoblanadi. Mazkur ta'linda vaqtning tejalishi, o'qituv-chio'quvchi kuchlarining saqlanishi, murakkab tushunchalarni o'zlashtirishning engilligi va pedagogik jarayonni samarali boshqarish ta'minlanadi.

**Afzalligi:** bayondagi batartiblik va vaqtning tejalishi.

**Kamchiligi:** ta'linda shaxsni kamol toptirish vazifasi to'liq amalgamoshmasligi; o'quvchi faoliyatining mahsuldor emasligi; "tayyor" bilimlarning taqdim etilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashdan, o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish imkoniyatlaridan qisman mahrum qilishi.

**2. Muammoli ta'lim modeli** – o'quvchilar amaliy va bilish xususiyatiga ega bo'lgan ijodiy topshiriqlarni yechish jarayoniga muntazam qamrab olinadi. O'qituvchi "tayyor" bilim bermaydi, aksincha o'quvchilar tushuncha va qonuniyatlarni mustaqil izlashga yo'naltiriladi, ya'ni o'quvchi bilimlarni mustaqil izlash, kuzatish, dalillarni tahlil etish va fikrlash faoliyati natijasida o'zlashtiriladi. Mazkur ta'linda o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasi va e'tiqodi birmuncha samarali shakllanadi.

**Afzalligi:** o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, o'qishga qiziqishi va ijodiy kuchlari rivojlanadi.


**Kamchiligi:** o'quv materiallarini hamma vaqt qo'llash mumkin emasligi; o'quvchilarning tayyor emasligi; o'qituvchida mahorat yetishmasligi; ko'p vaqt talab etilishi.

**Muammoli ta'lim texnologiyalari** – ta'lim oluvchilarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlar o'tkazish, amaliy farazlarni ilgari surish, natijalarini asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning quyidagi *shakllari* farqlanadi: muammoli bayon; muammoli ma'ruza; evristik suhbat; muammoli namoyish; izla-nishga asoslangan amaliy mashg'ulot; ijodiy topshiriq; xayoliy muammoli tajriba; amaliy farazlarini shakllantirish; muammoni yechishning optimal variantlarini tanlash; muammoli vazifa; muammoli o'yin.

**3. Rivojlantiruvchi ta'lim modeli** – o'quv jarayoni o'quvchining ichki imkoniyatlariga, ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. O'quvchilarga murakkablashib boruvchi ko'rsatmali, ijodiy topshiriqlar beriladi hamda ular faoliyatning xilma-xil turlariga, didaktik o'yinlarga, bahs-munozaralarga jalb etiladi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida ham bilimlarni, ham hatti-harakat usullarini o'zlashtiradi. Bu - o'quvchini kamolotga eltadi.

**4. Dasturlashtirilgan ta'lim modeli** – o'rganiladigan o'quv materialiga maxsus ishlov berilib, u oson o'zlashtiriladigan kichik miqdorlar – bo'laklarga ajratilib, o'quvchiga taqdim etiladi va uning o'zlashtirilishi tekshirib boriladi. Mazkur ta'limning mohiyati: "taqdim etish – o'zlashtirish – tekshirish" dan iborat bo'ladi. O'rgatuvchi dastur - dasturlashtirilgan ta'limning asosi sifatida o'quv materialari majmui va ular bilan ishslashga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

## TA'LIM MODELLARI



4.3-rasm. Ta'larning turli modellarida “o'qituvchi-o'quvchi” hamkorligi

**Chiziqli o‘rgatuvchi dasturlar** (topshiriq noto‘g‘ri bajarilsa, tegishli o‘quv materiallari qayta takrorlanadi), **ko‘ptarmoqli o‘rgatuvchi dasturlar** (topshiriq noto‘g‘ri bajarilsa, xatoliklar ko‘rsatiladi) va **aralash o‘rgatuvchi dasturlar** (chiziqli va ko‘ptarmoqli o‘rgatuvchi dasturlar majmui) farqlanadi.

**Afzalligi:** kichik miqdorlar - bo‘laklar xatosiz o‘zlashtiriladi va yuqori natijaga ega bo‘linadi; o‘zlashtirish sur’ati o‘quvchi tomonidan tanlanadi: o‘quvchi oldingi materialni o‘zlashtirmasdan, keyingi qadamni bosa olmaydi.

**Kamchiligi:** har qanday o‘quv materialiga “qadam-baqadam” ishlov berib bo‘lmaydi; o‘quvchining mahsuldor muloqoti va aqliy kamol topishi cheklanadi; ta’limda muloqot va his-tuyg‘u yetishmovchiligi ro‘y beradi.

Mazkur ta’limning g‘oyalari yangi ta’lim texnologiyalarini (masalan, modulli ta’lim texnologiya va sh.k.) vujudga keltirgan.

Yuqorida ta’kidlangan ta’lim modellarini o‘quv jarayonida keng foydalaniladigan *didaktik modellar* bilan aralashtirmaslik kerak. Ta’lim jarayonida, tor ma’noda, quyidagi *didaktik* andazalardan keng foydalaniлади:

1. **Tuzilmali modellar** - ta’lim mazmunini aks ettiradi. Ularga xilma-xil tayanch ishorali matnlar, tuzilmali-mantiqiy chizmalar mansubdir.

2. **Funksiyali modellar** – ta’lim jarayonining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi zaruriy aloqadorlikni ochib beradi va o‘quv harakatlarining ketma-ketlik tartibini belgilaydi. Ular yo‘riqnomalar, mashqlar, didaktik vositalar va tuzilmali-mantiqiy chizmalar tarkibiga kiruvchi ayrim axborot to‘plamlari ko‘rinishida bo‘ladi.

3. **Bog‘lanishli modellar** – ta’lim mazmunini tushuntirish funksiyasini bajaradi. Bunday modellar o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi bevosita muloqotni bilvosita muloqotga aylantiradi, o‘quvchilarning bilish jarayonini tartibga soladi, o‘quv ishlari qoidalari yoki amallarini tavsiflaydi.

## 2. Pedagogika fanini rivojlantirish omillari va tendensiyalari

Bugungi kunda uzlucksiz ta’lim tizimi amaliyotida quyidagi ***o‘ziga xos holatlar*** vujudga kelgan:

1) ta’lim-tarbiya resurslari jamiyat ehtiyojlariga mos kelmasligi tufayli shaxsni ijtimoiy hayot va bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatining umumiyl pastligi;

2) ta’lim-tarbiya sifatini nazorat qiluvchi vakolatli tuzilmalarning o‘quv tarbiya muassasalarini litsenziyalash va akkredizatsiya qilishni rasmiy tashkil etish bilan cheklanib, ularning amalda kechayotgan ta’lim jarayonini yetarlicha nazorat qilmasligi;

3) ma’rifiy muassasalar o‘ta jiddiy moliyaviy tanqislik sharoitida ishlashi, ta’lim-tarbiya sohasini tijoratlashtirishning hozirgi holati uni inqirozdan olib chiqsa olmasligi;

4) strategik nuqtai nazardan ta’lim-tarbiya tizimi va jarayonini uning barcha tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning samarali konsepsiysi ishlab chiqilmaganligi, shuningdek ma’rifiy muassasalar faoliyatini

ma'lum bir tarzda tartibga solib turadigan qonun-qoidalar mavjudligi, biroq ta'lim-tarbiya tizimi va jarayonida shakllangan umumiylar qoliplar uning yaxlit rivojlanishiga emas, balki ayrim qismlarining yomonlashuviga olib kelganligi;

5) ma'rifiy muassasalar faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi kuchayganligi, ularning haqiqiy mustaqilligini qat'iy tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar (moliyaviy erkinlik, variativ DTS, o'quv rejalarini va dasturlari va sh.k.) mavjud emasligi;

6) pedagogik va kadrlar tayyorlash siyosatining aniq konsepsiysi to'liq ishlab chiqilmaganligi;

7) ma'rifiy muassasalar (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalari), ayniqla hududiy oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagogik salohiyati pastligi;

8) ta'lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikning kengayishi va yangi ta'lim-tarbiya texnologiyalarining qo'llanilishi va sh.k.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va jarayoni o'tmishdagi faoliyatga emas, balki kelajak faoliyatga yo'naltirilgan bo'lsa, chinakam innovatsion xususiyatga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy pedagogikada, ma'rifiy tizim va jarayonda quyidagi *umumiy taraqqiyot tendensiyalari* kuzatilmoqda:

**1. Ta'lim-tarbiya tizimi va jarayonini demokratlashtirish.** Ta'lim turlari va mazmunini tanlash erkinligi, ularning hammabopligi, ta'lim-tarbiya tizimi va jarayonini boshqarishning demokratik tabiatini va ma'rifiy muassasalar avtonomiyasini.

**2. Ta'lim-tarbiya jarayoni va o'quvchi-talabalar mehnatini individuallashtirish.** Individuallashtirish sinf (auditoriya) mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtini kamaytirish hisobiga o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy ishlari hajmini sezilarli oshirishni nazarda tutadi.

**3. Ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish.** Ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy e'tibor o'quvchi-talaba shaxsiga yo'naltiriladi. O'quvchi-talaba ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat sub'ektiga aylanadi. ularning madaniy dunyoqarashi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar hisobiga kengaytiriladi. Insonparvarlashtirish tushunchasi ostida umumin-soniy qadriyatlarni, inson hayoti va salomatligi, shaxsning erkin kamol topishi tushuniladi. Ijtimoiylashtirish o'quvchi-talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham eng qulay shakllar, metodlar va shart-sharoitlar yaratilishini o'z ichiga oladiki, bunda insoniy munosabatlar, o'zga fikrlarga chidamlilik, jamiyat oldidagi javobgarlik kabilalar shakllantirilishi lozim.

**4. Ta'lim-tarbiya tizimi va jarayonini kompyuterlashtirish.** Kompyuterlashtirish nafaqat hisoblash va grafik ishlar uchun, balki axborot tizimlariga kirish uslubi, shuningdek avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlarni taqdim etish vositasi sifatida test va pedagogik nazorat uchun ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

**5. Ta'lim-tarbiya tizimi va jarayonini fundamentlashtirish.** Bu o'quvchi-talabalarning fundamental (umumilmiy) tayyorgarligini kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Fundamental fanlar bo'lg'usi

mutaxassislarga o‘z sohasida erkin mo‘ljash olishga, to‘plangan yangi materiallarni mustaqil tahlil qilishga, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishining oldini olishga imkon beradi.

Texnologiyalarning tez o‘zgarishi yaxshi fundamental tayyorgarlikni va yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtirish qobiliyatini talab etadiki, bu ishni tor doirada amalga oshirib bo‘lmaydi.

**6. Ta’limiy-tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash**, shu jumladan, tegishli tarmoqlarning yetakchi korxonalariga ta’limiy xizmatlarni taqdim etish. Bu shuni anglatadiki, o‘quvchi-talabalar mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi sherik korxonalarda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**7. Uzluksiz va mustaqil ta’lim-tarbiya olish** o‘quvchi-talabalarning mustaqil ta’lim olish qobiliyati va ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning uzluksiz ta’lim tizimga qo‘shilishi hamda o‘z bilimi, ko‘nikmasi va malakasini doimiy oshirishga imkon beradi. Shuningdek, o‘quvchi-talabalarning amaliy loyihalarga, o‘quv ishlarining jamoaviy shakllariga (hamkorlik, sheriklik va sh.k.) jalb etilishini anglatadi.

Uzluksiz ta’lim va mustaqil ta’lim olishni tashkil etish vazifalari qo‘s Shimcha norasmiy (kurslar, treninglar, qisqa dasturlar, masofaviy ta’lim va sh.k.) va kundalik ta’lim (internet-resurslar, radio, televedenie, gazeta-jurnal, kutubxona va sh.k.) bilan ham hal etilishi mumkin.

**8. Ijodiy o‘quvchi-talaba shaxsini shakllantirish.** Bu o‘quvchi-talabalarda ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirishga imkon beruvchi samarali ta’lim texnologiyalari ishlab chiqilishini taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar ma’rifiy tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari quyidagilardan dalolat bormoqda:

1) ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida aholining ilm-ma’rifatga, ya’ni ma’lumotli, o‘qimishli bo‘lishga ishtyoqi, qiziqishlari muntazam ortib bormoqda;

2) bepul ta’lim-tarbiya beriladigan davlat ma’rifiy muassasalari tarmog‘i kengayib bormoqda;

3) xususiy ma’rifiy muassasalarda pullik ta’lim xizmatini ko‘rsatish tendensiysi saqlanib qolmoqda;

4) davlat byudjeti hisobidan ta’lim tizimini moliyalashtirish hajmi oshib bormoqda;

5) ma’rifiy muassasalar uchun turli manbalardan mablag‘lar to‘planmoqda;

6) ma’rifiy muassasalarni hududiy boshqarish tamoyili kengaymoqda;

7) turli yo‘nalishdagi ma’rifiy muassasalarning tuzilmaviy xilma-xilligi ortib bormoqda;

8) ma’rifiy muassasalarda o‘quvchi-talaba tomonidan tanlab o‘rganiladigan o‘quv fanlarga asosiy e’tibor qaratilmoqda va sh.k.

Yuqorida keltirilgan holatlardan kelib chiqilgan holda *pedagogika fani taraqqiyotiga* ta’sir etuvchi quyidagi omillarni ta’kidlash mumkin:

- matematik-statistik, biopsixologik va gnoseologik fanlar natijalaridan keng foydalanish asosida pedagogikaning insonshunoslik fanlari bilan chuqur aloqalar o‘rnatishi va ilmiy pedagogik bilimlar integratsiyasining kuchayishi;
- dunyonidagi pedagogik anglashning nazariy-fundamental doirasi kengayishi, ya’ni pedagogika fanning ilmiy maqomi va ijtimoiy funksiyasini saqlab qolish, rivojlantirish uchun nazariyadan amaliyatga harakatlanish;
- pedagogik fanlar taraqqiyotini ta’minlashda matematik-statistik va semantik-semasiologik axborot manbalaridan tizimli foydalanishga o‘tilishi;
- ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini uyg‘unlashtirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini boshqarishda ta’lim jarayonini axborotlashtirishga alohida e’tiborning kuchayishi;
- pedagogika fanining o‘ziga qarashli harakatlanish, taraqqiyot yo‘lini saqlab qolishiga erishish va uning boshqa fanlar kategoriyalardan o‘rinsiz foydalanishi hisobiga tushunarsiz murakkablashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- global pedagogik muammolarni hal etish uchun shaxslararo, millatlararo va davlatlararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va ahloqiy me’yorlar to‘liq ta’minlanishiga doir ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ma’rifiy tizimida sodir bo‘layotgan tub innovatsiyalar jarayoni jahon ma’rifiy tizimiga integratsiyalanish va uning rivojlanish tendensiyalariga hamohangligidan darak beradi.

### **3. Pedagogika fanini rivojlantirishning maxsus strategiyalari: interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, problematizatsiya va refleksiya**

Pedagogika fanlari uchun ilmiy bilimlarning umumiyligi va maxsus strategiyalari xosdir. Ilmiy jarayonning axborot konsepsiysi nuqtai nazaridan **fan** – inson tomonidan axborot to‘plash, ularni tahlil qilish va qayta ishslash uchun yaratilgan murakkab dinamik axorot tizimi. Fan quyidagi qonunlar asosida ishlaydi: zamonaviy fanning tezkor harakati (ilmiy bi-limlarning ortishi) va tizimli tabiat.

Ilm-fan amaliyatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirmoqda. Texnologik bilimlar va innovatsion faoliyat tahlil etilmoqda. Umuman olganda, fanning maqsadi sub’ekt ongida ob’ektiv dunyoning aks etishi sifatida qabul qilingan ilmiylikning klassik modelidan bilish vositalarining rolini hisobga oladigan noklassik modeliga, undan esa postklassik modelga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Bu modelda sub’ekt va bilimlarning amaliy yo‘nalganligi, uning foydaliligi hisobga olinadi.


Pedagogika fanini rivojlantirishning maxsus strategiyasiga quyidagilar kiradi: interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, problematizatsiya i refleksiya.

**1. Interiorizatsiya strategiyasi** pedagogika fanini rivojlantirishning madaniy-namunaviy xususiyati bilan bog‘liq. Bu nafaqat ichki mexanizmlarga, balki madaniy, ijtimoiy, sub’ektiv va boshqalarga tayanishni taklif etadi.


Madaniy-namunaviy parcha ilmiy fanga ijtimoiy buyurtmaning uzviy singdirilishi orqali qadriyatli namuna, turli nuqtai nazar va qadriyatlarning bir-birini to‘ldirib mavjud bo‘lishi; pedagogika faniga boshqa fanlarning singishi, fanlararo aloqalarning dolzarblashuvi va madaniyatlararo tadqiqotlar o‘tkazilishi shaklida amalga oshiriladi. Masalan, “O‘qituvchi-larning innovatsiyalarga munosabi”, “Maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar sabablari” va boshqalar.

**2. Eksteriorizatsiya strategiyasi** ilmiy pedagogik bilimlarni amaliyatga, pedagogik faoliyatga jalb qilishni o‘z ichiga olib, pedagogika fanining innovatsion yo‘nalganligini, uning innovatsion sikldagi belgilovchi o‘rnini dastlab nazarda tutadi (4.7-rasm).

**3. Problematizatsiya (muammolashtirish) strategiyasi.** Dissertasiyalar tahlili asosida aniqlandiki, innovatsion oqimlarni quyidagi innovatsion g‘oya - tushuncha mazmunini ifodalovchilar belgilaydi: tayyorlash, tayyorgarlik, kasbiy ta’lim, madaniyat, nuqtai nazar va boshqalar.



“Tayyorlash” innovatsion oqimlarinining innovatsion g‘oya - tushunchalar mazmunini ifodalovchilar bilan bog’liqligini batafsil ko‘rib chiqamiz. Innovatsion oqimning tuzilmaviy formulasi 4.8-rasmda keltirilgan.



#### 4.8-rasm. “Tayyorlash” innovatsion oqimining innovatsion g‘oya - tushunchalar mazmunini ifodalovchilar bilan tuzilmaviy formulasi

1. **Refleksiya strategiyasi.** Fanda ilmiy bilishning turli xil ideallari qo‘llaniladi: tabiiy-ilmiy, gumanitar, texnologik. 4.2-jadvalda ularning mazmuniy xususiyatlari keltirilgan.

4.2-jadval

#### Turli xil ideallarning mazmuniy xususiyatlari

Tabiiy-ilmiy	Gumanitar	Texnologik
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Metafizika va bir-biriga zid hukmlarni rad etish</li> <li>• Ilmiy ishonchlilik</li> <li>• Agar p va q shart-sharoitlari mavjud bo‘lsa, A ob’ekti bilan b, c, d o‘zgarishlari sodir bo‘ladi.</li> <li>• A ob’ektining o‘zgarishi F qonuniga bo‘ysunadi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Voqelikni o‘zi his etishini amalga oshirish</li> <li>• Voqelikni olim va boshqa odamning tutgan o‘rnini hisobga olgan holda tushuntirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Agar A ob’ektiga a, b, c amallari qo‘llanilsa, u holda E ob’yekti olinadi.</li> <li>• C mahsulotini olish uchun A ob’ekti olinishi va unga nisbatan a, b, c amallari bajarilishi kerak</li> </ul>

Pedagogika ijtimoiy-gumanitar fan bo‘lib, bilimlarning gumanitar idealiga yo‘naltirilgan. Bu odamni o‘rganadigan fanlarga xosdir. Biroq keyingi vaqtarda dalillarga asoslangan pedagogikaga murojaat qilish dolzarb bo‘lib qoldi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatdiki, ilmiy ekspertlar jamoasi ko'proq tabiiy-ilmiy bilish idealiga mo'ljal olganlar. Ayni paytda, 13.00.01-ixtisosligida bilishning gumanitar ideali, 13.00.02 ixtisosligida bilishning texnologik ideali ustunlik qiladi.

#### **4. Pedagogika fani va amaliyoti integratsiyasi: pedagogik faoliyat; talabalar pedagogik amaliyoti; innovatsion ma'rifiy tashkilotlar va klasterlar muammolari va yechimlari**

Ma'lumki, pedagogika *fani* va *amaliyoti* o'rtasidagi o'zaro munosabatlар, ularning bir-biriga bog'liqligi pedagogikaning eng umumiy muammolaridan biridir. Bu muammolarning qay tarzda hal etilishi pedagogika fanining rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalarning sifati va ma'rifiy sohani modernizatsiyalash borasidagi yutuqlarga, umuman olganda, yaxlit ma'rifiy tizimning samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Gap nazariya va amaliyot birligi haqida ketmoqdaki, pedagogika fani - *pedagogik bilimlar tizimi*, pedagogik amaliyot - *pedagogik faoliyat* sifatida talqin etiladi.

Pedagogik faoliyatning bir necha turlari farqlanadi:

- 1) amaliy pedagogik faoliyat;
- 2) ma'muriy pedagogik faoliyat;
- 3) ilmiy pedagogik faoliyat;
- 4) pedagogika fani natijalarini amaliyotga o'tkazish faoliyati.

Nazariya va amaliyot birligida *pedagogika fanining holati* ikki taraflamalik (ikkilanish) xususiyatiga ega: bir tomondan, pedagogik va ilmiy faoliyat pedagogikaning teng huquqli, yonma-yon joylashgan turi sifatida namoyon bo'ladi, ikkinchi tomondan – ilmiy bilish pedagogik faoliyat tizimiga kiritilgan va uning amaliy, ma'muriy kabi turlaridan biri sifatida tan olingan. Demak, amaliy va ilmiy pedagogik faoliyat birligi ob'ektiv mavjuddir.

Shu nuqtai nazardan ilmiy pedagogik faoliyatning ob'ekti – bu amaliy pedagogik faoliyat tizimi sifatida talqin etiladigan *ma'rifat* (ta'lim, tarbiya orqali barkamol shaxsni shakllantirish) sohasi hisoblanadi. Amaliy pedagogik faoliyatning maqsadi va natijasi – o'qimishli va tarbiyalangan shaxsni shakllantirish. Pedagogika fanining natijasi esa *pedagogik bilimlar*, ya'ni pedagogik faoliyat qonunlari, tamoyillari va qoidalari hisoblanadi. Demak, *pedagogika nazariyasi* – bu aslida pedagogik amaliyot nazariyasi, aniqrog'i, amaliy pedagogik faoliyat nazariyasidir.

Jamiyatda amaliy pedagogik faoliyat tizimining harakatlanish, o'zgarish sur'atiga sabab bo'ladigan *omillar* muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar si-rasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) jamiyatning rivojlanish tendensiyalari, undagi hayotiy sharoitlar va mafkuraviy mo'ljallarning o'zgarishi;
- 2) ma'rifiy jarayonning maqsadi va natijasi o'rtasidagi tafovutlar (ta'lim-tarbiya maqsadlari o'zgarib, pedagogik tizim eskicha qolganida, ya'ni faoliyat natijalari maqsadlarga mos kelmasligi tufayli paydo bo'ladi);

3) ichki omil - pedagogik nazariya, aniqrog‘i, ma’rifiy sohasidagi nazariy faoliyat rivojlanishining mantig‘i.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yuqorida keltirilgan uchta omil ta’sirida amaliy pedagogik faoliyat mazmuni, shu asosda pedagogika nazariyasi ham tub o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Xususan, ta’lim va tarbiya *maqsadlari* o‘zgardi, *ta’lim (ma’rifiy) texnologiyalar* vujudga keldi. Biroq oxirgi o‘n yillikda boshqa sohalar kabi ma’rifiy sohada ham vu-judga kelgan turlituman muammolar majmui pedagogikaning ildam rivojlanishiga to‘sinqilik qilib, inqirozli holatni boshdan kechirishiga olib keldi.

So‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoev rahbarligida mamlakatda tub islohotlar amalga oshirilib, davlat boshqaruvini tubdan yangilash, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash borasida keng ko‘lamli yangilanish va tashabbuslar boshlandi. Ularni hayotga to‘liq joriy etish ijtimoiy taraqqiyot mas’uliyatini o‘z zimmasiga oladigan vatanparvar, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan iqtidorli va istiqbolli, malakali va raqobatbardosh professional kadrlarga juda katta ehtiyojni vujudga keltirdi. Bu ehtiyoj, birinchi navbatda, jamiyatning ma’rifiy sohasida tub islohotlar boshlanishiga turtki bo‘ldi.

***O‘qituvchilik kasbi*** – O‘zbekiston va dunyodagi eng qadimiy, keng xalq ommasiga xos bo‘lgan va nodir hunarlardan biri. ***O‘qituvchi*** – tarbiyachi-murabbiylik va ustoz-muallimlik ishini bir vaqtning o‘zida amalga oshiradigan mutaxassis pedagog. ***Tarbiyachi-murabbiy*** o‘quvchi-talabaga (boshqa shaxslarga) hayotning mohiyati, uni qanday kechirish, qanaqa yashash, o‘zini qanday tutish ke-rakligi kabilarni o‘rgatib, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, ***ustoz-muallim*** esa insoniyat tomonidan to‘plangan bilim va tajribalarni beradi, yetkazadi va ularning ongiga singdiradi. Pedagogning bu *ikki ishi* hamisha, hamma vaqt saqlanib qoladi, agarda uning ishida yangi mazmun paydo bo‘lsa, pedagogik faoliyatning vazifalari, metodlari va shakllari o‘zgarishi mumkin, xolos

***Pedagogik faoliyat*** – shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirishga yo‘naltirilgan hamda pedagog va ta’lim (tarbiya) oluvchining o‘zaro hamkorligiga asoslangan faoliyat turi. Boshqacha aytganda, ***o‘qituvchi*** – tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, ma’rifiy muassasa yoki tashkilotda pedagogik faoliyat yuritadigan va pedagogik jarayonga rahbarlik qilib, o‘quv, ilmiy, uslubiy hamda tashkiliy ishlarni amalga oshiradigan mutaxassis-pedagog.

O‘qituvchi ***ilm*** va ***amaliyot*** o‘rtasidagi shaxs. U ma’rifiy jarayonning bevosita ijodkori, o‘quvchilar maktabda boshidan kechiradigan o‘quv va tarbiyaviy vaziyatlar yaratuvchisi. Tom ma’noda, ta’lim muassasalarida o‘qituvchi tomonidan vujudga keltiriladigan o‘quv-tarbiya jarayoni pedagogika fanining o‘rganish ob’ekti hisoblanadi. O‘z navbatida, amaliyotchi-o‘qituvchi ijodkorlar – o‘quv adabiyotlari (darsliklar, qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar va sh.k.) mualliflarining sa’y-harakati samarasiga tayanadi. Mustaqil fikrlaydigan o‘qituvchi o‘z faoliyatida fan tomonidan yaratilgan va takomillashtirilgan turli

vositalardan foydalanib, keng ko‘lamli nazariy pedagogik bilimlarni e’tibordan qochirmaydi. Shu bois o‘qituvchi faoliyatining pedagogika faniga munosabati yana bir muhim masala – *o‘qituvchi ijodi manbalari* va uni amalga oshirish sohasi bilan uzviy bog‘langan. Yuqorida aytilganidek, pedagogikaning vazifalaridan biri har bir o‘qituvchiga o‘z faoliyati “rejası”ni asoslash va ishlab chiqishda tavsiyalar, metodik ishlanmalar, turli qo‘llanmalar va sh.k.lar orqali yordam berishdan iborat. Biroq o‘z ishiga mustaqil, ijodiy yondashishga intilayotgan pedagoglar haqida gap ketganda, bunday yordamning chek-chegarasi bormi, degan savol tug‘iladi. Ehtimol, bularning barchasi, ya’ni belgilangan pedagogik me’yorlar ijodkor o‘qituvchining tashabbusiga xalaqit berar, uning dadil qadam tashlashiga yo‘l qo‘ymas?

**Pedagogik manbalar** (“ishlanmalar”) ko‘plab pedagoglar – nazariyotchi va amaliyotchilarining ongi va tajribasini o‘z ichiga oladi va ularda deyarli barcha fan tarmoqlarining natijalari o‘z aksini topadi. Biroq pedagogika fani natijalari o‘qituvchiga faqat *umumiyy*, *o‘rtacha* maqsadga olib boradigan yo‘lni ko‘rsatadi. O‘qituvchi esa hamma vaqt faqat “amalga oshiruvchi”, ijrochi bo‘lib qolishi mumkin emas. Uning vazifasi ushbu manba, natijalardan zaruriyatiga ko‘ra o‘quvchilar bilan ishslashda foydalanishdan iborat.

Pedagogik faoliyat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi uchun o‘qitish materiallari qanchalik to‘liq tuzilmasin, ta’lim va tarbiya metodikasi qanchalik chuqur ishlab chiqilmasin, ishdagi yutuq to‘liq kafolatlanmaydi. Agar o‘qituvchining o‘zi ma’rifiy maqsadlarni tushunmasa, o‘quvchilarining ichki dunyosiga kira olmasa, bularning barchasi pedagogning ongida va ma’rifiy jarayonda “ortiqcha yuk” bo‘lib qoladi. Didaktika, metodika va pedagogik psixologiya bo‘yicha tegishli tayyorgarliksiz eng yaxshi darsliklar, qo‘llanmalar bilan ham muvaffaqiyatlari ishlash mumkin emas. Nazariyani bilish o‘qituvchiga o‘z pedagogik hatti-harakatlari mantig‘i va izchillagini belgilashga, ularni muayyan bir tizimga solishga va kutilgan natijalarni oldindan ko‘rishga yordam beradi.

O‘qituvchi darsdagi barcha pedagogik omillarga e’tibor qaratish, ular haqida o‘ylab ko‘rish uchun har doim ham vaqt va imkoniyatga ega bo‘lmaydi. Unga ko‘pincha yetarli mantiqiy asoslarsiz, ichki pedagogik sezgirlik bilan tezda qaror qabul qilishga to‘g‘ri keladi. **Pedagogik sezgirlik (intuitsiya)** oldindan tajriba to‘planishini, ko‘p sonli dalillarni tushunishni, ya’ni intuitiv ravishda qabul qilingan qarorlarni keyinchalik anglashni nazarda tutadi. Intuitsiya bevosita bilim sifatida ob’ekt bilan o‘zaro munosabatda hosil bo‘ladi. O‘qituvchining intuitiv tajribasi – o‘quvchilar bilan shaxsiy muloqoti tajribasidir. Bu tajribada pedagogik takt, noan’anaviy hatti-harakat va har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish qobiliyati kabi o‘qi-tuvchi shaxsi uchun zarur bo‘lgan sifatlar namoyon bo‘ladi va shakllanadi. Biroq intuitiv tajriba o‘qituvchining o‘ziga cheklangan foyda keltiradi va boshqa-larga juda kam yordam beradi.

Yosh o‘qituvchi tajribalari pedagoglarning **ochiq darslarini** kuzatish orqali pedagogik innovatikaning yangi qirralari haqida tushunchaga ega bo‘lishga va

ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashga harakat qiladi. Deylik, yosh o‘qituvchi qandaydir bir o‘quv fani bo‘yicha ochiq darsda o‘quvchilarining faol ilmiytadqiqiy faoliyatga jalg etilishini o‘rgandi va uni o‘z sinfida takrorlashga qaror qildi, ya’ni o‘z o‘quvchilariga ochiq darsda o‘quvchilar bajargan vazifalarni (topshiriqlarni) taklif qildi. Biroq ish muvaffaqiyatsiz yakunlandi, chunki aksariyat o‘quvchilar topshiriqlarni qanday bajarish, o‘quv asbob-uskunalarini qanday ishlatish, tajriba natijalarini qanday qayd etish kerakligini bilishmagan. Bu holat o‘quvchilarning oldindan mustaqil ishlashga tayyor emasligi oqibatida yuz bergen. Agar o‘qituvchi o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini bilganida edi, bunday muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymagan bo‘lur edi.

Pedagogik jarayonda amal qiluvchi ***ob’ektiv omillarni*** bilmasdan eng yaxshi tajribani (namunani) oddiy ko‘chirib olish ilg‘or tajribaniadolatsiz salbiy baholashga olib kelishi mumkin. Bunday bilimlarni faqat pedagogika fani beradi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: ***yaxshi tajribani aynan ko‘chirib bo‘lmaydi, balki undan olingan foydalanish kerak bo‘ladi.***

Zamonaviy o‘qituvchi turli xil pedagogik vaziyatlarda yangi vositalarni qo‘llab, mustaqil harakat qilish huquqiga ega. Turli mazmundagi ko‘rsatmalar va pedagogik “qolip”lar (andazalar, yo‘llar) – o‘qituvchi ijodiy faoliyatini boshlash va kengaytirishning dastlabki sharti. Demak, o‘qituvchiga pedagogik ijod uchun doimo ***ilmiy bilimlar*** kerak bo‘ladi. Bular o‘quv materiallari mualliflari tomonidan aniqlangan va qo‘llanilgan ta’lim va tarbiya qonuniyatlar haqidagi bilimlardir.

Savol tug‘iladi: ***ijodkor o‘qituvchiga nazariy pedagogik bilimlar kerakmi,*** u qandaydir pedagogik me’yorlarga muhtojmi? Agar o‘qituvchi tavsiya va ishlanmalarni oddiy ijrochi sifatida emas, balki mustaqil fikrlaydigan va professional pedagog sifatida qabul qilsa, ular o‘qituvchi ijodini cheklamaydi, aksincha, unga keng yo‘l ochib, yordam beradi. Chunki me’yoriy bilimlarda ko‘plab pedagoglarning ijodiy faoliyati tajribasi ilmiy ko‘rinishda o‘z aksini topadi va shu sababli ularni inkor qilib bo‘lmaydi. Har qanday holatda ham qonun-qoidalarni bilish va kasbiy savodxonlik pedagogik ishga xalaqit bermaydi. Zero, bilimsiz hech nimaga erishib bo‘lmaydi.

Amaliyotchi-o‘qituvchining ijodiy faoliyatini pedagogika nazariyasi katteoriyalarida anglab olish mumkin va zarur. Pedagogik ishdagi yutuq va kamchilik sabablari haqida fikr yuritilar ekan, bularni “fan tili”da qilishni o‘rganish kerak. Pedagogik mehnatga ijodiy munosabat fandagi bilimlar va uning tushuncha-terminologiya tizimidan foydalanish ko‘nikmasi va mahoratini talab qiladi. Hozirgi kunda o‘qituvchiga ta’lim standartlarida keltirilgan mo‘ljallardan foydalangan holda o‘z amaliy faoliyati uchun zarur bo‘l-gan barcha asoslarni o‘zi mustaqil tanlashiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu holat taklif etilgan o‘quv materiallari va shaxsiy faoliyatni ilmiy nuqtai nazardan baho-lash ko‘nikmasiga ega bo‘lishni, ya’ni o‘z ishining mantig‘i va metodikasini umumiy ma’rifiy (ta’limiy, tarbiyaviy) maqsadlar va hayotga mos ravishda tashkil etishni o‘rtaga qo‘ymoqda.

Aytish mumkinki, pedagogika fanining amaliyot bilan birgalikda bajaradigan *ilmiy-nazariy funksiyasi* o‘qituvchiga nisbatan tushuntirish vazifasini bajaradi. Pedagogikaning *amaliy-texnik funksiyasi* esa me’yor (tartibga soluvchi) sifatida gavdalanadi, ya’ni o‘qituvchi o‘z faoliyatida bevosita tayanishi, mo‘ljal olishi mumkin bo‘lgan me’yoriy bilimlarni aks ettiradi.

Shunday qilib, o‘qituvchi pedagogika fanidan o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan *vositalarni* ikki yo‘l bilan oladi:

**birinchi yo‘l** - pedagogik voqelikni nazariya orqali tavsiflashdan ilmiy asoslangan loyihaga qadar bo‘lgan yo‘l; bunda o‘qituvchi barcha pedagogik tadqiqotlarning yakuniy mahsulotidan foydalanadi;

**ikkinci yo‘l** - o‘qituvchi o‘z amaliy faoliyati mohiyatini tushunishi, anglashi uchun nazariy pedagogik bilimlardan foydalanadi.

Shu sababli amaliy faoliyatda fan va amaliyot o‘rtasidagi aloqalar sikli tugaydi hamda pedagogika sohasidagi barcha ilmiy ishlarning natijalaridan foydalaniadi, degan fikr-mulohazalar tez-tez qulqoqqa chalinib turadi.

***Ilg‘or tajribani umumlashtirish va joriy etish*** – bugungi kunda o‘tmish soyasiga o‘xshab qolmoqda. Pedagogik faoliyat me’yorlari amaliyot uchun mo‘ljal sifatida juda foydali, biroq pedagogikaga *qolipli yondashuvni* joriy etish mumkin emas. Pedagogika fanidan o‘qituvchiga har qanday qiyinchilikdan osongina chiqib ketishga imkon beradigan barcha pedagogik «qulf»larning «kalit»larini talab etish - o‘rinsiz va befoyda ish. Bunday universal ochqichlar yo‘qligi ma’lum bo‘lgach, bo‘rttirilgan orzu-umidlar o‘rnida *nigilizm* (qonunlar, qoidalar, tamoyillarni inkor etish) va o‘tmishdagi eng yaxshi namunalarga murojaat qilmaslik holati paydo bo‘ladi. O‘tmishning bunday qoldiqlari sirasiga bir paytlari juda mashhur bo‘lgan “ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va tatbiq etish”ni kiritish mumkinki, uning asossiz (puch) dalil ekanligi pedagog olimlar tomonidan bir necha bor isbotlangan. Biroq pedagogika fanidagi ushbu shubhali nuqtai nazarni qayta tiklashga urinishlar ahyon-ahyonda bo‘lsada, uchrab turibdi.

Bunday qoldiqlarga nisbatan *notanqidiy* munosabat ishga xaraqit berishi mumkin. Chunki biror *ilg‘or pedagogik tajribaning aynan o‘zini emas, balki bu tajribadan kelib chiqadigan fikrlarni o‘zgalarga yetkazish* mumkin. Tasavvur qiling: umumta’lim maktablarida “ilg‘or” akademik litseyning ish tajribasi joriy etilmoqda, ya’ni mакtabga ilg‘or tajriba sifatida majburan tayinlangan. Bunday holatda “ilg‘or”lardan maktab sharoitiga to‘g‘ri keladigan qandaydir oddiy tajribani, uning biror elementini o‘rganish, o‘zlashtirish mumkin, ya’ni bunday “tajriba almashish” bilim va talabchanlikni – pedagogikadagi innovatsion faoliyat muammolarini o‘rganish va innovatsion tizimlarni chuqur ilmiy asoslashni talab qilishdan ko‘ra ancha osondir. Ammo undan ko‘zlangan maqsad natijasini kutish aslo mumkin emas. Masalan, *suhbat metodi* bo‘yicha ilg‘or tajribalarni har qancha o‘rganish, umumlashtirish, joriy etish va cheksiz takomillashtirish umuman olganda o‘z mohiyatini saqlab qolgan yangi suhbat metodi yoki ta’limning yangi texnologiyasi paydo bo‘lishiga olib kelmaydi. Gap shundaki, tubdan *yangilanish* uchun mutlaqo boshqacha *fikrlash*

*tarzi* va uning bilan bog‘liq *izlanishlar* kerak. Ilm-fan uchun nafaqat ijobiy, balki salbiy tajribalar ham qadr-qimmatga ega. Xatoliklar, muvaffaqiyatsizliklar oqibatida, masalan, tajribada aniqlangan o‘quv materiallarining haqiqiy o‘quv sharoitlariga mos kelmasligi, maqsad va natijalar o‘rtasidagi keskin tafovutga oid dalillar o‘rganilib, *nazariy xulosalar* chiqarish uchun materiallar to‘planadi.

Demak, fan va amaliyot o‘rtasidagi aloqa tizimida pedagogik tajribaning funksiyalaridan biri shundaki, u kutilmagan vaziyatlar va muammolarni o‘z ichiga olib, ilmiy tadqiqotni tajribadan olingan materiallar bilan ta’minlaydi. Fan nuqtai nazaridan amaliy tajribaga bevosita murojaat qilish tadqiqotchi-pedagogga tajribaga asoslangan materialni taqdim etadi.

Tajribaning yana bir funksiyasi *foydalanish uchun qulay* bo‘lganda namoyon bo‘ladi, ya’ni u ko‘plab amaliyotchi-pedagoglar uchun yaxshi ish namunasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday namunalarning ahamiyati cheklangan. Ular nusxa ko‘chirish uchun emas, balki tushunish, ehtimol, taqlid qilish uchun foydalidir. Aniq bir o‘qituvchi tomonidan muayyan sharoitlarda amalga oshirilayotgan tajribani boshqa maktabga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish, “joriy etish” odatda yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Tajriba hamma vaqt uni boshidan kechirgan kishining yutug‘i bo‘lib qoladi. Bundan asosli xulosa, ya’ni ***tajribaga asoslangan nazariya*** kelib chiqadi.

Ta’kidlash joizki, yaqin o‘tmishda shunday holatni kuzatish mumkin edi: hamkasblar ilg‘or tajribani o‘rganish maqsadida ijodiy ishlayotgan o‘qituvchi oldiga kelib, uning darslarini kuzatib, barcha holatlarni yozib oladilar. Keyin shu yozuvlar asosida amaliy ishlashga harakat qilib ko‘radilar va oxir-oqibat, undan yaxshi samara olmaydilar. Bu boshqa birovning tajribasini *bevosita nusxalash* tufayli, boshqacha aytganda, fizikadagi “qisqa tutashuv” yoki “suptropik ekinni tundrada o‘stirish” kabi pedagogik hodisa sodir bo‘ladi. Hammaga ayonki, subtropik ekinni tundrada ildiz ottirish uchun eng avvalo tegishli sharoitlar, ya’ni qanday tuproq, qanaqa harorat yoki namlik darajasi zarurligi haqida tushunchaga ega bo‘lish kerak. Agar bularning barchasi bilib olinsa va subtropik ekin uchun maxsus xonada shart-sharoit yaratilsa, uni ekish va parvarishlash mumkin bo‘ladi. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va tatbiq etishni ham shunga o‘xshash jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo bu ro‘y berishi mumkin bo‘lgan eng salbiy holat emas. Gap shundaki, ilg‘or tajribani o‘rgangan, biroq muvaffaqiyat qozona olmagan o‘qituvchi o‘zidan ilg‘or xodim chiqmasligiga ishonch hosil qiladi va avvalgi holatiga qaytadi. Biroq yaxshi ish bilan tanishish, ehtimolki, izsiz kechmaydi. Agar masalaga vijdanan, professional va ijodiy yondashilsa, o‘qituvchi nimaga erishish mumkinligini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi.

***Pedagogik ish – ijodiy jarayon.*** Hatto eng ilg‘or pedagog ham o‘z fikrini o‘zgartirishi, qandaydir metod yoki usullardan voz kechishi mumkin. Lekin ilg‘or pedagoglar tomonidan yaratilgan tajribalar boshqa ta’lim muassasalarini yoki o‘qituvchilar faoliyatida samarasi bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, qonuniylashgan model (andaza) sifatida deyarli barcha ta’lim muassasalarini “kezib chiqadi”.

***Fan va amaliyotda ishlovchilarining kuchlarini birlashtirish*** – muhim pedagogik vazifalaridan biri.

Nazariy bilimlar umumiylilik (hammaga oidlik), bir xillikning katta darajasi bilan ajralib turadi. Bu dastlabki empirik materiallarni qayta ishlash natijasida olingan nazariy “konsentrat” (boyitilgan bilim) asosida tadqiqot natijalari aks etgan, ya’ni amaliyot beradigan tuzilmalarni yaratishga imkon beradi. Shu tarzda har bir o‘qituvchiga tajribadan kelib chiqadigan fikrlarni yetkazish mumkin.

Bu masalaning faqat bitta tomoni, ikkinchi tomoni shundaki, o‘quv-tarbiya jarayonining haqiqiy, bevosita ijodkori, muayyan o‘quv va tarbiyaviy vaziyatlar yaratuvchisi ***o‘qituvchi*** hisoblanadi. Uning kasbi – tabiatan ijodiy. O‘qituvchining ish stolida turadigan materiallar (dasturlar, darsliklar, tavsiyanomalar) o‘z-o‘zidan “ishlab ketishi”ga ishonish mumkin emas. Umumiylikni ifodalovchi pedagogika fan o‘qituvchining har bir hatti-harakatini oldindan belgilashi va unga bosadigan har bir qadamini ko‘rsatishi mumkin emas.

Shu bilan birga *faqat o‘z tajribasiga tayanib qolish* ham to‘g‘ri emas. Ilmiy asoslangan me’yoriy materiallarda umumiylar maqsadlar va pedagogik hodisalarini bilish tajribasi mujassamlangan bo‘ladi. Biroq ular qandaydir o‘zgarmas ko‘rsatmalar emas, balki har bir o‘qituvchi o‘z ishida o‘z fikri bilan hisobga oladigan mo‘ljallardir. Chunki har qanday umumiylikda alohidilik mavjud bo‘ladi. Ilm va amaliyot ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda ayrim pedagogining tashabbusi va ijodkorligi nazariy va me’yoriy pedagogik bilimlarga zid kelmaydi. Me’yoriy bilimlarda pedagogik faoliyatning barcha qirralari bo‘yicha ijodkorlik natijalari qayta ishlangan ko‘rinishda aks etadi va shu sababli me’yoriy bilim va ijodkorlik bir-biri bilan “ziddiyat”ga bormaydi.

So‘nggi paytlarda pedagogikada keng tarqalgan har xil “texnologiyalar” endi barcha muammolar hal qilindi, degan fikrni keltirib chiqarmasligi kerak. “Ta’lim texnologiyasi” iborasi aslida pedagogikaning “xususiy metodika” deb ataladigan tarmog‘iga tegishli tushuncha. Tushunchalarni bitta madaniy va lingvistik kontekstdan boshqasiga bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) o‘tkazish (ko‘chirish) ba’zan tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Aslida haqiqiy texnologik jarayon odamsiz, ya’ni uning atrofida kechishi kerak. Qat’iy algoritmik va robototexnik qoidalarga ko‘ra texnologiyalar vositasida aniq, sifatli mahsulotlarning uzlusiz ishlab chiqarilishi ta’minlanadi. Pedagogikadagi bu ish unchalik aniq bir ma’noga ega emas. Gap shundaki, odamni texnologiya emas, boshqa odamlar tarbiyalaydi. O‘qituvchi o‘z ishiga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lsa, o‘z ishining mohiyatini mustaqil anglash ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, unga hech qanday texnologiya yordam bermaydi. Qisqasi, pedagogik tizim, zamonaviy texnik tuzilmalardan farqli o‘laroq, tirik odamsiz hech qanaqasiga ishlay olmaydi.

***Metodika*** o‘qituvchiga hatti-harakat erkinligini beradi. Metodik me’yorlar qanchalik aniq bo‘lmashin, ular muqarrar ravishda *o‘rtacha* xususiyatga ega bo‘ladi va amaliyotchi-o‘qituvchiga o‘zining ish sharoitlari, imkoniyatlari,

shuningdek o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim imkoniyatlarini hisobga olib, ishlab chiqishga imkon beradi. O‘qituvchining shaxsiy faoliyatida o‘quv materiallari qisman o‘zgaishlarga uchraydi.

Har qanday amaliy tajribani quyidagi guruhlardan biriga kiritish mumkin: *muvaqqiyatsiz tajriba; yaxshi tajriba; juda yaxshi tajriba* (an'anaga ko‘ra, bu guruh “ilg‘or tajriba” deb ataladi).

Muvaffaqiyatsizlik sababi haddan tashqari keng, batafsil yozilgan darslik (qo‘llanma) yoki chigal o‘quv dasturlari bo‘lishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik tuzuvchi yoki mualliflarni barcha materiallarni qayta ilmiy asoslashga majbur qiladi. Muvaffaqiyatsiz tajriba o‘qituvchilarning yetaricha tayyor emasligi, fanga beparvolikni keltirib chiqaruvchi metodologik madaniyatning yetishmasligi, zarur metodik materiallarning yo‘qligi yoki pedagogika fanida ayrim muammolarining tadqiq etilmaganligi sababli ham kelib chiqishi mumkin.

O‘z kasbining ustasi bo‘lgan o‘qituvchilarga tegishli yaxshi va juda yaxshi tajribalarni farqlashga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Sababi shundaki, ularni chegaralash juda qiyin masala bo‘lib, haqiqiy ilmiy tahlil kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga yaxshi darajada erishishi, ammo bu maqsadlarning o‘zi to‘liq bo‘masligi, ijtimoiy buyurta va so‘nggi ilmiy ishlanmalarga to‘liq javob bermasligi mumkin. Keyin nomuvofiqlik paydo bo‘ladi: ish yaxshi ketmoqda, biroq natijalar hech kimni qoniqtirmaydi. Masalan, tayyor bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishni ajoyib tarzda tashkil etish mumkin, ammo shu bilan cheklanib qolinsa, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanmaydi va ular o‘qituvchi yordamisiz o‘z bilimlarini to‘ldira olmaydi. Oqibatda, bunday tajribani namunali deb hisoblash qiyin bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday tajribani maqsadlarning o‘zi yetarli bo‘lmasa ham belgilangan va erishilgan maqsadlar doirasida yaxshi deb hisoblash mumkin. Sababi shundaki, tayyor bilimlar ta’lim mazmunining asosiy va ajralmas qismlaridan biri bo‘lib, har qanday amaliyot bu qismni chetlab o‘ta olmaydi.

Shuningdek, maqsad va mo‘ljallar bo‘yicha natijalarning juda yaxshi bo‘lishi va’da qilinadi. Deylik, o‘qituvchi ta’lim mazmunining barcha (to‘rtta) tarkibiy qismi bilan ishlashni ko‘zda tutdi. U o‘z o‘quvchilariga mustaqil fikrlashni, an'anaviy standartlarda belgilangan, qotib qolgan bilimlar doirasidan chetga chiqishni o‘rgatmoqchi bo‘ldi. Ammo qandaydir sabablarga ko‘ra bularning hech biri amalgalash oshmadi va hech qanday natijaga erishilmadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin: *osmondagи laylakdan qo‘lingdagi kaklik* yoki *uzoqdagi bug‘doydan yaqindagi somon yaxshi*.

Shunday bo‘lsa ham, tajribani faqat uning natijalari bo‘yicha baholash noto‘g‘ri bo‘ladi. Shu bilan birga, tajribada o‘quv materiallarining sifati va ularning ilmiy asoslanganligi ham tekshiriladi. Bunda tajribanining ommaviy tabiatini ham katta ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, mazmuniga ko‘ra to‘liq va qo‘llanilishiga ko‘ra muvaffaqiyatli tajriba o‘ziga xos qadr-qimmatga ega bo‘ladi. Bunday tajriba zamonaviy pedagogik faoliyat tizimini shakllantirishga hamda fan va amaliyotni yangi

marralarga olib chiqishga xizmat qiladigan bir necha funksiyalarni bajaradi. Ulardan biri tajribaning fan bilan faol o‘zaro bog‘liqligi bo‘lib, unda amaliy vazifalar hal etiladi. Shunga qaramay fan amaliy faoliyatdan oldinda borishi va maktab amaliyotida hali mavjud bo‘lmagan innovatsiyalarni ishlab chiqishi kerak.


Yuqorida ta’kidlangan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: **pedagogika fani va pedagogik faoliyat birligi, ularning uzviy bog‘liqligi va aloqadorligi – pedagogik innovatsiyalar manbaidir.**

*O‘qituvchi* – ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sohibi va taqlid namunasi, shu sababli uning axloqiy va kasbiy shakllanishi bir-biri bilan chambarchas, mustahkam bog‘langan bo‘ladi. O‘qituvchining bilimdonligi, kasbiy mahorati va axloq-odobi pedagog shaxsining mohiyatini belgilaydigan birlamchi asos hisoblanadi.

Kasbiy tayyorgarlikning mazmuni *pedagogik ma’rifat* (ta’lim, tarbiya) maqsadining amalga oshishi sifatida o‘qituvchi shaxsi va kasbiy faoliyatining o‘zgarmas, ideallashgan ko‘rsatkichlarini o‘zida aks ettiruvchi *professogrammada*, ya’ni pedagogik kasbni tavsiflovchi belgilar tizimida to‘planadi.

*O‘qituvchining professiogrammasi* – bu o‘qituvchining *malaka tafsifnomasi*, ya’ni uning bilimi, ko‘nikmasi va malakasiga, shaxsi va qobiliyatlariga, ruhiy-fiziologik imkoniyatlari va kasbiy saviyasiga qo‘yiladigan asosiy talablar to‘liq mujassamlangan normativ hujjat (4.4-rasm).

*O‘qituvchi vazifalari* ma’lum bir faoliyat turlarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Xususan, o‘qituvchining *kommunikativ faoliyati* o‘quvchilar, boshqa o‘qituvchilar, jamoatchilik vakillari va ota-onalar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o‘rnatalishiga qaratiladi.



4.4-rasm. O‘qituvchi professiogrammasi

*Axborot berish-olish faoliyati* – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida to‘g‘ri va qaytar aloqalar orqali o‘zaro axborot almashinishidir.

*Rivojlantirish faoliyati* – o‘quvchilarning o‘quv faoliyatida idrok, tafakkur va hissiy-irodaviy namoyon bo‘lish jarayonlarini boshqarish va shu asosda

o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish birligini ta’minlashdan iborat.

*Mo‘ljalli faoliyati* – o‘quvchilarning qadriyatli mo‘ljallarini aniqlash va tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

*Safarbarlik faoliyati* – o‘quvchilarning bilimlari va hayotiy tajribalarini dolzarblashtirish, ularning bilish mustaqilligi va ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

*Amaliy (konstruktiv) faoliyati* – amaliy mazmunli (o‘quv materialini tanlash va tuzish, pedagogik jarayonni rejalashtirish va vujudga keltirish), amaliy jarayonli (o‘zining va o‘quvchilarning hatti-harakatlarini rejalashtirish) va amaliy moddiy (pedagogik jarayonning o‘quv-moddiy bazasini loyihalashtirish) kabi tarkibiy qismlarga bo‘linadi.

*Tashkiliy faoliyati* – o‘quvchilarni turli tadbirlarga jalb etishga, o‘quvchilar jamoasini vujudga keltirishga va birgalikda faoliyat ko‘rsatishga qaratilgan hatti-harakatlar tizimini amalga oshirishni nazarni tutadi.

*Tadqiqiy faoliyati* – pedagogik hodisalarini o‘rganishga nazariy yondashuvni ta’minlashga, ya’ni zarur axborotlarni izlab topish, tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, o‘zining va boshqa o‘qituvchilarning tajribasini tahlil qilishga qaratiladi.

**O‘qituvchiga kasbiy shartlangan shaxsiy fazilatlar** ham xos bo‘lib, ularni quyidagi ikki guruhgaga ajratish mumkin:

1) *fuqarolik fazilatlari* – o‘qituvchining fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligida namoyon bo‘lib, eng muhim ma’naviy-axloqiy va tashkilotchilik fazilatlari sirasiga kiradi;


2) *shaxsiy (o‘ziga xos) fazilatlari* – kuzatuvchanlik (ziyraklik), improvizatsiya (tayyorgarliksiz uyushtira olish), pedagogik intuitsiya (sezgirlik), pedagogik eruditsiya (bilimdonlik), optimizm (nekbinlik), topqirlik (hozirjavoblik), refleksiya (fikr yuritish), empatiya (kechinmaga qayg‘udoshlik, hamdardlik) va pedagogik takt (xushmuomalalik, nazokat) kabilarda namoyon bo‘ladi.

**O‘qituvchining kasbiy kompetentligi** – bu uning professionalligini (pedagoglik hunarini o‘ziga kasb qilib olganligini) tavsiflovchi pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorlikning birligi (4.5-rasm).

O‘qituvchiga kasbiy shartlangan talablar majmuining qo‘yilishi peda-gogik faoliyatga kasbiy tayyorlik sifatida belgilanadi. Pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlikning tarkibida professionallik asosi sifatida nazariy va amaliy tayyorgarlik ajratib ko‘rsatiladi.

Bugungi kunda o‘qituvchining *vazifalari* quyidagi funksiyalarni baja-rishi bilan ham tavsiflanmoqda:

1) *sinf (guruh) yetakchisi* – sinfda (guruhsda) ijobiy psixologik muhit yaratib, o‘quvchi-talabalarga manzur bo‘ladigan ta’sir ko‘rsatadi;



4.5-rasm. O'qituvchining kasbiy kompetentligi

2) *notiq* - nazariy ma'lumotlarni (o'quv materiallarini) tizimli, izchil taqdim etuvchi, ma'ruzachi;

3) *faylasuf* – bilim va tajribalarni tahlil qilib, dunyoqarash muammosini ishlab chiquvchi;

4) *nazoratchi* – o'quvchi-talabalarning ma'rifiy faoliyatini nazorat qiladi va tashxislaydi;

5) *psixolog* – ma'rifiy sohada psixologik yordam, qo'llab-quvvatlash va kuzatish maqsadida shaxsda kechadigan psixik hodisalarining namoyon bo'lishi, shakllari va usullarini o'rganuvchi, o'zini hamda o'zgalarni yaxshi biluvchi va tushunuvchi;

6) *moderator* – ma'rifiy jarayonda seminar, trening, davra suhbati va forumlarni boshqaruvchi, kasbiy muloqotni tashkil etuvchi;

7) *trener* – o'quvchi-talabalarda amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi va ularga mashqlar orqali yordam beruvchi;

8) *tyutor* – ma'lum bir o'quv fani bo'yicha bilim va ko'nikmalarni berish maqsadida bir yoki bir necha o'quvchi-talaba bilan har kuni, har hafta yoki oyda qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazuvchi shaxsiy o'qituvchi - repetitor;

9) *mentor* – kasbiy faoliyat bo'yicha tavsiyalar beruvchi, o'z tajribasini almashuvchi, ma'rifiy materialarni (kitoblar, maqolalar va sh.k.) tavsiya etuvchi, rejalarни ishlab chiqishga ko'maklashuvchi, turki beruvchi va ilhomlantiruvchi ustoz, tarbiyachi;

10) *kouch* – ma'rifiy maqsadlarga erishishda mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini ta'minlashga va kouch-texnologiyalar yordamida psixologik muammolarni hal etishga yordam beruvchi maslahatchi-trener;

11) *ekspert* – ma'rifiy sohada kamroq kompetensiyaga ega bo'lgan odamlar tomonidan ko'rib chiqilgan yoki hal etiladigan masala bo'yicha malakali xulosa berish yoki mulohaza yuritish uchun taklif etilgan yoki yollangan kishi, ya'ni ekspertiza o'tkazuvchi (kuzatuvchi, tahlil qiluvchi, tekshiruvchi, xulosa, tavsiya va taklif tayyorlovchi, mulohaza bildiruvchi);

12) *innovator* – muntazam o'z ustida ishlovchi, yangi g'oyalar yaratuvchi va ularni amaliyotga tatbiq etuvchi; ta'lim-tarbiya mazmuniga va mashg'ulotlarga innovatsiyalarni joriy qiluvchi;

13) *assistent* – mashg'ulotga zarur bo'lgan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlovchi, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam beruvchi;

14) *texnolog* – pedagog jarayonni (ta'lim-tarbiya texnologiyalarini) ishlab chiquvchi va tashkil etuvchi, shuningdek ular ustidan nazoratni amalga oshiruvchi va kamchiliklarni bartaraf etuvchi;

15) *metodist* – o'qitish (tarbiyalash) metodikasi bo'yicha mutaxassis, ta'lim-tarbiya metodlarini o'rganuvchi va ishlab chiquvchi.

16) *fasilitator* – ma'rifiy jarayonda guruhli muloqot va faoliyatni oson qiluvchi, muvaffaqiyatli ta'minlovchi va xolis baholovchi;

17) *menejer* – o'quvchi-talabalarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o'rganib, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqaruvchi va strategiyasini ishlab chiquvchi;

18) *maslahatchi* – ma'rifiy sohada mutaxassis sifatida maslahat beruvchi, o'quvchi-talabalarga ularning tajribasiga asoslangan holda mavhum holatlarni aniqlashtirishda yordam ko'rsatuvchi;

19) *kotib* – ma'rifiy jarayonga tegishli ma'lumotlarni yozib boruvchi, hujjatlarni rasmiylashtiruvchi va o'rnatilgan tartibda saqlovchi;

20) *edvayzer* – talabalarga ta'limning individul yo'nalishini tanlash va amalga oshirishda (individual o'quv rejasini shakllantirishda) va ularning o'quv dasturlarini o'zlashtirishiga yordam beruvchi maslahatchi-ustoz va sh.k.

Umumiy pedagogika nuqtai nazardan bo'lg'usi o'qituvchi quyidagi ***pedago-gik bilim, ko'nikma, malaka*** va ***kompetensiyalarni*** egallashi lozim:

1) shaxs kamoloti va pedagogika fani; pedagogikaning ob'ekti, predmeti, vazifalari va metodologiyasi; ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari; pedagogika fanining maqsadi va umummadaniy ahamiyatiga ko'ra tarmoqlari, boshqa fanlar bilan integratsiyasi; pedagogikada ma'rifikat, ta'lim va tarbiya masalalari; yaxlit pedagogik jarayon; didaktika va uning ob'ekti, predmeti va vazifalari; ta'lim (o'qitish va o'qish) jarayoni; ta'limning turli modellari va rivojlanish yo'nalishlari; ta'lim qonuniyatlarini va didaktik tamoyillar; ta'lim mazmuni va uni belgilovchi me'yoriy hujjatlar; ta'lim metodlari, tashkiliy shakllari va texnologiyalari; ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish vositalari; ta'lim sifatini pedagogik tashxislash, nazorat qilish va baholash; tarbiya jarayoni va uning vazifalari; tarbiya qonuniyatlarini va tamoyillari; tarbiyaning mazmuni va metodlari; milliy tarbiya; tarbiya ti-zimi va tarkibiy qismlari (turlari, yo'nalishlari); jamoa; pedagogik mulo-qot va tarbiyaviy texnologiyalar; milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va oila tar-biyasi; O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va uni boshqarish; ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari; ta'lim muassasasi va uni boshqarish; boshqaruvda vasiylik va homiylik; ta'lim, tarbiya va ta'lim muassasasi to'g'risidagi g'oyaning paydo bo'lishi; eng qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi davrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyoti; islom madaniyati va tarbiya; tarbiya to'g'risida Sharq mutafakkirlarining qarashlari; Turkistonda ta'lim va tarbiya; O'zbekistonda maktab, maorif, ta'lim va tarbiyaning rivojlanish tarixi; mustaqillik davridagi ta'lim va tarbiya to'g'risidagi ***bilimlar***;

2) pedagogik qonun, qonuniyat va tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazish; ta'lim-tarbiyani tashkil etishning asosiy shakllaridan amalda foydalanish; ta'lim-tarbiya metodlari va vositalarini amaliyotda qo'llash; o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasini samarali bosh-qarish, o'quvchilar xulqi va faoliyatini rag'batlantirish; pedagogik vaziyatlarni va ta'lim-tarbiya natijalarini tahlil etish; o'quvchi va o'quvchilar jamoalarini o'rganish hamda ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlash; ma'rifikat va pedagogika tarixi taraqqiyotini tahlil qilish kabi ***ko'nikmalar***;

3) psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishslash; o'quv materiallарini to'plash va saralash; didaktik ishlanmalar va o'quv topshiriqlarini tayyorlash; pedagogik tadqiqotlar o'tkazish; ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish; sinf (guruh) rahbari tarbiyaviy ishlarini tashkil

etish; o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish; ota-onalar bilan ishlash; ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va shaxsiy imkoniyatini hisobga olish; tarixiy-pedagogik taqqoslash va umumlashtirish kabi **malakalar**;


4) kasbiy-pedagogik bilimlar va axborotlar bilan ishlash, o‘quvchilar va boshqa shaxslar bilan o‘zaro muloqotga kirishish, pedagogik jarayonni tashkil etish kabi **muhim**; pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘zini-o‘zi pedagogik tahlil qilish va boshqarish, amaliy pedagogik faoliyat yuritish kabi **tayanch**; pedagogik jarayonni loyihalash, pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish kabi **maxsus kompetensiyalar**.

Talabalar yuqorida qayd etilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiylarni yetarli darajada o‘zlashtirsa, umumiy pedagogika fani doirasida **pedagogik madaniyat** asoslarining vujudga kelishi ta’minlanadi (4.6-rasm).

O‘qituvchining yuqorida ta’kidlangan vazifalarini pedagogik faoliyatning o‘ziga xos qirralari sifatida tushunish kerakki, ular pedagogik vaziyatlarga bog‘liq holda turlanib va namoyon bo‘lib turadi.

**Pedagogika fani va amaliyoti integatsiyasini** ta’minlashda bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning pedagogik (malakaviy) amaliyoti muhim o‘rin tutadi.

Talabalar malakaviy amaliyoti jarayoni - bu talabani kasbiy faoliyatga o‘rgatuvchi, kasbiy shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayondir. Shuning uchun ham bu jarayonni metodik boshqarish qulay, moslanuvchan va ijodiy bo‘lish kerak. Boshqacha ifodalasak, bu jarayon yaxlit **metodik tuzilma** sifatida o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi aqliy va jismoniy mehnat faoliyati natijasida tegishli kasbiy ko‘nikma va malaka darajasini (kasbiy mahorat asoslarini) shakllantirish metodikasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.



4.6-rasm. Pedagogik madaniyat asoslari

Oliy ta’lim muassasalarida talabalar malakaviy amaliyoti jarayonini tizimli tashkil etishning metodik tuzilmasi (modeli) mazkur jarayon-ning tarkibiy qismlari o‘rtasida ichki tartiblarning o‘rnatilishini ierar-xik darajalarda aks ettirgan. Biroq biz bu masalaning mohiyatini boshqa, ya’ni malakaviy amaliyot jarayoni bilan uning mazmuni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nuqtai nazaridan qarab chiqamiz.

Ma’lumki, bir-biriga bog‘langanlik / o‘zaro bog‘liqlik deganda tomonlarning biri ikkinchisiga bog‘liqligi yoki tomonlar orasida biri ikkinchisiz bo‘lmaydigan aloqadorlik tushuniladi. ***Malakaviy amaliyot jarayoni bilan uning mazmuni o‘rtasida xuddi shunday aloqadorlik (bog‘lanish) mavjud***. Bu aloqadorlikning mohiyatini ochib berish malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etishning amaldagi metodik tuzilmasini yanada takomillashtirishga, ya’ni ***metodik innovatsiyalar*** (yangidan kiritiladigan tartib-qoidalar) ishlab chiqilishi va amaliyotga tatbiq etilishiga zamin tayyorlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida mazkur muammoning holatini o‘rganish va tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, amaliy kasbiy ta’lim jarayonining tashkil etilishi bilan uning mazmuni o‘rtasida metodik aloqadorlik yetarlicha o‘rnatilmagan, chunki bu borada maxsus fanlar o‘qituvchilari uchun yetarli metodik adabiyotlar yaratilmagan va chop etilmagan. Shuningdek, oliy ta’lim metodikasida ham bu masalaga yetarlicha e’tibor qaratilmagan, tegishli ilmiytadqiqot ishlari olib borilmagan. Oqibatda oliy ta’lim muassasalarida yaxlit malakaviy amaliyot jarayoni ko‘pincha pala-partish, muayyan tizimsiz, samarasiz tashkil etilishiga yo‘l qo‘yilgan. Bu esa bitiruvchilar - bo‘lg‘usi mutaxassislarda kasbiy mahorat asoslari standart talablari darajasida shakllanmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Biz mazkur kamchiliklarni bartaraf qilish uchun malakaviy amaliyot jarayonini tashkil etishning amaldagi metodik tuzilmasini takomillashtirishga harakat qildiq. Shu maqsadda malakaviy amaliyot jarayonini ***tizimli yondashuv*** asosida ikki jihatdan tahlil qildik:

- 1) malakaviy amaliyot mazmunining tizimli tahlili;
- 2) malakaviy amaliyot jarayonining tizimli tahlili.

Birinchi navbatda, ***malakaviy amaliyot mazmunining*** tizimli tahlili natijalarini keltiramiz.

**1. *Malakaviy amaliyot mazmuni*** quyidagi tarkibiy qismlarni (turlarni) o‘z ichiga oladi (4.1-jadval):

2. Amaliy-laboratoriya ishlari mazmuni.
3. O‘quv amaliyoti mazmuni.
4. Ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti mazmuni.
5. Bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyoti mazmuni.

Malakaviy amaliyotning mazmuniy tarkibiy qismlari, ya’ni turlarining har biri alohida tizimli tahlil qilinsa, ular bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro shartlangan o‘ziga xos tarkibiy qismlar majmuidan iborat ekanligi aniqlanadi. Xususan:

**I. Amaliy-laboratoriya ishlari** quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- 1) *o‘quv-tajriba ishlarini aniq rejalashtirish;*
- 2) *maxsus o‘quv laboratoriyalari ni jihozlash va ishlarni bajarishga to‘liq tayyorlash;*
- 3) *laboratoriyalarda bajariladigan o‘quv-tajriba texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;*
- 4) *o‘quv-tajriba texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;*
- 5) *mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydigan amaliy-laboratoriya ishlari metodikasini ishlab chiqish va joriy etish.*

Tizimli tahlil asosida amaliy-laboratoriya ishlari bo‘yicha quyidagi *metodik tamoyil (qoida)* vujudga keladi:

*amaliy-laboratoriya ishlarining samarali tashkil qilinishi uni o‘quv-tajriba ishlari, o‘quv laboratoriyalari, o‘quv-tajriba texnologiyalarini, boshlang‘ich ko‘nikmalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilish, amaliy-laboratoriya ishlari metodikasi kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qismning mazmuni va funksiyasini aniq belgilashga hamda ularning ijrosi to‘liq ta‘minlanishiga bog‘liq.*

**II. O‘quv amaliyoti** quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- 1) *o‘quv-amaliy ishlarini aniq rejalashtirish;*
- 2) *o‘quv ustaxonalarini jihozlash va amaliy ishlarni bajarishga to‘liq tayyorlash;*
- 3) *o‘quv ustaxonalarida bajariladigan o‘quv-amaliy texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;*
- 4) *o‘quv-amaliy texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda oraliq ko‘nikmalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish;*
- 5) *mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydigan o‘quv amaliyoti metodikasini ishlab chiqish va joriy etish.*

Tizimli tahlil asosida o‘quv amaliyoti bo‘yicha quyidagi *metodik tamoyil (qoida)* vujudga keladi:

*o‘quv amaliyotining samarali tashkil qilinishi uni o‘quv-amaliy ishlar, o‘quv ustaxonalarini, o‘quv-amaliy texnologiyalar, oraliq ko‘nikmalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilish, o‘quv amaliyoti metodikasi kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qismning mazmuni va funksiyasini aniq belgilash va ularning ijrosi to‘liq ta‘minlanishiga bog‘liq.*

4.1-jadval

Malakaviy amaliyot mazmuni va jarayonining o‘zaro aloqadorligi natijasida vujudga keluvchi yangi metodik tuzilma va uning tarkibiy qismlari

Turlari:		T	A	R	K	I	B	I	Y	Q	I	S	M	L	A	R	I:	Bosqichlar:						
I:		Bitiruv-	Bitiruv-		Tayanch													I:						
B	I:	malakaviy (diplom oldi) amaliyoti	malakaviy (diplom) ishlari		korxonalar va o‘quv laboratoriylari												Bitiruv-							
I	N:	Ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti	O‘quv-ishlab chiqarish ishlari		Tayanch korxonalar (tashkilotlar, muassasalar)												malakaviy ishlar metodikasi							
M	M:	O‘quv amaliyoti	O‘quv- amaly ishlar		O‘quv ustaxonalari												Ishlab chiqarish amaliyoti metodikasi							
A	Z:	Amaliy- laboratoriya ishlari	O‘quv-tajriba ishlari		O‘quv laboratoriylari												O‘quv amaliyoti metodikasi							
M	A:	MALAKAVIY AMALIYOT	rejalashtirish		tayyorgarlik												Amaliy- laboratoriya ishlari metodikasi							
																	J	A	R	A	Y	O	N	I:

**III. Ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti** quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- 1) o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini aniq rejalashtirish;
- 2) tayanch korxona, tashkilot yoki muassasalarni tanlash va ularni talabalarning ishlab chiqarish ishlarini bajarishga maxsus tayyorlash;
- 3) tayanch korxona, tashkilot va muassasalarda bajariladigan o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 4) o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda *tugal ko‘nikma shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish*;
- 5) mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *ishlab chiqarish amaliyoti metodikasini ishlab chiqish va joriy etish*.

Tizimli tahlil asosida ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha quyidagi *metodik tamoyil (qoida)* vujudga keladi:

*ishlab chiqarish amaliyotining samaralt tashkil qilinishi o‘quv-ishlab chiqarish ishlari, tayanch korxonalar (tashkilotlar, muassasalar), o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarini, tugal ko‘nikm shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilish, ishlab chiqarish amaliyoti metodikasi kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qismning mazmuni va funksiyasini aniq belgilashga hamda ularning ijrosi to‘liq ta’minlanishiga bog‘liq.*

**IV. Bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyoti** quyidagi mazmuniy tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- 1) bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarini aniq rejalashtirish;
- 2) tayanch korxonalar (tashkilotlar, muassasalar) va o‘quv laboratoriylarini tanlash va ularni talabalarning bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarini bajarishga maxsus tayyorlash;
- 3) tayanch korxonalar (tashkilotlar, muassasalar) va o‘quv laboratoriylarida bajariladigan *tadqiqiy-sinov texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish*;
- 4) tadqiqiy-sinov texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida talabalarda *kasbiy mahorat asoslari shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish*;
- 5) mazkur jarayonlarga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *bitiruv-malakaviy (diplom) ishlar metodikasi yoki bitiruv-malakaviy amaliyoti metodikasini ishlab chiqish va joriy etish*.

Tizimli tahlil asosida bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyoti bo‘yicha quyidagi *metodik tamoyil (qoida)* vujudga keladi:

*bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotining samarali tashkil qilinishi uni bitiruv-malakaviy (diplom) ishlari, tayanch korxonalar (tashkilotlar, muassasalar) va o‘quv laboratoriylarini, tadqiqiy-sinov texnologiyalarini, boshlang‘ich kasbiy malakalar shakllanishini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilish, bitiruv-malakaviy (diplom) ishlar metodikasi yoki bitiruv-malakaviy amaliyoti metodikasi kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy*

*qismning mazmuni va funksiyasini aniq belgilashga hamda ularning ijrosi to‘liq ta’milanishiga bog‘liq.*

Endi *malakaviy amaliyot jarayonining* tizimli tahlili natijalarini qarab chiqamiz.

**2. Malakaviy amaliyot jarayoni** quyidagi tarkibiy qismlarni (bosqichlarni) o‘z ichiga oladi:

1. Malakaviy amaliyot jarayonini rejelashtirish.
2. Malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish.
3. Malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirish.
4. Malakaviy amaliyot jarayonini nazorat qilish.
5. Malakaviy amaliyot metodikasi

Biz malakaviy amaliyot jarayonining tarkibiy qismlari, ya’ni uning har bir bosqichini alohida tizimli tahlil qilib, ular ham bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro shartlangan o‘ziga xos tarkibiy qismlar majmuidan iborat ekanligini aniqladik. Xususan:

**I. Malakaviy amaliyot jarayonini rejelashtirish** mazkur jarayon mazmunining turlariga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- 1) amaliy-laboratoriya ishlarida *o‘quv-tajriba ishlarini rejelashtirish*;
- 2) o‘quv amaliyotida *o‘quv-amaliy ishlarni rejelashtirish*;
- 3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotida *o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini rejelashtirish*;
- 4) bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotida *bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarni rejelashtirish*.

Tizimli tahlil asosida malakaviy amaliyot jarayonini rejelashtirish bo‘yicha quyidagi metodik tamoyil (*qoida*) vujudga keladi:

*malakaviy amaliyot jarayonini rejelashtirishning samarali tashkil qilinishi uni o‘quv-tajriba ishlarini rejelashtirish, o‘quv-amaliy ishlarni rejelashtirish, o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini rejelashtirish, bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarni rejelashtirish kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qism rejasini aniq ishlab chiqish va umumlashtirishga hamda ijrosining to‘liq ta’milanishiga bog‘liq.*

**II. Malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish** mazkur jarayon mazmunining turlariga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlar majmuini o‘z ichiga oladi:

- 1) amaliy-laboratoriya ishlarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish uchun *o‘quv laboratoriyalari jihozlash* va *ularni o‘quv-tajriba ishlarini bajarishga to‘liq tayyorlash*;
- 2) o‘quv amaliyotini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish uchun *o‘quv ustaxonalarini jihozlash* va *ularni o‘quv-amaliy ishlarni bajarishga to‘liq tayyorlash*;
- 3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish uchun *tayanch korxonalarini (tashkilotlar, muassasalarini) tanlash* va

*ularni talabalarning o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishga maxsus tayyorlash;*

4) bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotini amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish uchun tayanch korxonalar (*tashkilotlar, muassasalar*) va o'quv laboratoriylarini tanlash hamda ularni talabalarning bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarni bajarishga maxsus tayyorlash.

Tizimli tahlil asosida malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha quyidagi metodik tamoyil (*qoida*) vujudga keladi:

*malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirishga tayyorgarlikning samarali tashkil qilinishi uni o'quv laboratoriylarini jihozlash va uni o'quv-tajriba ishlarini bajarishga to'liq tayyorlash, o'quv ustaxonalarini jihozlash va uni o'quv-amaliy ishlarni bajarishga to'liq tayyorlash, tayanch korxonalarini (*tashkilotlar, muassasalarni*) tanlash va uni talabalarning o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishga maxsus tayyorlash, tayanch korxonalar (*tashkilotlar, muassasalar*) va o'quv laboratoriylarini tanlash hamda ularni talabalarning bitiruv-malakaviy (diplom) ishlarni bajarishga maxsus tayyorlash kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qism bo'yicha umumiy tayyorgarlik chora-tadbirlarini aniq ishlab chiqishga hamda ularning ijrosi to'liq ta'minlanishiga bog'liq.*

**III. Malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirish** mazkur jarayon mazmunining turlariga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlar majmuini o'z ichiga oladi:

- 1) amaliy-laboratoriya ishlarini o'quv-tajriba texnologiyalari aso-sida amalga oshirish;
- 2) o'quv amaliyotini o'quv-amaliy texnologiyalar asosida amalga oshi-rish;
- 3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotini o'quv-ishlab chiqarish texnologiyalari asosida amalga oshirish;
- 4) bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotini tadqiqiy-sinov texnologiyalari asosida amalga oshirish.

Tizimli tahlil asosida malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirish bo'yicha quyidagi metodik tamoyil (*qoida*) vujudga keladi:

*malakaviy amaliyot jarayonini amalga oshirishning samarali tashqil etilishi uni amaliy-laboratoriya ishlarini o'quv-tajriba texnologiyalari, o'quv amaliyotini o'quv-amaliy texnologiyalar, ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotini o'quv-ishlab chiqarish texnologiyalari va bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotini tadqiqiy-sinov texnologiyalari asosida amalga oshirish kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qism texnologiyalarini aniq ishlab chiqishga hamda ularning ijrosi to'liq ta'minlanishiga bog'liq.*

**IV. Malakaviy amaliyot jarayonini nazorat qilish** mazkur jarayon mazmunining turlariga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlar majmuini o'z ichiga oladi:

1) amaliy-laboratoriya ishlarida o‘quv-tajriba texnologiyalarini amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan *boshlang‘ich ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish*;

2) o‘quv amaliyotida o‘quv-amaliy texnologiyalarni amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan *oraliq ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish*;

3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotida o‘quv-ishlab chiqarish texnologiyalarini amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan *tugal ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish*;

4) bitiruv-malakaviy amaliyotida tadqiqiy-sinov texnologiyalarini amalga oshirishda talabalarda shakllanadigan *boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish*.

Tizimli tahlil asosida malakaviy amaliyot jarayonini nazorat qilish bo‘yicha quyidagi *metodik tamoyil (qoida)* vujudga keladi:

*malakaviy amaliyot jarayonini nazorat qilishning samarali tashkil qilinishi uni amaliy-laboratoriya ishlarida boshlang‘ich ko‘nikmalarni, o‘quv amaliyotida oraliq ko‘nikmalarni, ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotida tugal ko‘nikmalarni va bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotida boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilib borish kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir tarkibiy qism bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarini aniq ishlab chiqishga hamda ularning ijrosi to‘liq ta’milnishiga bog‘liq.*

V. Malakaviy amaliyotga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *malakaviy amaliyot metodikasi* mazmuni va jarayoniga muvofiq quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1) amaliy-laboratoriya ishlariga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *amaliy-laboratoriya ishlari metodikasi*;

2) o‘quv amaliyotiga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *o‘quv amaliyoti metodikasi*;

3) ishlab chiqarish (texnologik) amaliyotiga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *ishlab chiqarish amaliyoti metodikasi*;

4) bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyotiga metodik xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydigan *bitiruv-malakaviy (diplom) ishlar metodikasi* yoki *bitiruv-malakaviy amaliyoti metodikasi*.

Tizimli tahlil asosida malakaviy amaliyot metodikasi bo‘yicha quyidagi *metodik tamoyil (qoida)* vujudga keladi:

*malakaviy amaliyot metodikasining samarali yaratilishi (ishlab chiqilishi) uni amaliy-laboratoriya ishlari uchun amaliy-laboratoriya ishlari metodikasi, o‘quv amaliyoti uchun o‘quv amaliyoti metodikasi, ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti uchun ishlab chiqarish (texnologik) amaliyoti metodikasi, bitiruv-malakaviy (diplom oldi) amaliyoti uchun bitiruv-malakaviy (diplom) ishlar metodikasi yoki bitiruv-malakaviy amaliyoti metodikasi kabi tarkibiy qismlarga ajratishga, har bir amaliyot turi metodikasi-ning alohida ishlab chiqilishi va ularning bir butun qilib umumlashtirilishiga bog‘liq.*

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida talabalar malakaviy amaliyoti mazmuni va jarayoniga ularning o‘zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan tizimli yondashuv natijasida ***innovatsion metodik tuzilma*** va uning tarkibiy qismlari vujudga keladi. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalar malakaviy amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish bitiruvchilarda tegishli kasbiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirishga imkon beradi.

**Pedagogika fani va amaliyoti integatsiyasini** ta’minlashda ma’rifiy klasterlar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. “Ma’rifiy klaster”- professional / oliy ta’lim muassasalari va korxonalarning tarmoq va tarmoqlararo belgilari bo‘yicha yagona tashkiliy tuzilmaga birlashgan geografik konsentatsiyasi bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradi. O‘zbekistonda ma’rifiy klasterlar shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda.

### **Nazorat savollari**

1. Pedagogik (didaktik) konsepsiylar, paradigmalar va ta’lim modellari haqida ma’lumot bering.
2. Pedagogika fanini rivojlantirish omillari va tendensiylarini aytib bering.
3. Pedagogika fani va amaliyoti integatsiyasi: pedagogik faoliyat, talabalar pedagogik amaliyoti, innovatsion ma’rifiy muassasalar va ma’rifiy klasterlar muammolari va yechimlarini aytib bering.
4. Pedagogikani rivojlantirishning maxsus strategiyalari: interiorizatsiya, eksteriorizatsiya, problematizatsiya va refleksiyasini aytib bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Jumanova F., Avazova S. va boshqalar Umumiy pedagogika asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: “Ishonchli hamkor”, 2020 y. -582 b.
2. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.
3. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.
4. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, 60 b.
5. Ishmuhamedov R.J., M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistalar, o‘qituvchilar. tarbiyachi va murabbiylar uchu o‘quv qo‘llanma)-T.:2013.-279 b
6. Muslimov N.A., M.J.Mutalipova, Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil.
7. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
8. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

9. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.–115
10. Kodjaspirova, G.M. Pedagogika v sxemax i tablitsax: Uchebnoe posobie. - M.: Prospekt, 2016.
11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennogo obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.
13. Ibraymov A.E. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.E. Ibraymov. – T: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-amaliy mashg‘ulot.

**Mavzu: Shaxs kamoloti va uni boshqarish – pedagogik muammo va umumilmiy kategoriya sifatida**

#### Mulohaza uchun savollar:

1. Shaxs kamoloti nima?
2. Shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi kuch nima?
3. Shaxs kamolotidagi ichki va tashqi ziddiyatlarga nimalar kiradi?
4. Shaxs kamolotini qanday omillar belgilaydi?
5. Shaxs kamolotining har bir omilini tavsiflang?
6. Tarbiya orqali odamni butunlay o‘zgartirish mumkinmi?
7. Shaxs kamolotini tashxislash mumkinmi?
8. Shaxs kamolotining tashxisi qanday amalga oshiriladi?

#### Topshiriqlar:

**1-topshiriq. Quyida keltirilgan ikki fikr-mulohazani izohlang va o‘zaro qiyosiy taqqoslang:**

- a) odam - individ sifatida ...
- b) odam - shaxs sifatida ...

**2-topshiriq. “Odam”, “individ”, “individuallik”, “shaxs” va “shaxsnинг shakllanishi” tushunchalarining ta’rifini yozing. Javobni 1-jadvalda to‘ldiring.**

1-jadval

Nº	Tushunchalarning ta’rifi	Manbalar (adabiyotlar) nomi
1	Odam -	
2	Individ -	
3	Individuallik (shaxsiyat) -	
4	Shaxs -	
5	Shaxsnинг shakllanishi -	

**3-topshiriq. Turli manbalardan foydalanib, “shaxs kamoloti” tushunchasiga berilgan ta’riflarni yozing. Javobni 2-jadvalda to‘ldiring.**

2-jadval

Nº	Tushunchaning ta’rifi	Manbalar (adabiyotlar) nomi
1		

2		
3		
4		
5		

**4-topshiriq.** Shaxs kamolotini harakatga keltiruvchi asosiy omil-larni, ularning mohiyatini va ahamiyatini izohlang. Javobni 3-jadval ko‘rinishida to‘ldiring.

3-jadval

Omillar:	Mazmun-mohiyati	Hayotdagi ahamiyati

**5-topshiriq.** Irsiyatning mohiyati va ahamiyatini izohlang. Javobni 4-jadval ko‘rinishida to‘ldiring.

4-jadval

Irsiyat	
Ota-onadan bolaga o‘tadigan sifatlar va xususiyatlar:	Iste’dod nishonalari va qibiliyatlarning birbiriga bosqichli bo‘ysunishi:
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.
5.	5.

**6-topshiriq.** Irsiyatning mohiyati va ahamiyatini izohlang. Javobni 5-jadval ko‘rinishida to‘ldiring.

5-jadval

Muhit
-------

Yaqin muhit va uning xususiyatlari:	Uzoq muhit va uning xususiyatlari:
1.	1.
2.	2.
3.	3.

**7-topshiriq.** Nazariy materiallar matnidan foydalanib, shaxs kamoloti haqidagi nazariyalarning mohiyatini izohlang. Javobni 6-jadval ko‘rinishida to‘ldiring.

6-jadval

Nazariyalar nomi	Ularning mazmun-mohiyati
Preformistik nazariya	
Teologik nazariya	
O‘ta shaxsiyatparastlik nazariyasi	
Biologik nazariya	
O‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan rivojlanish nazariyasi	
Ruhiy tahlil nazariyasi	

**8-topshiriq.** Shaxs kamoloti – shaxsning jismoniy, ruhiy va ma’naviy xususiyatlarida miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga dialektik o‘tish bilan tavsiflanadigan murakkab, uzoq davom etadigan va ziddiyatli jarayon ekanligini nazarda tutgan holda quyidagi savollarga yozma ravishda asoslangan javob bering:

1. Odam ontogenezi (jismoniy-biologik rivojlanish yo‘li) va shaxs ontogenezi (ruhiy, ma’naviy-madaniy shakllanish yo‘li) nima uchun o‘zaro uyg‘unlashgan yaxlit jarayon hisoblanadi?

2. Shaxsning jismoniy-biologik rivojlanish va ruhiy, ma'naviy-madaniy shakllanish qonunlari va qonuniyatlar qaysi fanlar tomonidan o'r ganiladi?

3. Komil inson va barkamol avlodni shakllantirish maqsadida shaxs kamolotini boshqarish haqidagi nazariya qaysi fanda ishlab chiqiladi?

**9-topshiriq.** Quyidagi davrlashtirish bosqichlari qaysi yoshni qamrab olishi, unda faoliyatning qaysi turi yetakchi o'r in tutishi va qanday sifatlar vujudga kelishini (E.Erikson bo'yicha) yozing. Javobni 7-jadval ko'rinishida to'ldiring.

7-jadval

Davrlashtirish bosqichlari:	Faoliyatning yetakchi turi	Vujudga keladigan sifatlar
Go'daklik		
Ilk bolalik		
Maktabgacha yosh		
Kichik mакtab yoshi		
O'smirlik		
O'spirinlik		
Yoshlik		

**10-topshiriq.** Shaxs kamoloti qonuniyatlarini keltiring va izohlang. Javobni 8-jadval ko'rinishida to'ldiring.

8-jadval

Shaxs kamoloti qonuniyatları:	
Shaxsning jismoniy kamoloti qonuniyatları	Shaxsning ma'naviy kamoloti qonuniyatları
1.	1.
2.	2.
3.	3.
4.	4.

5.

5.

**11-topshiriq. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri odamni shaxs sifatida, qaysi biri individ sifatida tavsiflaydi?**

aniq bir maqsadga yo'nalganlik (sobitqadamlik); o'jarlik; o'ychanlik; hissiyotlilik; tirishqoqlik; barqarorlik; yoqimli ovoz; ijtimoiy faollik; o'tkir aql; ajoyib talaffuz tarzi; o'rtacha bo'y; musiqiylik; jizzakilik (serjahllik); tarbiyalanganlik; qorong'ilikka past moslashish; mehnatsevarlik; fazoviy hatti-harakatlarning nomuvofiqligi; ko'k ko'z; yaxshi eshitish; g'amxo'rlik; harakatchanlik.

**Javobni 9-jadval ko'rinishida to'ldiring.**

9-jadval

Shaxsga xos xususiyatlar:	Individga xos xususiyatlar:

**12-topshiriq. Quyida keltirilgan xususiyatlardan qaysi biri asosan ijtimoiy omillar, qaysi biri biologik omillar bilan shartlan-gan?**

obro' (nufuz); o'jarlik; nutq; mijoz; dunyoqarash; sezgi (instinkt); iroda; e'tiqod; bilim; iste'dod nishonasi; ideallar (oliy maqsadlar); his-tuyg'uning yosh xususiyatlari; f'el-atvor; ko'rish xususiyatlari; yuzaki (mexanik) xotira; mantiqiy xotira; his-tuyg'u (emotsiya); tafakkur (fikrlash); diqqat; aql-zakovat; til; musiqiy eshitish qobiliyati; ishga ijodiy munosabat; befarqlik; tajovuzkorlik; insonparvarlik

